

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT NAZARIYASI

fanidan

**test, mashq, masalalar to‘plami
(barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun)**

Toshkent – 2016

Tuzuvchilar: Kariyeva L.S., To‘rabekova G.I. “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test, mashq, masalalar to‘plami. – Toshkent ToshDTU 2016. 148 b.

To‘plam “Iqtisodiyot” kafedrasida “Iqtisodiyot nazariyasi” fan dasturi asosida tuzilgan va universitet ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlangan.

Ushbu to‘plam barcha ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning iqtisodiy bilimlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Undagi test, savol, mashq va masalalar “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining har bir mavzusi bo‘yicha tayyorlangan bo‘lib, talabalarni bilimlarini obyektiv baholashga yordam beradi.

Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy uslubiy kengashi tomonidan chop etishga ruxsat berilgan.

Taqrizchilar: Olimjonova Sh. - TDMU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dots. i.f.n.

Saidkarimova M.I. - TDTU “Iqtisodiyot” kafedrasi dots. i.f.n.

KIRISH

Talaba o‘qilgan ma’ruzani o‘zlashtirishi uchun turli-tuman usul-lardan foydalanishi zarur. Bir talabaga amaliy mashg‘ulotda faol qatnashishi uchun lug‘at daftar tutish tavsiya etilsa, ikkinchisiga o‘tilgan darsga taalluqli bo‘lgan savollar tuzishni tavsiya etish mumkin. Talaba o‘zining imkoniyatidan kelib chiqqan savolni o‘rtaga tashlaganda guruhdagilar ichida qiziqish paydo bo‘ladi. Boshqa talaba jadval, grafiklar, raqamlar yordamida materiallarni yaxshi o‘zlashtiradi. Yana bir talabaga formulalarni, yana biriga masalalarni yechish yoqadi. Malakali o‘qituvchi yil davomida dars olib borish natijasida talabalarning turlicha uslublar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatini anglay oladi.

Bizningcha, guruhga bir xil uslubiy yo‘nalish bilan munosabatda bo‘lish amaliy mashg‘ulotini faol olib borishga to‘sqinlik qiladi. Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm olayotgan talabalardan bugungi kunda faqatgina bilim talab qilinmaydi. Ulardan tashabbuskorlik, ijodkorlik talab qilinadi. Bugungi talaba yoshlar ertaga yosh mutaxassis, indinga iqtisodning qaysidir bo‘g‘inida boshqaruvchi bo‘ladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitishdan maqsad yuqoridaq talablarni qondirishdir. Shu maqsadda biz “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini o‘zlashtirishni mustahkamlash niyatida talabalarning o‘z ustida mustaqil ishлаshi uchun savollar, mashqlar, jadval va grafiklar, masalalardan iborat bo‘lgan uslubiy to‘plamni tayyorladik. Bu qo‘llanmani texnika oliy o‘quv yurtlarining iqtisodchi, muhandis talabalari uchun yordamchi material sifatida tavsiya etish mumkin.

I BO'LM. IQTISODIYOTNING UMUMIY NAZARIY ASOSLARI

1- mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish uslublari

Mazkur bo‘limda insoniyat taraqqiyotining asosi bo‘lgan iqtisodiyot tushunchasi, uning oldida turgan vazifalar, uzoq davr davomida iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishini qisqacha tavsiflash bilan boshlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi asosiy oqimlar va nazariyalarning umumiy bayoni qisqacha beriladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari uning metodlari va boshqa fanlar tizimida tutgan o‘rni va davlatning iqtisodiy siyosatni olib borishdagi ahamiyati o‘rganiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘rganishda shu kungacha uning rivojlanishiga asos solgan va boyitib borayotgan olimlarning asarlariga, statistika ma’lumotlari va ommaviy axborot vositalariga asoslaniladi.

Fanni o‘rganishda albatta O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarini tahlil etish zarur. Buni I.A. Karimov asarlarida iqtisodiyot nazariyasi va uning metodologiyasiga yetarli ravishda hissa qo‘shilganligi bilan asoslash mumkin. Ularning risolalarida XX asrning oxirgi 10 yilliklaridagi jamiyatdagi o‘zgarishlar aks ettirilgan.

Iqtisodiy o‘zgarishlar, uning oqibatlari va kelajagi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida ilmiy asoslab berildi. Shuning uchun unda berilgan xulosalar iqtisodiyot nazariyasi fani uchun olim iqtisodchilar, ishlab chiqarishdagi tashkilot rahbarlari, tadbirkorlar, iqtisodiy jarayondagi yangi o‘zgarishlarni mustaqil o‘rganuvchilari uchun nazariy-metodologik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuning maqsadi:

1. Iqtisodiyot nazariyasi nimani o‘rgatishini tushunish;
2. Ehtiyojlar va resurslarning ijtimoiy iqtisodiy mohiyatini baholash va ularni tarkibiy qismlarga ajratish;

3. Asosiy iqtisodiy maktablar va iqtisodiyot nazariyasi yo‘nalishlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash;
4. Iqtisodiyot nazariyasi usullari va vazifalarini o‘rganish;
5. Mikroiqtisodiyotni makroiqtisodiyotdan nima bilan farqlanishini aniqlash;
6. “Kategoriya”, “iqtisodiy qonunlar” kabi atamalarning mazmunini tushunish.

Atama va tushunchalar:

Talaba bu mavzu yuzasidan quyidagi atama va tushunchalarning mazmuni haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak: Katon, Aristotel, Platon, Ksenafont, Merkantilizm: Monkretyen, Fiziokratlar: FS.Kene, A. Tyurgo. Klassik siyosiy iqtisod vakillari, Marksizm, Marjinalizm, iqtisodiyot nazariyasidagi maktablar va yo‘nalishlar, keynschilik yo‘nalishi, neoklassik yo‘nalishlar, neoklassik sintez, neoliberalizm nazariyasi, Chicago, London, Frayburg maktablari, taklif va ratsional kutish nazariylari, muassasaviy ijtimoiy qarashlar, Sharqdagi iqtisodiy qarashlar.

Savollar:

1. Ehtiyojlarning o‘zgarishiga qanday omil ta’sir o‘tkazadi?
2. Ehtiyojlar o‘rtasidagi ziddiyatning sababini izohlang?
3. Mehnat qilish ehtiyoji nima?
4. Cheksiz ehtiyojlarni qanday qondirish mumkin?
5. Ehtiyojlarni qondirish vositalari va usullari nima bilan farqlanadi?
6. Siyosiy iqtisod, iqtisod, iqtisodiy nazariyalar tushunchasi o‘rtasidagi farqlar nimalardan iborat?
7. Iqtisodiy qarashlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarishi va yangicha ko‘rinishga ega bo‘lishining sababini izohlang.
8. Hozirgi iqtisodiy qarashlarning rivojlanishida, qadimgi davrdagi g‘oyalar, nazariyalarning ahamiyatini izohlang.
9. Davlatning qonunlari, qarorlari bilan iqtisodiy qonunlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab bering.
10. Iqtisodiy qonun, kategoriya, tamoyil, uslublar kabi ilmiy tushunchalarning mazmuni nimadan iborat va ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
11. Metodologiya va metod o‘rtasida qanday farq bor?

12. Qonuniyat nima? Qonun bilan qonuniyat o‘rtasida qanday bog‘-liqlik mavjud?

13. Milliy mafkura, milliy g‘oya, milliy istiqlol tushunchalarining iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari bilan bog‘liq ekanligini asoslab bering.

14. Faktlarni umumlashtirish natijasida olinadigan xulosalar qanday metod hisoblanadi?

15. Taxminlarni real iqtisodiy faktlar asosida asoslab berish qanday metod hisoblanadi?

16. Sharqdagi ulamolarning iqtisodga taalluqli bo‘lgan qanday asarlari bilasiz?

17. Iqtisodni makro va mikro darajada o‘rganish zaruriyati qachon va nima sababdan vujudga keldi?

18. “Muassasaviy”, “axborot vositalari asosidagi”, “industrial” ishlab chiqarish omillarining taklifi kabi iqtisodiy nazariyalarning mohiyati nimadan iborat?

Topshiriqlar:

1. Soxta tasavvur berib yuzaga keluvchi iqtisodiy hodisalar tub mohiyati va yo‘nalishini ochish uchun turli-tuman murakkab hodisalar orasidan eng asosiysini sof holda ajratib olib, ilmiy tekshirishni qiyinlashtiruvchi hodisalarni yo‘q deb faraz qilish bu _____ usulidir.

2. Fikran yoki amaliy jihatdan tarkibiy qismlarga asoslanib umumiyl holatni keltirib chiqarish bu_____ usulidir.

3. Butunni tarkibiy qismlarga fikran yoki amaliy jihatdan ajratish bu _____ usulidir.

4. Quyidagilarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini belgilang:

a) agar nazariy xulosalarning noto‘g‘riliqi amaliyotda tasdiqlansa, bu xulosa shubha ostiga olinadi;

b) normativ iqtisodiyot “qanday bo‘lishi kerak” degan savolni emas, balki “nima bor” degan savolning tahliliga qaratilgan;

d) bir xil sharoitda muvaffaqiyatlari tarzda o‘tkazilgan iqtisodiy siyosat boshqa xil sharoitda ham muvaffaqiyatlari o‘tadi;

e) iqtisodiy nazariyaning asosiy maqsadi biznesda muvaffaqiyatga erishishdir;

f) nazariya amaliyotda qo‘llanilishi uchun u har qanday aniq holatda tasdiqlanib turilishi lozim;

g) iqtisodiy fanlar asoslarini yaxshi o'zlashtirgan talabalar bu fanlarni o'qimagan talabalardan farqli o'laroq tadbirkorlik faoliyatini olib borishda muvaffaqiyatlarga erishadilar;

h) oliy matematikani bilmasdan turib iqtisodiyot nazariyasini o'rganish mumkin emas;

i) agar gipoteza amaliyotda tasdiqlansa, undagi nazariy qarashlar to'g'ri hisoblanadi;

j) iqtisodiyot nazariyasi kelajakni bashorat qila olmaydi, lekin iqtisodiyotning rivojidagi ma'lum ko'rinishlarning oqibatlarini tushuntirib bera oladi;

k) iqtisodiyot nazariyasi sotsializmning iqtisodiy munosabatlarini o'rganishda qo'llanilmaydi;

l) agar iqtisodchilar iqtisodiy tamoyillarni talqin qilishda hamfikr bo'lishsa, siyosiy ahvollarni baholashda ham fikrlari bir xil bo'ladi;

m) iqtisod aniq fan bo'lmasa, bilishning ilmiy usullaridan foydalana olmaydi.

5. Iqtisodiyot oldida turgan muammolarning qaysilari makro, qaysilari mikrodarajada o'rganiladi:

a) O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 8 - 9 % dan oshmaydi;

b) Toshkent poyabzal fabrikasi o'tgan yili 200 ta ishchini ishdan bo'shatdi;

d) O'zbekistonda yaxshi ob-havo sharoitlari paxta hosildorligini oshirishga olib keladi;

e) 2015 yili O'zbekistonda ishsizlik darajasi 7,2 % ni tashkil etdi;

f) 2013 yili iste'mol tovarlarining baholar darajasi 20% dan oshib ketdi;

g) to'satdan tushgan sovuq don hosildorligiga zarar yetkazdi va nati-jada nonning narxi oshib ketdi;

h) 2015 yilda YaMM darajasi 2014 yil ko'rsatkichiga nisbatan 8,2% ga oshdi;

i) sentyabr oyida Paxta bank xususiy omonatlar stavkasini 2% ga oshirdi;

j) ToshDTU ga shartnoma asosida qabul qilingan talabalar sonining oshganligi sababli professor-o'qituvchilarning maoshi oshirildi;

k) respublikada har yili davlat byudetining 40% ijtimoiy ta'minotga yo'naltiriladi;

l) respublika bo'yicha talabalarni qabul qilish rejasi oshirildi;

m) a'lochi talabalar yuqori stipendiya olishi kerak;

6. Quyidagilarning qaysilari normativ, qaysilari pozitiv tasdiqlarga tegishli:

- a) 2014 yil Respublikada inflyatsiya darajasi 7,8% ni tashkil etdi;
- b) har yili pul hajmi YaMM o'sish darajasiga mos ravishda o'sishi kerak, ya'ni 3-5% ga;
- c) 1994 yili inflyatsiya darajasi oyiga 30-33% ni tashkil etgan;
- d) aholining turmush darajasini oshirish uchun inflyatsiya darajasini pasaytirish kerak;
- e) bozor munosabatlariga o'tilishi aholining daromad bo'yicha taba-qalashuviga sabab bo'ladi;
- f) 2015 yili O'zbekistonda YaMM hajmi 9,5 foizga o'sdi;
- g) O'zbekistonda 70 dan ortiq Oliy o'quv yurtlari mavjud;
- i) o'tgan yili inflyatsiya darajasi 7,8 %ni tashkil etdi;
- j) 1992 yilda inflyatsiya natijasida mamlakat aholisining turmush darajasi pasayib ketdi;
- k) ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi ishlab chiqarayotgan mahsulot taklifini kamaytiradi;
- l) inflyatsiyaning eng maqbul darajasi yiliga 6-9%ni tashkil etishdir;
- m) univesitet rahbariyati darsga kelmaydigan talabalarni qattiq jazolashi kerak;

7. Quyidagilarda sabab-oqibat bog'liqligi mavjudmi? Qaysi biri sabab, qaysi biri oqibatdir:

- a) mehnatning kam xarajatligi - eski uskunalar;
- b) iqtisodiy o'sishning yuqori darajasi – mamlakatda aholi turmush darajasining yuqoriligi;
- d) baholar – bozordagi tovarlar miqdori;
- e) mahsulot bahosining pastligi – past xarajatlar.

8. Kollejni bitirganlarni ishga joylanishi va turmush darajasini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, mакtabda qoniqarli bahoga o'qiganlar a'lochilarga nisbatan ko'proq daromad oladilar. Bundan xulosa qilib, bilim darajasining oshishi daromadlarni pasayishiga sabab bo'ladi deyish mumkinmi?

Testlar:

1. Markaziy Osiyoda yashab o'tgan qaysi mutafakkirlar asarlarda iqtisodiy g'oyalari o'z aksini topgan?

- a) Farobi, Ibn Sino, M.Ulug'bek;

- b) A.Navoiy, A.Temur, Z.Bobur;
- d) A.Beruniy, X.Yusuf;
- e) yuqoridagilarning barcha asarlarida.

2. Iqtisodiy nazariyaning qaysi oqimida savdo-sotiq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi?

- a) merkantilizm;
- b) fiziokratlar;
- d) klassik burjua iqtisodiy maktabi;
- e) marjinalizm.

3. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasining qaysi oqimida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning va tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi?

- a) keynschilar;
- b) monitarizm;
- d) institutsionalizm;
- e) liberalizm.

4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimalardan iborat?

- a) ijtimoiy munosabatlarni o'rganish;
- b) iqtisodiy munosabatlarni o'rganish;
- d) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo'jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun qoidalarini o'rganish;
- e) huquqiy munosabatlarni o'rganish.

5. Quyidagilardan qaysi biri umumiyligi iqtisodiy qonunlar jumlasiga kiradi?

- a) qiymat qonuni;
- b) talab va taklif qonuni;
- d) ehtiyojlarning yuksalish qonuni;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

6. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning qaysi usulida dalillardan asosiy qonun-qoidalar ishlab chiqishni yoki amaliyotdan nazoriya tomon borishni bildiradi?

- a) ilmiy abstraksiya;
- b) deduksiya;
- d) induksiya;
- e) empirik.

7. Qur'oni Karimda aks etgan asosiy iqtisodiy g'oya nimadan iborat?

- a) insonlar dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishilari ta’kidlangan;
- b) “ehtiyoj” tushunchasi ta’riflangan va jamiyat hayotida moddiy ehtiyojlar ahamiyati ko‘rsatib berilgan;
- d) musulmonlar qardoshligi g‘oyasi ilgari surilgan, mulk muqaddasligi qayd qilingan, savdoga katta o‘rin berilgan va jamiyat tengsizligi azaldan deb tan olingan;
- e) moddiy boylik yaratishda mehnat va mehnat qurollari o‘rni belgilab berilgan.

2- mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Moddiy ne’matlar yaratish xo‘jalik hayotining asosini tashkil etadi. Kishilar yashashlari uchun ovqatlanishlari, kiyinishlari va uy-joyga ega bo‘lishlari kerak. Xo‘jalik faoliyatini yuritishdan maqsad jamiyatni, qolaversa uning har bir a’zosini talabini qondirishdir. Bu mavzuda quydagi tushuncha va kategoriylar o‘rganiladi: iqtisodiy tizim, bozor mexanizmi, ishlab chiqarish omillari, ishchi kuchi, mehnat qurollari, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari. Asrlar davomida kishilar mulkka egalik qilishga harakat qilib kelganlar. Tarixdan bizga ma’lumki, ko‘pgina qonli urushlar ham boylik to‘plash maqsadida mulkka egalik qilishdan kelib chiqqan. Doimo kishilar mulkga egalik qilishga harakat qilganlar. Mulkga egalik qilish kishilarning o‘z kuchlariga ishonishga, mulkga bo‘lgan munosabatga ta’sir o‘tkazgan. Mulkdan uzoqlashish, undan mahrum bo‘lish beparvolikka sabab bo‘lgan.

Shuning uchun iqtisodiyot nazariyasining asosiy muammolaridan biri mulkka egalik qilish mohiyatini tahlil etishga bag‘ishlanadi. Bu mavzuda quydagi tushuncha va kategoriylar o‘rganiladi: Iqtisodiy tizim, bozor mexanizmi, ishlab chiqarish omillari, ishchi kuchi, mehnat qurollari, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari.

Mavzuning maqsadi:

1. Xo‘jalik faoliyati va iqtisodiy samaradorlik tushunchalarining mohiyatini ochish;
2. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i nimani ifoda etishini aniqlash va uning yordamida muqobil xarajatlar mohiyatini, shuningdek

muqobil xarajatlar va daromadlarning kamayib borishi qonunlarining mohiyatini olib berish;

3. Turli iqtisodiy tizim sharoitida yuzaga keladigan asosiy iqtisodiy muammolarni shakllantirish va ularni hal qilish usullarini aniqlash;

4. Mulkiy munosabatlarning huquqiy va iqtisodiy ma'nosini bilish;

5. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi, muqobil xarajatlarning oshib borish qonunlarini bilish;

6. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish o'rtasidagi farqni bilish;

7. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish modellarini bilish.

Asosiy atama va tushunchalar:

Xo'jalik faoliyati. Ishlab chiqarish. Taqsimot. Ayirboshlash. Iste'mol va iqtisodiy ne'matlar. Moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar. Iqtisodiy resurslar. Noyoblik. Ishlab chiqarish samaradorligi. Iqtisodiy samaradorlik. Texnologik tanlov. Ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'i. Muqobil qiymat. Muqobil xarajatlarning o'sish qonuni. Ishlab chiqarish daromadligining kamayib borish qonuni.

Iqtisodiy tizim: an'anaviy, ma'muriy-buyruqbozlik, bozor va aralash iqtisodiy tizimning asosiy 3 ta vazifasi. Iqtisodiyotni tashkil etishning milliy modellari: Shvetsiya, Amerika, Yaponiya, Xitoy va boshqalar. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning O'zbek modeli. Mulk munosabatlari, xususiy mulk, ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darjasasi va xarakteriga mos kelish qonuni, tanlash muammosi, muqobil qiymat, ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi, muqobil xarajatining oshib borish qonuni, unumdoorlikning kamayish qonuni, mulkchilik turlari: jamoa, aralash, ijtimoiy tashkilotlar mulki, munitsipial mulk, kooperativ mulk, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy lashtirish, vaucherlar.

Savollar:

1. Ishlab chiqarish omillari tarkiban nimalardan iborat?

2. Mehnat unumdoorligining vaqtini tejash qonuniga aloqadorligini izohlang?

3. Ishlab chiqarish omillari qanday usullar bilan birikadi?

4. Takror ishlab chiqarishning qanday turlari mavjud?
5. Hozirgi yoshlarda ingliz tilini o‘rganishga ehtiyoj katta va bu ehtiyoj o‘sib bormoqda. Yoshlar hatto pul to‘lab bo‘lsa ham mazkur ehtiyojni qondirishga intiladilar. Shu hodisaning sabablarini mustaqil sharhlab ko‘ring.
6. O‘zbekistonda olib borilgan xususiylashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
7. Iqtisodiy tizim nima? Jamiyatda keng tarqalgan qanday iqtisodiy tizimlarni bilasiz?
8. “O‘zbek modelining” o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini aytib bering.
9. O‘tish davri nima? Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash nima uchun aynan o‘tish davrida amalga oshiriladi?
10. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan qanday farqlanadi?
11. Nima uchun bozor iqtisodiyotiining asosini turli shakldagi mulk tashkil etadi?
12. Marginal kim? Nima uchun uni mulk munosabati qiziqtirmaydi?
13. Mulkga egalik qilishdagi yuridik va iqtisodiy munosabatlar nima ni ifodalaydi?
14. Mulk egasi, unga egalik qilish huquqini kimga topshirishi mumkin?
15. Nima uchun bizda chet tillardan tarjima etilgan iqtisodiy adabiyotlarda mulkchilik munosabatlari yoritilmagan?

Topshiriqlar:

1. Tikuvchilik firmasida 10 ming metr gazlama bor. Shundan plash va kurtka tiksa bo‘ladi. 1ta plash uchun 3 metr, kurtka uchun 2 metr gazlama kerak. Shuni hisobga olib muqobil mahsulotlar egri chizig‘ini chizib ko‘ring.
2. Siz qo‘shma korxonada ishlamoqchisiz. Ammo buning uchun biznes asoslarini yaxshi egallash, ingliz tilini yaxshi bilish, kompyuterni yaxshi ishlata bilish talab etiladi. Siz bir yil davomida ingliz tili o‘qituvchisiga 250 ming so‘m, kompyuterda ishlashni o‘rganish uchun 200 ming so‘m, kompyuter ijarasi uchun 165 ming so‘m to‘ladingiz. 125 ming so‘mga har xil kitoblar sotib oldingiz. O‘qishga qatnash uchun transportga 165 ming so‘m sarfladingiz. O‘qish zarurligi sababli o‘rin-

doshlik ishingizni tashlab, u yerdan har oyda tegadigan 450 ming so‘mni ham olmay qo‘ydingiz, ammo asosiy ishingizdan har oyda 1 mln. 200 ming so‘m maosh olib turdingiz, yangi ishga o‘tgach, oyiga 2 mln. 300 ming so‘m maosh olasiz. Hisoblab ko‘ringchi, sizning ish haqingiz bir yilga necha so‘m bo‘lar ekan?

3. Iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan iqtisodiy resurslarga talab kambag‘al bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy resurslarga boy bo‘lgan mamlakatlarga nisbatan ehtiyojlar to‘laroq qondiriladi degan fikr to‘g‘-rimi? Agar to‘g‘ri bo‘lsa, buni amalga oshirish yo‘llarini sanab o‘ting:

Ehtiyojlarning qondirilishiga nima ko‘proq ta’sir etadi: mavjud resurslar miqdorimi yoki ularning taqsimotimi?

4. Quyida keltirilganlar to‘g‘rimi yoki noto‘g‘rimi:

a) resurslar noyobligi moddiy ehtiyojlarning cheksizligi bilan ifodalanadi;

b) agar barcha ekin maydonlari hosildor bo‘lganida, u holda qishloq xo‘jaligida daromadlarning kamayib borish qonuni amal qilmagan bo‘lar edi;

c) ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar miqdorini bilish orqali har doim ishlab chiqarish kimlar uchun rivojlanganligini bilish mumkin;

d) bugungi kunda an’ana va tajribalardan qarorlarning qabul qilishning asosiy mexanizmlari sifatida avvalgi yillardagiga nisbatan ko‘proq foydalilanadi;

e) kelajakda ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun, zaxirani ta’minalash uchun ishsizlikning o‘sib borishi qo‘llab-quvvatlanadi;

f) ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig‘i noyoblik, muqobil xarajatlar va muqobil tanlov kabilarni ifodalaydi;

g) agar iqtisodiyot samarali bo‘lsa, bu iqtisodiy sharoitga daromadning kamayib borish qonuni amal qilmaydi;

h) iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarilayotgan ne’matlar va xizmatlar hajmining o‘sganligini va egri chiziqni chap tomonga surilishini ifodalaydi;

i) oziq-ovqat mahsulotlari resurs emas;

j) texnologiyaning o‘zgarishi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ining o‘zgarishiga olib kelmaydi;

k) agar ishlab chiqarish imkoniyatlarining chegarasi yuqoriga qarab surilsa, u holda aholining o‘sishidan xavotirlanmaslik kerak;

l) agar ishlab chiqarish imkoniyatlari modelida iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasida joylashsa, demak u o‘z resurlaridan keragicha foydalanmaydi;

5. Qanday resurslarning cheklanganligi O‘zbekistonning iqtisodiyotini rivojlanishini sekinlashtiradi? Sizning fikringizcha resurslarning cheklanganlik muammosini qanday hal qilish mumkin?

6. Tropik iqlimli orolda 10 ta odam yashaydi. Ular banan terish va baliq ovlash bilan shug‘ullanishadi. Kuniga har biri yoki 200 ta banan teradi, yoki 8 ta baliq tutadi:

a) orol iqtisodiyotining ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ini chizing;

b) agar orolga kiritilgan yangi texnika yordamida har bir kishi kuniga 280 tadan banan tersa, u holda egri chiziq qanday o‘zgaradi;

d) agar orol aholisi qandaydir yangi usulni qo‘llab, kuniga 20 tadan baliq tutsa, u holda egri chiziq qanday o‘zgaradi;

7. Xususiylashtirish yo‘llaridan biri mulkni sotish hisoblanadi. Sotish uch xil usul bilan amalga oshiriladi.

I-usul. Mavjud bo‘lgan mulkni ro‘yxatdan o‘tqazib, umumlashtirib ularning qiymatini belgilash.

II-usul. Mulkdan olinadigan foyda asosida uning qiymatini belgilash.

III-usul. Mulkdan olinadigan foydani tahlil qilish va uning bahosini belgilash.

O‘zbekistonda shu 3 ta usulning qaysi biri qo‘llaniladi?

1-masala. Xususiylashtirishga mo‘ljallangan ishlab chiqarish vositalari (fabrika misolida):

1. Bino -100000 ming so‘m

2. Tikuv mashinalari -50000 ming so‘m

3. Xomashyo -10000 ming so‘m

4. Sklad va x.k. -10000 ming so‘m

Xususiylashtirilgan mulkning bahosini aniqlang.

2-masala. Korxona yilda 100000 ming so‘mlik foydaga ega bo‘ladi. Ishlab chiqarish vositalarining xizmat muddati 15 yil. Ular 10 yil xizmat qilgan. Olinayotgan foyda ishlab chiqarish vositalarining 7 yil qiymatini qoplagan. Ishlab chiqarish vositalarininig sotilish bahosini aniqlang.

3-masala. Korxonada mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish vositalarining xizmat muddati 15 yil. Binolarning xizmat muddati 15 yil. Ishlab chiqarish vositalari va binolar 5 yil xizmat qilgan, xizmat muddati tugagandan so‘ng korxona 300000 ming so‘m foydaga ega bo‘ladi. Ishlab chiqarish vositalari va binolar bahosini aniqlang.

Testlar:

1. “Nima ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish va kim uchun ishlab chiqarish kerak” degan muammo qaysi tizimda mavjud:

- a) faqat totalitar tizimda;
- b) faqat qoloq iqtisodiyotda;
- c) faqat bozor iqtisodiyotida;
- e) ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzumdan qat’iy nazar hamma jamiyatda.

2. “Nima ishlab chiqarish kerak” degan muammo bo‘lmaydi, agar:

- a) resurslar shu darajada cheklanganki, ular faqat iste’mol buyumlarini ishlab chiqarish uchungina ishlataladi;
- b) iqtisodiyot hali kamayib boruvchi unumdorlik qonuni faoliyat qiladigan darajaga yetgani yo‘q;
- d) resurslar shu darajada ko‘pki, ular yordamida 2 darajali mahsulotlarni ham ishlab chiqarish mumkin;
- e) har bir resurs alohida xususiyatga ega bo‘lib, undan faqat 1ta mahsulot ishlab chiqarishda foydalilanadi.

3. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i quyidagilarning qaysi birini ifodalaydi:

- a) iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan ikki xil mahsulotning aniq miqdorini;
- b) ikki xil mahsulotni ishlab chiqarishning eng maqbul kombinatsiyasini;
- d) resurslarning ma’lum miqdori sharoitida ikki xil mahsulotni ishlab chiqarishning muqobil kombinatsiyasini;
- e) ishlab chiqarish vositalari unumdorligining kamayib boruvchi qonuni kuchga kirgan vaqtini.

4. Agar iqtisodiy muammolar qisman bozor va qisman davlat tomonidan hal etilsa, bu hol:

- a) bozor iqtisodiyoti;
- b) ma’muriy-buyruqbozlik tizimi;
- d) aralash iqtisodiyot;
- e) an’anaviy iqtisodiyot bo‘ladi.

5. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalilanayotganda, tanlash orqali qilinadigan xarajatlar qanday ataladi:

- a) ishlab chiqarish xarajatlari;
- b) muqobil xarajatlar;
- d) iqtisodiy xarajatlar;
- e) transaksion xarajatlar.

6. Daromadlarning kamayib borish qonuni amal qiladi, agar:

- a) hamma iqtisodiy resurslar cheksiz bo'lsa;
- b) bir yoki bir nechta resurslar cheklangan bulsa;
- d) barcha resurslar cheklangan bo'lsa;
- e) hamma javob noto'g'ri.

7. Agar jamiyatda resurslar hajmi ko'paysa, u holda:

- a) ko'proq tovar va xizmatlar ishlab chiqariladi;
- b) ko'proq tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun imkoniyatlarga ega bo'ladi;
- d) ishlab chiqarish texnologiyasi yaxshilanadi;
- e) turmush darajasini standartlari oshadi.

8. Odamlarning ehtiyojlarini bilvosita bildiruvchi, inson tomonidan yaratilgan resurslar - bu:

- a) yer;
- b) kapital;
- d) iste'mol tovarlari;
- e) ishchi kuchi.

9. Quyidagilarning qaysi birida iqtisodiyot samarali hisoblanadi?

- a) to'liq bandlikka erishilsa;
- b) resurslardan to'liq foydalanilsa;
- d) yoki to'liq bandlik, yoki resurslardan to'liq foydalanishga erishilsa;
- e) ham to'liq bandlik, ham resurslardan to'liq foydalanishga erishilsa;

10. «Qanday ishlab chiqarish kerak» degan muammo paydo bo'lmaydi, agar:

- a) iqtisodiy resurslar miqdori qat'iy belgilangan va aniq mahsulotlarga "biriktirilgan" bo'lsa;
- b) iqtisodiyotda daromadlarni kamayib borish qonuni mavjud bo'lmasa;
- d) mavjud ish kuchiga nisbatan resurslar zaxirasi cheklangan sharoitda;
- e) texnik jihatdan rivojlangan jamiyatda, chunki bu sharoitda yuqidagi muammo texnik tus oladi.

11. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy resurslar tarkibini to'liq aks ettiradi?

- a) mehnat vositalari va ish kuchi;
- b) kapital, yer, ish kuchi va tadbirkorlik layoqati;
- d) tabiiy va inson resurslari;
- e) ishlab chiqarishning moddiy omillari.

12. Iqtisodiy resurslarning barcha turi uchun umumiyligiga bo‘lgan xususiyat nimadan iborat?

- a) mutlaq cheklanganlik;
- b) inson mehnatining natijasi;
- d) nisbatan cheklangan yoki kamyob;
- e) qiymatga ega.

13. Quyidagilardan qaysi biri bиргаликда qondiriladigan ehtiyoj hisoblanadi?

- a) moddiy ehtiyoj;
- b) madaniy-maishiy ehtiyoj;
- d) ijtimoiy ehtiyoj;
- e) ma’naviy ehtiyoj.

14. Jamiyat ehtiyojining miqdoran o‘sib va tarkiban yangilanib borishiga nima ta’sir ko’rsatadi?

- a) aholi sonining o‘sishi;
- b) fan-texnika taraqqiyoti;
- d) reklama va aloqa kommunikatsiyasining rivojlanishi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

15. Cheklangan resurslar bilan cheksiz ehtiyojlarni to‘laroq qondirib berishga qanday erishiladi?

- a) ehtiyojlarning qondirishning maqbul darajasini aniqlash;
- b) muqobil mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- d) resurslardan foydalanishning muqobil variantlaridan eng ko‘p mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydiganini tanlab olish;
- e) yuqoridagi barcha yo’llar bilan.

16. Aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi qanday aniqlanadi?

- a) ularning talabi va ehtiyojlari taqqoslanadi;
- b) aholining haqiqiy iste’mol darajasi va ehtiyojlari taqqoslanadi;
- d) aholi pul daromadlari va talablari taqqoslanadi;
- e) aholi real daromadlari va ehtiyojlari taqqoslanadi.

17. Alovida kishilar, korxonalar va davlat ehtiyojlarining umumiyligiga bo‘lgan xususiyatlari nimadan iborat?

- a) tarkiban bir xil;
- b) cheksiz va chegarasiz;

- d) miqdoriy o‘lchamga ega;
- e) nisbatan cheklangan.

18. Quyidagi omillardan qaysi biri resurslarning mavjud hajm-da ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirib borish imkonini beradi?

- a) texnika taraqqiyoti;
- b) texnologiyaning takomillashuvi;
- d) resurslar sifatining ijobiy o‘zgarishi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

19. Mulkchilik munosabatlari iqtisodiy ma’noda – bu:

- a) biror kishiga tobe bo‘lmagan holda, moddiy ne’matlardan o‘z shaxsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanish;
- b) moddiy ne’matlarni ma’lum shaxslarga tegishli ekanligining qonuniy tasdiqi;
- d) mulkdorlar xulqining chegarasi va tabiatni belgilovchi qoidalar;
- e) ishlab chiqarish vositalari va ularning natijalarini o‘zlashtirish yuzasidan kelib chiqadigan kishilar o‘rtasidagi xo‘jalik munosabatlari.

20. Ma’lum shaxslar ishlab chiqarishning buyumlashtirilgan sharoitlari va uning natijalariga shaxsan o‘zinikidek munosabatda bo‘ladilar. Bu holda mulkchilikning qaysi shakli to‘g‘risida gap ketmoqda:

- a) umumiyl mulk;
- b) xususiy mulk;
- d) davlat mulki;
- e) shaxsiy mulk.

21. Quyida keltirilgan xo‘jalik subyektlarining qaysi birida umumiyl qo‘shma mulk shakli mavjud:

- a) «VIKA» ishlab chiqarish kooperativi;
- b) «Medlans» xususiy firmasi;
- d) shahar transporti;
- e) “Yoshlar” kanali

22. Mulkni xususiy lashtirish deganda nima tushuniladi?

- a) davlat sektorini cheklashtirish;
- b) davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish jarayoni;
- d) jamoa, aksioner va xususiy korxonalarni davlat mulkiga aylantirish jarayoni;
- e) erkin tovar ishlab chiqaruvchilarni shakllantirish jarayoni.

23. Kichik va o‘rta korxonalarni xususiy lashtirish maqsadida so-tishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- a) chet el investorlarini jalg qilish maqsadida;
- b) ijtimoiy xarajatlarni maksimal qisqartirish maqsadida;
- d) katta miqdordagi kapitalning mobilizatsiyasi;
- e) sotilayotgan obyektning bahosi individual xaridorlarning moliyaviy imkoniyati doirasidan chiqmasligi.

24. Mulkchilik munosabatlarining huquqiy ma'nosi - bu:

- a) moddiy ne'matlardan shaxsiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida erkin foydalanish;
- b) jamiyat a'zolari o'rtasida mulkning taqsimlanishi va o'zlash-tirilishini aniqlovchi huquqiy me'yorlar;
- d) kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va ularning natijalarini o'zlashtirish yuzasidan kelib chiqadigan xo'jalik munosabatlari;
- e) moddiy ne'matlarda ishlab chiqarish maqsadida foydalanishga bo'lgan imkon.

25. Samarali bo'lgan mulk shaklini aniqlang:

- a) kollektiv mulk;
- b) xususiy mulk;
- d) umumiy ulushli mulk;
- e) umumiy qo'shma mulk.

26. Quyida keltirilgan xo'jalik subyektlarining qaysi biri umumiyoq qo'shma mulk shakliga mansub:

- a) fermer xo'jaligi;
- b) "Uzximfarm" OAJ;
- d) "Uzkabel" qo'shma korxonasi;
- e) "Demir" supermarketi.

27. Quyida keltirilganlarning ichida mulkni milliy lashtirishning to'liq va aniq ta'rifini aniqlang:

- a) milliy lashtirish – bu davlat sektorini shakllantirishdir;
- b) milliy lashtirish – bu mulkchilik munosabatlarining qayta shakllanish jarayoni bo'lib, unda obyektlar davlat mulki shaklidan xususiy mulk shakliga o'tadi;
- d) milliy lashtirish – bu mulkchilik munosabatlarining qayta shakllanish jarayoni bo'lib, unda jamoa, aksioner va xususiy korxonalar davlat mulkiga aylantiriladi;
- e) milliy lashtirish – bu erkin tovar ishlab chiqaruvchilarni shakllantirish jarayonidir.

28. Mulkni xususiy lashtirish maqsadida qo'shma korxonalarini shakllantirish usulining afzalligi quyidagilardan iborat:

- a) chet el investorlarini jalg qilish imkoniyati;
- b) ijtimoiy xarajatlarni maksimal qisqartirish;
- d) yirik hajmdagi kapitalni jalg etish;
- e) korxona moliyaviy tuzilmasini qayta qurish hisobiga foyda olish.

29. “O‘zbekiston Respublikasi mol-mulkini boshqarish va privatizatsiya qilish qo‘mitasi” qachon tashkil etildi?

- a) 1989 yilda;
- b) 1990 yilda;
- d) 1991 yilda;
- e) 1992 yilda;
- f) 1993 yilda.

30. Mulkiy munosabatlarning qaysi jihatni to‘liq mulkdorlik maveini ta’minlaydi?

- a) mulkka egalik qilish;
- b) mulkdan foydalanish;
- d) mulkni tasarruf qilish;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

31. Mulkning qaysi obyekti bevosita shaxsiy iste’mol qilinishi mumkin?

- a) ishlab chiqarish vositalari;
- b) tabiiy boyliklar;
- d) insonning mehnat qilish qobiliyati – ish kuchi;
- e) iste’mol tovarlari va xizmatlari.

32. Quyidagilardan qaysi biri mulk subyekti tushunchasining mazmunini to‘laroq xarakterlaydi?

- a) mulk obyektini o‘zlashtiruvchilar;
- b) mulkdan foydalanuvchilar;
- d) mulkiy munosabat ishtrokkchilari;
- e) ishlab chiqaruvchilar.

33. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida Respublika iqtisodiyotining negizini qanday mulk tashkil qiladi?

- a) davlat mulki;
- b) guruhiy mulk;
- d) jamoa mulki;
- e) xilma-xil mulk.

34. Mulkning quyidagi shakllaridan qaysi biri alohida olingan mulk obyekti va uning natijalarini turli mulkdorlar ishtirokida o‘zlashtirilishini bildiradi?

- a) xususiy;
- b) shaxsiy;
- d) jamoa;
- e) aralash.

35. Mulkni davlat tassarufidan chiqarishning qaysi yo‘li erkin tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochib berishni ko‘zda tutadi?

- a) hissadorlik jamiyatiga aylantirish;
- b) jamoa mulkiga aylantirish;
- d) ijaraga berish;
- e) xususiy lashtirish.

3-mavzu. Tovar - pul munosabatlarining rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi. Bozor Iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistonidagi xususiyati

Millati va elati, tabiiy sharoiti, geografik joylashishidan qat’iy nazar har qanday jamiyat xo‘jalik yuritishning ikki xil shaklini bosib o‘tadi: Natural va tovar xo‘jaligi. Natural ishlab chiqarishning muddati bilan davlatlar bir-biridan farq qiladi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, natural xo‘jalikning amal qilish davri shunchalik qisqa bo‘ladi yoki aksincha. Tovar xo‘jaligi rivojlanishi eng yuqori rivojlangan bosqich kapitalizmning vujudga kelishini ifodalaydi. Kapitalizmning vujudga kelish o‘z-o‘zini boshqaradigan bozor iqtisodiyotining amal qilishini ko‘rsatadi.

Bozor xo‘jalogining vujudga kelish jarayoni uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Bozor ayriboshlash va muomalaning aniq namoyon bo‘ladigan shaklidir. Bozor munosabatlarining moddiy asosi tovarlar va pul-larning harakatidan iborat. Hozirgi kunda hayot darajasida uncha katta tafovut bo‘lmagan davlatlar bozor iqtisodiyotining rivojlangan davrida (Skandinaviya orolidagi davlatlar) yashamoqda. Lekin bizning respublikamiz mustaqillik davrlaridan boshlab bozor iqtisodiyotiga o‘tganligi sababli bozor iqtisodiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha muomolarni o‘rganish va tahlil etish zarur bo‘lmoqda. Shu maqsada bu mavzuda bozorning mohiyati, belgilari, subyekti va obyekti uning rivojlanish bosqichlari, afzallik va kamchiliklari, turlari, unsurlari, bozor infrazuzilmasi kabi, uning tarkibiy qismlari tahlil etiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning shu kungacha uch modeli mavjudligini xalqaro tajribadan bilsak bo‘ladi:

1. G‘arbiy Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlar yo‘li;

2. Mustamlakachilikdan ozod bo‘lgan davlatlar yo‘li;

3. Sobiq sotsialistik davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li;

Bu yo‘llarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu yo‘llarning barchasi bozor iqtisodiyotiga olib boradi, uning qonun-qoidalari ham bir xil bo‘ladi. Lekin har bir davlatning iqtisodiy, tarixiy, huquqiy shart sharoitlari bir-biridan farq qilganligi sababli ularning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston jahon tajribasini rad qilmagan holda ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos va mos yo‘lini prezidentimiz I.A.Karimov ishlab chiqdi. O‘zbekiston yo‘li I.A.Karimov bozor islohoti yuzasidan olg‘a surgan besh tamoyilga asoslanadi. Mustaqillikka erishilgandan buyon o‘tgan davr ichida O‘zbekiston Respublikasi o‘z taraqqiyot yo‘lining salmoqli qismini bosib o‘tdi. Siyosiy tizimni yanada isloh qilishning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning, ichki va tashqi siyosatini shakllantirishning puxta bazasi yaratildi. Bugungi kunda jahon tajribasidan foydalanib, asosan o‘z kuchi va salohiyatiga suyanib, O‘zbekiston sifat jihatdan yangi holat sari, chinakkam iqtisodiy mustaqillik va davlat istiqboliga erishish sari og‘ishmay bormoqda

Demokratik davlat barpo etish yuzasidan qabul qilingan dastur, O‘zbekiston munosib o‘rin egallab turgan jahon hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Mavzuning maqsadi:

1. Natural va tovar xo‘jaligi tushunchalarini aniqlash va uning asosiy belgilarni ko‘rsatib berish.

2. Tovarning mohiyati va xususiyatlarini o‘rganish.

3. Mehnatning qiymat nazariyasi va chegaraviy naflilik nazariyalari tushunchalari.

4. Pulning vujudga kelishi, mohiyati va uning vazifalarini, pul muomalasi qonunini tushuntirib berish.

5. Bozorning vujudga kelishi va amal qilish shart-sharoitlari bilan tanishtirish.

6. Bozorning tuzilishi, bozor infratuzilmasi va uning vazifalarini o‘rganish.

7. Bozorning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash.
8. Bozor subyektlari va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish.

Atama va tushunchalar:

Natural xo‘jalik, ijtimoiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv, mehnat unumdarligi. Tovar xo‘jaligi, qiymat, iste’mol qiymati, mehnat tezligi, qiymatning miqdori, konkret va abstrakt mehnat. Qo‘sishimcha qiymat, kapital, ijtimoiy zaruriy qiymat, naflilik, naflilik chegarasi, chegaraviy naflilikning kamayib borish qonuni, mehnatni qiymat nazariyasi. Ijtimoiy mehnat sarfi. Doimiy va o‘zgaruvchan kapital, qo‘sishimcha qiymat normasi va massasi, absolyut va nisbiy qo‘sishimcha qiymat. Qiymat formalarining rivojlanishi va pulning vujudga kelishi, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori, pul turlari, pulning vazifalari, I.Fesherning almashuv tenglamasi, pulning qadrsizlanishi, uning turlari. Likvidlik.

Bozor, iqtisodiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv. Transaksiya xarajatlari. Erkin tanlash. Bozorning tuzilishi: tarmoq, hududiy, amaldagi qonunlar, raqobat kurashining cheklanganligi, bozor obyektlarining iqtisodiy xususiyatlari asosida bo‘linishi. Bozor infratuzilmasi. Bozorning vazifalari: axborotlarni to‘plash, rag‘batlantiruvchi, tartiblan-tiruvchi, baholarni shakllantiruvchi.

Bozorning ijobiy va salbiy tomonlari. Bozor iqtisodiyotining subyektlari: uy xo‘jaliklari, biznes (korxona), davlat. Bozor iqtisodiyotida daromadlar va xarajatlar oqimining doiraviy aylanishi sxemasi.

Islohotlar konsepsiysi, strategiyasi va tamoyillari. Ma’muriy buyruqbozlik tizimi. Rejali iqtisodiyot, qatlamlar. Iqtisodiy plyuralizm. Iqtisodiy isloh qilish, erkinlashtirish va barqarorlashtirish. Bozor iqtisodiyotiga evolyutsion va revolyutsion yo‘l bilan o‘tish. Demokratik o‘zgartirishlar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘zbekcha modeli va tamoyillari. Kuchli bozor infratuzilmasini yaratish.

Savollar:

1. Natural xo‘jalikning yemirilish sabablari?
2. Tovar xo‘jaligining vujudga kelish sabablari nimalardan iborat?
3. Iqtisodda samaraning pasayish qonuni amal qiladi. Bunday holda qanday qilib iqtisodiy o‘sish mumkin?

4. Qanday sharoitda ish kuchi tovar hisoblanadi?
5. Tovarning qiymatiga qanday omillar ta'sir etadi?
6. Iste'mol va mahsulotlarning nafliligi vaqt o'tishi bilan o'zgaradimi?
7. Qo'shiqchini hech kim tinglamadi. Shunday holda uning mehnati-ni abstrakt mehnat deb xisoblash mumkinmi?
8. Qanday holda almashish barter shaklida amalga oshadi?
9. Ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'r-tasida o'zaro aloqadorlik qanday namoyon bo'ladi?
10. Naflilik shartli ravishda qanday ko'rsatkichda ifodalanadi?
11. Bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligining sababi?
12. Ma'muriy buyruqbozlik tizimining kamchiliklari nimalardan iborat?
13. Moddiy texnika ta'minoti yordamida resurslarni normativlar aso-sida markazdan rejali taqsimlashning mohiyati va uning kamchiliklari nimadan iborat?
14. Bozor iqtisodiyotga o'tishning birinchi va ikkinchi bosqichlar-ning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
15. Iqtisodiy islohatlarning asosiy ustivor yo'nalishlari nimalardan iborat?
16. Nima uchun o'tish davrida iqtisodda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshiriladi?
17. O'tish davri nima?
18. Bozor infratuzilmasi nima. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzil-ma nima?
19. Xufiya iqtisod nima?
20. Bozorning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
21. Mahalliy bozor nima?
22. Bozor iqtisodiyotida bir xildagi tovarlar narxining bir - biridan keskin farq qilishining sababi nimada?
23. Bozorning tuzilishi qanday ko'rinishga ega?
24. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish asosi nimadan iborat?
25. Bozor bilan reja bir-biri bilan qarama-qarshi bo'lgan holatini ifo-dalaydi yoki ular bir-biriga bog'liqmi?
26. Kulrang bozor nima?
27. Innovatsiya bozorining iqtisodiyotni jadal rivojlantirishdagi aha-miyatini asoslab bering?
28. Islohotlarni amalga oshirishda nima uchun ma'naviy qadriyatlar-ni tiklash kerak?
29. Bozor mexanizmi nima?

30. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz? Uning qanday asosiy belgilarini bilasiz?

31. Rejali iqtisodiyot va bozor iqtisodiyotining qanday farqi bor?

32. Bozor iqtisodiyoti obyektlariga nimalar kiradi?

33. Bozor iqtisodiyotining qanday turlari mavjud va ular nima bilan farqlanadi?

34. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishining qanday o‘ziga xos yo‘li va tamoyillarini bilasiz?

35. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning qanday yo‘llari bor?

36. Quyidagilarning qaysi biri bozor iqtisodiyotiga xos belgilar ekanligini aniqlang: davlatlashtirilgan iqtisodiyot; erkin iqtisodiyot; resurs talab iqtisodiyot; sermehnat iqtisodiyot; serfoyda iqtisodiyot; raqobatli iqtisodiyot; ijtimoiy mo‘ljalli iqtisodiyot; demokratik iqtisodiyot?

37. Qaysi islohotlar bozor islohotlarining asosiy bo‘g‘ini bo‘lishini asoslashga urinib ko‘ring: davlat islohoti, agrar islohot, mehnat islohoti, eksport - import islohoti, mulkiy islohot, moliya islohoti?

38. O‘zbekistonning qaysi xususiyatlari bozor iqtisodiyotiga o‘tishda o‘ziga xos yo‘l tanlash uchun asos bo‘ladi? – ko‘p partiyaviylik, aholining ko‘p millatli bo‘lishi, aholini tez o‘sishi, demokratik davlat tuzimining mavjudligi, tabiiy boylikning ko‘pligi, iqtisodiyotning bir yoqlama rivojlanganligidan dalolatdir.

Topshiriqlar:

1. Quyidagilardan qaysi biri tovar, qaysi biri natural xo‘jalikning xususiyatlarini ifodalaydi?

– mehnat jarayonini an’ana, odat va ayrim xo‘jaliklar doirasida majburiy o‘rnatilgan aloqalarga asoslangan;

– mahsulotlarni ishlab chiqish va iste’mol qilish tor doirada amal qiladi;

– ishlab chiqarish mulkdorlarning shaxsiy mehnatiga hamda yollanma mehnatga asoslangan;

– ishlab chiqarish jarayoni unumdarligi past bo‘lgan, o‘zining ehtiyojlaridan ortiqcha mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mehnat qurollari yordamida amalga oshiriladi;

– ishlab chiqarilgan mahsulot mulkdorlarga tegishli bo‘lib, bozorda sotishga mo‘ljallangan;

– iqtisodiy rivojlanish juda sekinlik bilan amalga oshadi, ayrim yangiliklar asrlar davomida amalga oshadi;

– jamiyatning jadal iqtisodiy taraqqiyoti yuqori mehnat unum-dorligining natijasi hisoblanadi.

2. Quyidagi fikrlarning qaysi biri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang:

– qiymatga ega bo‘lmagan buyum tovar emas;

– iste’mol qiymatiga ega bo‘lish, lekin qiymatga ega bo‘lmasligi mumkin;

– iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan buyum tovar hisoblanadi;

– natural xo‘jalikda ishlab chiqarilgan mehnat mahsuli bozorda sotishga mo‘ljallangan;

– tovarning qiymati faqat mehnat sarfi bilan aniqlanadi;

– tovar ishlab chiqarish jarayonida qo‘sishimcha mahsulot yaratilmaydigan, unumdarligi past bo‘lgan ishlab chiqarish vositalaridan foydalilanadi;

– har qanday mehnat mahsuli tovar hisoblanadi;

– pul tovar emas, u almashuv vositasi;

– pul kishilarning almashuv munosabatlarini yengillashtirish uchun muomalaga kiritilgan;

– pul, o‘z vazifalaridan birini bajarmasa pul hisoblanmaydi;

– pulning eng muhim vazifasi muomalala vositasi ekanligida?

3. Talaba va yoshlar omadli tadbirkor uchun 1000 so‘mlik pulning chegaraviy nafliligi bir xilmi? Javobingizni asoslang.

4. Iqtisodiy ne’matlarning barchasi naf keltiradimi? Giyohvandlik moddalari, spirtli ichimliklar, ahloqsizlik aks ettirilgan tasvirlar kishilar uchun zararliku? Iqtisodiyot nazariyasida naflilik deganda nimani tushunasiz? Javobingizni asoslang.

5. Bir xil iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan tovarlarni 1 - guruh 5 ming dona, 2 - guruh 20 ming dona, 3 - guruh 10 ming dona ishlab chiqargan. Ijtimoiy mehnat sarfi 4 soatga teng. 1- guruhning individual mehnat sarfi 2 - guruhning mehnat sarfidan 2 barobar kam, 3 - guruhning individual mehnat sarfini aniqlang.

6. Uyni ta’mirlashga 100 qop sement zarur. Sizda 99 qop sement bor. 100 chi qopning nafliligi qancha? Bunday holat chegaraviy naflilik qonunini inkor etmaydimi?

7. Quyidagi hollarda pul qanday vazifani bajaradi:

- tovarni kreditga sotib olish;
- tovarni naqd pulga sotib olish;
- qarz to‘lash;
- tovarni sotib olish uchun pul jamg‘arish;
- ish haqi olish;
- pulni bankka qo‘yish;
- kommunal xizmatlarga pul to‘lash;
- tovarlar bahosini belgilash;
- soliqlar to‘lash;
- yo‘l haqi;
- ta’mirlash uchun to‘lov.

8. Sizning naqd 100 million so‘m pulingiz bor. Do‘stingizning dala hovlisi 100 million so‘mga baholandi. Kimning puli qadrliroq? Pulni ko‘chmas mulkda saqlash maqsadga muvofiqmi?

9. 8 soatlik ish kunida 40000 so‘mlik yangi qiymat yaratiladi. Qo‘sishimcha qiymat normasi 100%. Ishchining iste’mol tovarlarining qiymati ikki baravar pasaysa, ekspluatatsiya darajasi necha foizga o‘zgaradi? Qanday tarmoqlarda mehnat unumdarligini oshishi kerak? Masalada qo‘sishimcha qiymatni ishlab chiqarishning qanday usuli qo‘llanilgan ?

10. Uchta korxonada eshik ishlab chiqariladi. Bitta eshikni ishlab chiqarish uchun birinchi korxonada 2 soat, ikkinchisida 3 soat, uchinchisida 4 soat mehnat sarflanadi. Bitta eshik ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy mehnat sarfini aniqlang.

(Javob: 3 soat).

11. Bozor iqtisodiyoti tizimi iqtisodiyotning fundamental savollariga qanday javob beradi? Nima uchun iqtisodiy yechimlarni yechish kerak?

12. Quyidagi yechimlarning qaysi biri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang:

- A.Smit “ko‘rinmas qo‘l” nazariyasini ilgari surganda u iqtisodiyotni davlat boshqaradi, jamiyat buni tushunmaydi deb hisoblagan;
- “kim uchun ishlab chiqarish kerak?” degan muammoni davlatning ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmaydi;
- Bozor iqtisodiyotida mablag‘i ko‘p bo‘lganlargina ko‘p tovar sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- Bozor iqtisodiyotida qanday tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishni iste’molchilar hal qiladilar;

- Yonilg‘i quyish shaxobchasi bozorning bir turi;
- Bozor bu ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar o‘rtasida amalgamoshiriladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi;
- Uy xo‘jaligi bozor xo‘jaligiga mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beruvchi subyekt hisoblanadi;
- Transaksion xarajatlarning vujudga kelishi tovar ishlab chiqaruvchilarning ma’lum bir kasbga iqtisodiy jihatdan ixtisoslashuvi bilan bog‘liq;
- Bozor infratuzilmasi bozor subyektlari manfaatlarini amalgamoshirsga yordam beradi;
- Bozorni tartibga solish vazifasi baholarni muvozanatda bo‘lishini ta’minlashda ifodalanadi.

13. Tovarlarni almashtirish jarayonida ishtrokkhilarga qaratilgan “ko‘rinmas qo‘l” g‘oyasining muallifi kim? “Ko‘rinmas qo‘l” nazariyasi uning qaysi kitobida yozilgan? Bu tamoyil AQSh, Angliya, Yaponiya, O‘zbekiston bozorlari uchun dolzarbmi?

14. Insoniy va moddiy resurslardan foydalanganda ixtisoslashuvning afzalligi nimada ifodalanadi, uning kamchiliklarichi?

15. “Transaksiya xarajatlari” atamasi nimani ifodalaydi? Bu atamani an’anaviy, buyruqbozlik, bozor iqtisodiyoti tizimlarida qo‘llash mumkinmi?

16. “Bozor infratuzilmasi” atamasining mazmuni nimani ifodalaydi? Quyidagi tashkilotlardan bozor infratuzilmasi tarkibiga kiradiganlarini aniqlang: birjalar, fermer xo‘jaligi, elektr asboblari ishlab chiqaruvchi zavod, tijorat banki, avtotransport korxonasi, reklama agentligi, sartaroshxona.

17. Bozor iqtisodiyoti subyektlarining iqtisodiy holatining xususiyati nimada? Javobingizda bozor iqtisodiyoti daromadlari va xarajatlari oqimining doiraviy aylanishi modeli sxemasidan foydalaning.

18. Quyidagi jumlalardan tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yib, to‘g‘ri javob topishingizni tekshirib ko‘ring.

- a) Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy yo‘li bor;
- b) O‘zbekistonda agrar islohotlar, birinchidan, aholiga, ikkinchidan, davlat va jamoa xo‘jaligiga iborat bo‘ladi.

Testlar:

1. Tovar xo‘jaligining vujudga kelishi va rivojlanish shart sharoitlari nimadan iborat?

- a) ijtimoiy mehnat taqsimoti;
- b) mulk egalarining alohidalashuvi;
- d) mahsulotni ayirboshlash uchun ishlab chiqarilishi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

2. Tovar qiymati qanday mehnat sarfini aniqlaydi?

- a) individual;
- b) zaruriy;
- d) qo‘shimcha;
- e) ijtimoiy zaruriy.

3. Mehnat intensivligi nima?

- a) mehnatning aniq turining mahsuldorligi;
- b) mehnatning sarflanish tezligi va jadalligi;
- d) qo‘llaniladigan mehnat hajmining ortishi;
- e) qo‘llaniladigan mehnat hajmining qisqarishi.

4. Pulning qaysi vazifasi narxni shakllanishi bilan bog‘liq?

- a) muomala vositasi;
- b) to‘lov vositasi;
- d) qiymat o‘lchovi;
- e) jamg‘arma vositasi.

5. Natural xo‘jalik – bu:

- a) o‘zining ehtiyoji uchun mahsulot ishlab chiqarish;
- b) mahsulotlarni sotish uchun ishlab chiqarish;
- d) o‘ziga va sotish uchun mahsulot ishlab chiqarish;
- e) barchasi noto‘g‘ri.

6. Tovar-bu:

- a) umumiy ish kuchi sarfi natijasi;
- b) ehtiyojlarni qondirish vositasi;
- d) almashtirishga mo‘ljallangan ne’mat;
- e) aniq mehnat yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot.

7. Pul bankka qo‘ylganda qanday vazifani bajaradi?

- a) qiymat o‘lchovi;
- b) muomala vositasi;
- d) to‘lov vositasi;
- e) jamg‘arish vositasi.

8. Agarda pul bir yilda 5 marotaba aylansa, bunda ayirbosh-lashni amalga oshirish uchun qancha pul kerak bo‘ladi?

- a) YaMM hajmidan 5 barobar ko‘p bo‘lishi kerak;
- b) YaMMning 20 foizini tashkil etadi;
- c) YaMMning 5dan 1 qismiga teng bo‘ladi;
- d) 5 dan 20 foiz qismiga teng bo‘ladi.

9. X tovar A=U tovar V – tenglama qiymatning qanday shaklini ifodalaydi?

- a) oddiy, tasodifiy;
- b) to‘la yoki kengaytirilgan;
- c) pul;
- d) umumi.

10. Tovar ishlab chiqarish qanday xo‘jalik?

- a) tovar xo‘jaligi, faqat kapitalizmga xos;
- b) feodalizm va quldorlikda amal qiladi;
- c) quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizmda o‘ziga xos shaklda amal qiladi;
- d) bu o‘ziga xos bo‘lgan ishlab chiqarish usuli.

11. Almashuv qiymati – bu:

- a) tovarni ma’lum bir miqdorda boshqa tovarga almashish mumkin bo‘lgan xususiyati;
- b) almashish uchun ishlab chiqarilgan mehnat mahsuli;
- c) buyumning nafliligi;
- d) resurslarni sarflash natijasi.

12. Iqtisodiyot nazariyasida “chegaraviy” tushuncha, kategoriya nimani anglatadi?

- a) o‘lchanilayotgan miqdordagi sezilarli bo‘lмаган o‘zgarish;
- b) o‘lchanilayotgan miqdordagi sezilarli o‘zgarish;
- c) o‘lchanilayotgan iqtisodiy miqdordagi qo‘sishimcha o‘zgarish;
- d) iqtisodiy miqdor chegarasining o‘zgarishi.

13. Chegaraviy naflilik qanday bo‘lganda umumi naflilik oshadi?

- a) chegaraviy naflilik kamayganda;
- b) chegaraviy naflilik oshganda;
- c) kamayganda yoki oshganda umumi naflilik miqdori ijobiy bo‘ladi;
- d) kamayganda yoki oshganda uning miqdori salbiy bo‘ladi.

14. Quyidagilardan tovar xo‘jaligining xususiyatlarini aniqlang.

- a) mahsulotni ishlab chiqarish va iste’mol qilish tor doirada amalga oshiriladi;

b) ishlab chiqarilgan mahsulot multk egasiga tegishli bo‘lib, sotishga mo‘ljallanadi;

d) ishlab chiqarish jarayoni unumdarligi past bo‘lgan mehnat quollariga asoslangan va qo‘sishimcha mahsulot yaratishga imkoniyat bo‘lmaydi;

e) mehnat jarayoni ma’lum jamoada odat, rasm-rusumlarga asoslangan.

15. Iqtisodiy tizimning qaysi modelida xususiy multkning ustunligi va boshqarishning bozor mexanizmi ta’milanadi?

a) buyruqbozlik iqtisodiyotda;

b) sof kapitalizmda;

d) an’anaviy iqtisodiyotda

e) aralash iqtisodiyotda;

16. Quyidagi ta’riflardan qaysi biri bozor iqtisodiyotining mohiyatini to‘larop xarakterlaydi?

a) mehnat taqsimoti mavjud bo‘lgan va tovar ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyot;

b) iqtisodiy subyektlar faoliyati erkin amalga oshirilayotgan iqtisodiyot;

d) tovar ishlab chiqarishga va uning bozor orqali pul vositasida ayirboshlanishiga asoslangan, iqtisodiy subyektlarning erkin xattiharakati bozor mexanizmi orqali muvofiqlashtiriladigan iqtisodiyot;

e) urf-odat, udumlar va an’analariga asoslangan iqtisodiyot.

17. Bozor iqtisodiyotining qaysi subyekti jamiyat a’zolarini ijtimoiy iste’mol xarakteridagi ne’matlar bilan ta’minlaydi?

a) uy xo‘jaliklari;

b) tadbirkorlik sektori;

d) davlat;

e) chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar.

18. Bozor iqtisodiyotining qaysi subyekti iqtisodiy resurslarini yetkazib beruvchi va pirovard mahsulotlar iste’molchisi hisoblanadi?

a) uy xo‘jaligi;

b) korxonalar;

d) davlat tashkilotlari;

e) davlat muassasalari.

19. Quyidagilardan qaysi biri bozor iqtisodiyotining tartibga soluvchi mexanizmining tarkibiy qismini xarakterlaydi?

a) narx, talab va taklif;

- b) raqobat, talab va taklif;
- d) narx, raqobat, talab va taklif;
- e) narx, soliq, raqobat, davlat ijtimoiy dasturlari.

20. Bozor iqtisodiyotining muhim belgilari nimalardan iborat?

- a) xususiy mulkchilik;
- b) tadbirkorlik va tanlash erkinligi;
- d) shaxsiy manfaatni rag'batlantirish;
- e) yuqoridagilarni barchasi.

21. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qaysi yo'lida oddiy tovar xo'-jaligidan raqobatga asoslangan kapitalizm va undan madaniylashgan bozor iqtisodiyoti tomon boriladi?

- a) rivojlangan mamlakatlar (G'arbcha modul) yo'li;
- b) sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li;
- d) rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;
- e) an'anviy iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar yo'li.

22. Bozor –bu:

- a) rejasiz olib boriladigan xo'jalik tizimi;
- b) tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida baholar tizimi orqali amalga oshiriladigan yechimlarni muvofiqlashtiruvchi murakkab mexanizm;
- d) korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini amalga oshiruvchi;
- e) talab va taklifning muvofiqligi.

23. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni o'zida aks ettiruvchi bozor –bu:

- a) tovarlar bozori;
- b) xizmatlar bozori;
- d) ishlab chiqarish omillari bozori;
- e) xufiya bozori.

24. Bozorning afzalliklari:

- a) bozor agentlarining erkinligi;
- b) resurslarni samarali taqsimlash;
- d) daromadlarning teng taqsimlanishi;
- e) iqtisodiyotning muvozanatda bo'lishi.

25. Bir yoki bir necha kishidan iborat bo'lgan, mustaqil qarorlar qabul qiladigan qandaydir resurs egasi bo'lgan ehtiyojlarni maksimal qondirishga intiladigan iqtisodiy subyekt – bu:

- a) uy xo'jaligi;
- b) biznes;

- d) davlat;
- e) iqtisodiy odam.

26. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga asos qilib olingan tamoyillardan qaysi biri ijtimoiy muammolar keskinlashuvining oldini olishga qaratilgan?

- a) iqtisodiyotni mafkuradan holi qilish;
- b) davlatning bosh islohotchi bo‘lishi;
- c) qonun ustuvorligi;
- d) ijtimoiy himoyalash chora tadbirlarini oldindan amalga oshirish.

27. Bozor iqtisodiyotining vujudga kelish shartlaridan birini aniqlang?

- a) baho;
- b) ijtimoiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi;
- c) raqobat;
- d) talab va taklif.

28. Bozorning afzalligi nimadan iborat?

- a) aholini ijtimoiy himoyalanganligi;
- b) qayta tiklash mumkin bo‘lmagan resurslarni asrash;
- c) iqtisodiyotni muvozanatli holda rivojlanishini ta’minlash;
- d) resurslarni samarali taqsimlash.

29. Bozor infratuzilmasi elementlarini aniqlang:

- a) tijorat banklari tizimi;
- b) soliq va boj olish tizimi;
- c) auditor kompaniyalari;
- d) ishlab chiqarish korxonalar.

30. Mutlaq likvid bo‘lgan boylik:

- a) oltin;
- b) pullar;
- c) qimmatbaho qog‘ozlar;
- d) yer maydoni.

31. Bozor iqtisodiyotida “nima ishlab chiqarish kerak?” degan muammo quyidagilarga bog‘liq:

- a) iqtisodiyotning ixtisoslashuv darajasini belgilashga;
- b) ishlab chiqarish vositalari va iste’mol buyumlari ishlab chiqarishning birontasini tanlash bilan;
- c) takomillashgan raqobat bozorining rivojlanishi bilan;
- d) rivojlantirish davlatning ixtiyorida bo‘lgan tizimni tashkil etish bilan.

32. O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishni nima taqozo qiladi?

- a) huquqiy negizni shakllantirish;
- b) bozor infratuzilmasini yaratish;
- d) yangi sharoitda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

33. Respublikada bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichida isloh qilishning muhim yo‘nalishini aniqlang?

- a) o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy bazasini mustahkamlash;
- b) iqtisodiyotning barcha sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- d) ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

34. Respublikada bozor iqtisodiyotiga o‘tishning ikkinchi bosqichida amalga oshirish ko‘zda tutilgan qaysi vazifa raqobatchilik muhitida vujudga keltirishga qaratiladi?

- a) ishlab chiqarishning pasayishiga barham beradigan makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash;
- b) davlat mulkini xususiylashtirish asosida nodavlat sektorining ulushini oshirish;
- d) iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirish;
- e) milliy valyuta qadrini oshirish.

35. Iqtisodiy islohotlar nima?

- a) ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar;
- b) iqtisodiyotda bozor munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan chora - tadbirlar;
- d) siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.
- e) ma’naviy va maishiy o‘zgarishlarga qaratilgan tadbirlar.

36. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan qaysi biri bozor iqtisodiyotiga o‘tishning shart sharoitini vujudga keltiradi?

- a) mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- b) boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- d) moliya - kredit va narx-navo islohoti;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

37. Respublikada agrar islohotlarning negizi nimani tashkil qiladi?

- a) yerga bo‘lgan mulkchilik munosabatlarni isloh qilish;
- b) davlat korxonalarini jamoa xo‘jaliklariga va mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish;
- c) shaxsiy tarmoqlarni kengaytirish;
- d) ishlab chiqarish tuzilishini takomillashtirish.

4-mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati

Bozor tovar ayirboshlashning mohiyatini pul vositasida ifoda etuvchi va bozorni boshqarib turuvchi obektiv iqtisodiy qonunlar bozor qonunlari deb yuritiladi.

Bular jumlasiga:

- talab va taklif qonuni.
- pul muomalasi qonuni kiradi.

Bu qonunlar bozor, bozor munosabatlari sohasida amal qiladigan qonunlardir. Ular obektiv tarzda amal qiladi. Bozorda talab oshsa, narx oshadi, agar pasaysa, narx ham pasayadi. Jamiyat bozor qonunlariga rioya qilib muomalaga faqat kerakli miqdorda pul chiqaradi. Bozor qonunlarini anglagan holda Davlat inflyatsiyaga qarshi o‘zining tadbirlarini amalga oshiradi. Talab va taklif narxni shakllantiradi, shu bilan birga narx talab va taklif o‘rtasidagi nisbatni aniqlab beradi. Talab va taklif qonuni asosida muvozanatli baho shakllanadi. XIX asrdayoq bahoغا talab yoki taklif ko‘proq ta’sir o‘tkazadi degan tortishuvlar bo‘lgan.

A.Smit va D.Rikardolar narxga taklif ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblaganlar. Avstriya maktabi vakillari Ye.Ben-Baverk narxga talab ta’sir etadi deb hisoblagan. Bunday ziddiyatga A.Marshal aniqlik kiritdi, u omillarning birortasini muhim deb bo‘lmaydi. Qog‘ozni qirqqanda qaychining tepa tarafi ko‘proq qirqadimi yoki pastki tarafimi degan savolga javob bo‘limganidek, yuqoridaq savolga ham to‘g‘ri javob berish mumkin emas degan. Marshal o‘rganilayotgan vaqt qanchalik qisqa bo‘lsa, talabning qiymatiga ta’siri ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Uzoq davrdagi holat o‘rganilganda qiymatga xarajatlarning ta’siri yuqori bo‘ladi deb ta’kidlaydi. A.Marshal o‘zining narx haqidagi konsepsiyasini A.Smit, D.Rikardo, J.B.Seya, Ye.Ben-Baverkning nazariyasiga asoslangan holda ishlab chiqdi. U chegaraviy naflilik ishlab chiqarishni, talab va taklif nazariyalarini birlashtirib narx nazariyasiga asos soldi hamda normal talab va normal taklif bo‘lganda muvozanatli baho vujudga keladi degan xulosaga keldi.

Mavzuning maqsadi:

1. Talab va taklif tushunchalarini va ularning baho bilan bog‘liqligini aniqlash.
2. Talab va taklif grafigi ifodasini ko‘rib chiqish.
3. Talab va taklifga ta’sir etuvchi baholar bilan bog‘liq bo‘lmagan omillarni aniqlash.
4. Bozor muvozanati qanday va nima uchun o‘zgarishini, baholarni majburiy nazorati, bozor kon’yukturasi qanday ta’sir etishini tushuntirish.
5. Talab va taklifdagi baholarning egiluvchanligini tushuntirish va talab va taklifning egiluvchanlik turlarini ochib berish.

Atama va tushunchalar:

Talab, talab qonuni, talab egri chizig‘i. Baholar bilan bog‘liq bo‘lmagan omillar. Talab va talab miqdorining o‘zgarishi. Taklif, taklif qonuni, taklif egri chizig‘i. Taklif va taklif miqdorining o‘zgarishi. Taklif egri chizig‘ining o‘zgarishi. Bozor muvozanati. Muvozanatli baho, muvozanatli miqdor. Muvozanatli baholarning vazifalari. Baholarning ma’muriy nazorati va bozor mexanizmi: yuqori baho va kamomad, minimal baho, bozordagi tovarlarning ortiqchaligi. Talab egiluvchanligi. Uning turlari. Talab egiluvchanligi koeffitsiyenti. Talab egiluvchanligiga ta’sir etuvchi omillar. Taklif egiluvchanligi va uning turlari. Sotuvchilarning tushumlari. (xaridorlarning xarajatlari) substitunt va komplement tovarlar. O‘rindoshlik va daromad samarasi.

Savollar:

1. Talabning qanday turlari bor?
2. Talab qonuni nimani ifodalaydi?
3. Taklif qonuni nimani taqozo qiladi?
4. Taklif o‘zgarishiga nimalar ta’sir ko‘rsatadi?
5. Tovarning nafliligi nima va u nima uchun pasayishga moyil bo‘ladi?
6. Qanday tovarlar yuqori va past toifali tovarlar hisoblanadi?
7. Bozor muvozanati qanday tashkil topadi?
8. Turkiston saroyida taniqli xonandaning konsertiga chipta narxi 20 foiz qimmatlashdi. Shu narxda konsert taklifi elastik bo‘ladimi?
9. Do‘kondagi gugurtning narxi 2 marotaba oshdi. O‘ylab ko‘ringchi gugurtga talab elastik bo‘ladimi?

Topshiriqlar:

1. Quyidagi fikrlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlang:

- agarda qandaydir tovarning bahosi o‘zgarmasa, unda talab va taklif egri chizig‘i kesishgan bo‘ladi;
 - iste’molchilarning daromadlari oshganda barcha tovarlarga bo‘lgan talab hajmi ko‘payadi;
 - mahsulotning qanchalik o‘rindoshlari kam bo‘lsa, shunchalik unga bo‘lgan talab egiluvchan bo‘ladi;
 - xohishlarning bir-biriga mos kelishi, ikki kishi aynan bitta tovarni yoki xizmat ko‘rsatishni sotib olishini ifodalandi;
 - yaxshi ishlanmagan tovar, yuqori kategoriyali tovarlar jumlasiga kiradi;
 - narxlarning oshishi bilan tushum kamaysa, bu tovarga bo‘lgan talab egiluvchan bo‘ladi;
 - iste’molchilarning daromadlari ko‘payishi bilan barcha sharoitlar o‘zgarmagan holda tovarga bo‘lgan talab oshadi, bunday holda bu tovarlar normal tovarlar kategoriyasiga kiradi;
 - ist’yemolchilar daromadlari oshganda, nonga bo‘lgan talab ham oshadi;
 - mutlaq egiluvchan bo‘lmagan talab egri chizig‘i vertikal holda bo‘ladi.
 - narx 1 foizga tushganda, talab hajmi 5 foizga oshadi, bunda talab egiluvchan bo‘lmaydi;
 - bozor bahosi muvozanatli bahodan past bo‘lganda bozor bahosi pasayib boradi, chunki bunday holda talab tushadi va taklif ko‘tariladi;
 - bir vaqtda tovarlar taklifi va iste’molchilarning daromadi oshsa, tovar bahosi o‘zgarmaydi.
2. Quyidagi jadvalda kartoshka bozoridagi har xil holatlar keltirilgan

1-jadval

Baho (so‘mda)	Talab hajmi (kg)	Taklif hajmi(kg)
500	100	20
600	90	50
700	80	80
800	60	115
1000	50	150

- jadval asosida talab va taklif egri chizig‘ini grafikda ifodalang;
- agarda kartoshka bozorida uning bozor bahosi 500 so‘m bo‘lsa, bozorda kartoshka kammi yoki ko‘pmi? Qanday miqdorda?
- agarda kartoshkaning muvozanatli bahosi 800 so‘m bo‘lsa, bozorda kartoshka kammi yoki ko‘pmi? Qanday miqdorda?
- bozor bahosi necha so‘m?
- iste’molchi xarajatlarining o‘sishi kartoshka bahosining oshishiga olib keldi. Yangi muvozanatli bahoni va muvozanatdagi ishlab chiqarish hajmini aniqlang.

3. Raqobatli bozorda muvozanatli bahoda tovarlar miqdorida qanday o‘zgarish bo‘ladi, agarda:

- talab kamayib, taklif o‘zgarmaydi;
- talab oshadi, taklif o‘zgarmaydi;
- talab oshadi, taklif qisqaradi;
- taklif qisqaradi, talab o‘zgarmaydi;
- talab va taklif oshadi;
- talab va taklif kamayadi.

4. Javobingizni grafikda ifodalang.

- avtoruchka bahosi tushganda;
 - qo‘sishimcha tovarlar bahosi tushganda;
 - avtoruchkani ishlab chiqarishda foydalilaniladigan xomashyo bahosi tushganda;
 - avtoruchka past kategoriyalı tovar hisoblanganda, iste’molchilar ning daromadi oshganda;
 - qo‘shilgan qiymatdan olinadigan soliq kamayganda;
 - avtoruchka normal tovar hisoblanganda, iste’molchilar daromadini pasayishi;
 - avtoruchkalarni reklamma qilish;
 - siyoh bahosini oshishi;
 - yangi aksiz soliqlarini kiritilishi;
 - yoqilg‘i energetika resurslari bahosining o‘zgarishi.
- Bozor holatiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi:
- talab egri chizig‘i o‘ngga suriladi;
 - taklif egri chizig‘i o‘ngga suriladi;
 - talab egri chizig‘i chapga suriladi;
 - taklif egri chizig‘i chapga suriladi;

5. Quyidagi tovarlar talab bahosining egiluvchanligini aniqlang: non, tuz, choy (O‘zbekiston va Braziliyada), vino (Gruziya va O‘zbekistonda), sovun, gullar (8 mart va boshqa kunlar) brilliantlar, avtomobillar.

6. 30 graduslik issiqda 500 so‘mdan bir kunda 2000 butilka limonad olingan. Shu bilan birga 5 gradusga kun isiganda qo‘sishimcha talab 150 butilkaga oshgan. Uning bahosi 100 so‘mga tushganda talab 200 taga ko‘paygan. Limonadning bahosi 500 so‘m bo‘lganda 20, 30, 40 gradusdagi talab grafigini chizing. Boshqa diagrammada limonad bahosining 300, 500, 700 so‘m bo‘lganda 20, 30, 45 gradusli talab egri chizig‘ining holatini ifodalang.

7. Jadvalda yil davomida darslikka bo‘lgan talab ko‘rsatilgan (2-jadval)

2-jadval

Talab hajmi (dona)	1 dona darslikning bahosi (so‘m)	Tushum (so‘m)	Talab bahosining egiluvchanligi
0	2000		
10	1800		
20	1600		
30	1400		
40	1200		
50	1000		

– jadval asosida: talabning egiluvchanlik koeffitsiyenti va tushum miqdorini hisoblang;

– nima uchun talabning mutlaq egiluvchanlik koeffitsiyenti hisobga olinadi?

– talabning qanday hollarda egiluvchan, egiluvchan emas ayrim hollarda egiluvchan bo‘lishini aniqlang;

– talab egiluvchan bo‘lganda darslik bahosining o‘zgarishi tushum miqdoriga qanday ta’sir ko‘rsatadi; Nima uchun?

– talab etilayotgan tovarlar bahosining egiluvchanlik koeffitsiyenti qanday bo‘lganda, tushum maksimal miqdorda bo‘ladi? Nima uchun?

8. Jadvalda yil davomida darslikka bo‘lgan taklifni ko‘rsating (3-jadval);

9. Quyidagi jadvalda o‘quv yilidagi darslikka bo‘lgan talab ifodalangan (4-jadval).

a) Talab bahosining egiluvchanligini hisoblang va jadvalni to‘lating.
3-jadval

Taklif hajmi (dona)	1 dona darslikning bahosi (so‘m.)	Taklif bahosining egiluvchanligini
10	1200	
12	1400	
14	1600	
15	1800	
18	2000	
20	2200	

b) Daromadni hisoblang
d) Grafikda ifodalang

4-jadval

Talab bahosining egiluvchanligi	Talabning hajmi (dona)	1 ta darslikning bahosi (so‘m.)	Daromad
	0	20	
	10	18	
	20	16	
	30	14	
	40	12	
	50	10	
	60	8	
	70	6	
	80	4	
	90	2	
	100	0	

11. Kostyum 420000 so‘m bo‘lganda unga jami talab 500 dona edi. Kostyum narxi 450 000 so‘mga oshdi, jami talab 400 donaga tushdi. Jami talabning elastiklik koeffitsiyentini hisoblab ko‘ring.

10. Magazinga 3 xil tovar qo‘yilgan. Birinchisi: Damas avtomashinasi, ikkinchisi atoqli rassom O‘rol Tansiqboyev asari, uchinchisi videokasseta.

Sizningcha, qaysi tovarning taklifi mutlaqo noelastik va nima uchun?

Testlar:

1. Agar tovarlar bahosining 1 foizga pasayishi talabning 2 foizga oshishiga olib kelsa, unda talab:

- a) elastik bo‘lmaydi;
- b) elastik bo‘ladi;
- d) $E=1$ bo‘ladi;
- e) $E<1$ bo‘ladi;
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

2. Agar tovar bahosi 1,5 dollardan 2 dollarga oshsa, talab hajmi esa 1000 birlikdan 900 birlikka kamaysa, u holda elastiklik koefitsiyenti:

- a) 3,0 teng bo‘ladi;
- b) 2,71 teng bo‘ladi;
- d) 0,37 teng bo‘ladi;
- e) 0,30 teng bo‘ladi;
- f) 1,50 teng bo‘ladi.

3. Taklif tushunchasi nimani xarakterlaydi?

- a) ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish;
- b) iqtisodiy resurslarni to‘la band qilinganligini;
- d) narxning har bir darajasida ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan va bozorga sotishga chiqariladigan tovarlar miqdorini;
- e) biror mahsulotni ishlab chiqaruvchilar sonini.

4. O‘rnini bosish samarasi nimada namoyon bo‘ladi?

- a) iste’molchi sotib olish layoqatining o‘sishida;
- b) bir-birini to‘ldiruvchi tovarlar narxining tushishida;
- d) tovarlar bahosi tushishi oqibatida iste’molchi nisbatan qimmat tovarlarni ancha arzon boshqa tovarlar bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishida;
- e) iste’molchi real daromadining o‘sishida.

5. Taklif qonuni nimani ifodalaydi?

- a) narxning o‘sishi bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdorini ortishida;
- b) narx pasayishi bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori-nining ortishida;
- d) narx bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o‘rtasidagi teskari bog‘liqda;
- e) narx bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik.

6. Taklif egri chizig‘i quyidagi holatni ifodalaydi:

- a) tovar bahosining oshishi uni ishlab chiqarishni kamaytiradi;

b) ishlab chiqaruvchilarning daromadi oshishi bilan mahsulot miqdori oshadi;

d) ishlab chiqaruvchilarning daromadi oshishi bilan mahsulot miqdori kamayadi;

e) narxlar oshishi bilan ishlab chiqarish miqdori oshadi.

7. Tovarlar bahosining oshishi:

a) biznesdan olinadigan soliqlarga;

b) iste'molchilar daromadining oshishiga;

d) substitunt tovarlarning bahosining oshishiga;

e) iqtisodiy resurslar bahosining pasayishiga bog'liq.

8. Tovarlarga bo'lgan talab egiluvchan bo'limganda bahoning pasayishi natijasida:

a) tushum kamayadi;

b) tushum ko'payadi;

d) tushum o'zgarmaydi;

e) savolga javob berish mumkin emas.

9. Talab bahosi egiluvchan bo'lmaydi, agarda:

a) birinchi darajali tovarlar bahosi, kamtalab buyumlar bahosiga nisbatan yuqori bo'lsa;

b) tovar ishlab chiqarishda muqobil xarajatlar ko'p bo'lsa;

d) shu tovar iste'molchiga zarur bo'lmasa;

e) yuqoridagilarning birontasi ta'sir etmaydi.

10. Tovar taklifi kamayganda quyidagilarning miqdori ko'payadi:

a) komplement tovarlarga talab;

b) aynan shu tovarga bo'lgan talab;

d) ishlab chiqaruvchilarning foydasi;

e) substitunt tovarlarga bo'lgan talab.

11. Bozorda iqtisodiy muvozanat bo'ladi:

a) talab hajmi taklif hajmiga teng bo'lganda;

b) tovarlarning umumiyligi miqdori oshganda;

d) ishlab chiqaruvchilarning foydasi oshganda;

e) ishlab chiqaruvchilarning foydasi kamayganda.

12. Bozor kon'yukturasi nuqtasining talab egri chizig'ida surilishi:

a) xaridorlar didini o'zgarishi;

b) substitunt tovarlar bahosining o'zgarishi;

d) mavjud tovar bahosining o'zgarishi;

e) xaridorlarning pulning qadrsizlanishini kutishiga bog'liq.

13. Ishlab chiqaruvchi A tovarning bahosini 5% ga kamaytirganda, xarid etilgan tovarlarning hajmi 7% oshadi. Bunda A tovarga bo‘lgan talab:

- a) egiluvchan;
- b) egiluvchan emas;
- d) mutlaq egiluvchan;
- e) goh-gohida egiluvchan.

14. Agarda davlat tovarlar narxsini belgilab bersa, bu bozorda:

- a) resurslar narxsi tushadi;
- b) ortiqcha tovarlar paydo bo‘ladi;
- d) xaridorlar bozori vujudga keladi;
- e) kamomad vujudga keladi.

15. Bozordagi narxi muvozanatli narxdan yuqori bo‘lganda:

- a) ortiqcha tovarlar yuzaga keladi;
- b) kamomad bo‘ladi;
- d) taklif o‘zgarmaydi;
- e) mavjud tovarga talab kuchayadi.

16. Qanday omilning o‘zgarishi talab egri chizig‘ini siljitmaydi:

- a) iste’molchilarning didlari va xohishlari;
- b) pulning qadrsizlanishini kutish;
- d) mavjud tovar bahosi;
- e) komplement tovarlar bahosi.

17. Texnologiyaning takomillashuvi:

- a) talab egri chizig‘ini yuqori va pastga;
- b) taklif egri chizig‘ini past va o‘ngga;
- d) talab egri chizig‘ini past va o‘ngga;
- e) taklif egri chizig‘ini yuqori va chapga suradi.

18. Egiluvchan bo‘lmagan talabda tovar bahosi 700 so‘mdan 800 so‘mga oshsa, tushum:

- a) kamayadi;
- b) ko‘payadi;
- d) o‘zgarmaydi;
- e) barchasi noto‘g‘ri.

II bo‘lim. Mikroiqtisodiyot

5-mavzu. Raqobat va monopoliya. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari

Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki u bozor iqtisodiyotining rivojlanishing asosiy omilidir. Raqobat umumijtimoiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy jarayonlar qatnashchilari o‘rtasidagi ko‘proq foydaga erishish uchun bo‘ladigan kurashni anglatadi. Shuni ta’kidlagan holda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov raqobat kurashining mohiyati haqida shunday deganlar: «Iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Raqobat bo‘lmasa bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi. Raqobat bozorining asosiy sharti, aytish mumkinki uning qonunidir».

Raqobat ishtrokkilarining sotsial iqtisodiy maqomi bir xil emas, shu sababli ularning bevosita maqsadi ham turlicha. Tadbirkorning maqsadi ko‘proq foyda olish, ishchiniki yaxshiroq ish haqi olish, bankirniki ko‘proq foiz olish, yer egasi yerdan ko‘proq daromad olish kabilardan iborat. Raqobat xalq xo‘jaligining hamma sohalarini qamrab olgan.

Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtrokkilarining o‘z manfaatlarini to‘la-roq yuzaga chiqarish, ya’ni yaxshi daromad topish, o‘z mavqeini mustahkamlash, o‘z qobiliyatlarini namoyon etish va obro‘ e’tiborga ega bo‘lish uchun boshqalar bilan kurashdir. Raqobat kurashi maydoni bozor hisoblanadi. Bozorda firmalar resurslarni arzon olish va tovarlarni qim-matroq sotishga intiladilar va foydani ko‘proq olish uchun kurashadilar, ishchi va xizmatchilar yaxshi ish haqi olish uchun kurashadilar. Raqobatda aniq maqsad qanday bo‘lmasin, pirovard natija daromad ko‘rish yoki imij orttirishdan iborat.

Mavzuning maqsadi:

1. Raqobatning mohiyatini. Bozor tuzilishini asosiy ko‘rinishlari va ularning tasnifini aniqlash.
2. Raqobat sharoitida baholar va ishlab chiqarish hajmi qanday aniq-lanishini tushunib yetish.

3. Sof monopoliya sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi va uning bahosini qanday aniqlashni, nima uchun monopoliya ba'zi hollarda baho diskriminatsiyasidan foydalanishni va uning oqibatlarini ko'rsatish.

4. Monopolistik raqobat sharoitida ishlab chiqarish hajmi va mahsulotlar bahosi qanday aniqlanishini ko'rsatish.

5. Oligopoliya sharoitida firma faoliyatining asosiy modellarini mohiyatini olib berish.

Atama va tushunchalar:

Raqobat. Tarmoqlararo raqobat va tarmoq ichidagi raqobat. Baholi va bahosiz raqobat. G'irrom raqobat. Mukammal va mukammal bo'limgan raqobat. Bozorning raqobatli modellari: sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliya. Tarmoqqa kirish uchun to'siqlar: litsenziyalar, patentlar, takror ishlab chiqarilmaydigan va kamyob resurslarga nisbatan mulkchilik, masshtab samarasi. Tabiiy monopoliya. Kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi. Mukammal raqobat sharoitida firmaning taklifi. Qisqa muddatli davrda foydani maksimumlashtiruvchi yoki xarajatni maksimallashtiruvchi ishlab chiqarishning hajmi va bahosi. Firmani yopish nuqtasi. Uzoq muddatli davrda firma faoliyati. Hajmni ijobiy va salbiy samarasi.

Sof monopoliya sharoitida firma taklifi. Firma foydasini maksimalashtiruvchi yoki xarajatini minimallashtiruvchi ishlab chiqarish hajmi va narxning shakllanishi. Baho diskriminatsiyasi (kamsitilishi) monopolizatsiya oqibatlari. Monopolistik raqobat sharoitida firmaning taklifi. Mahsulotni tabaqlashuvi (differensiyatsiyalashuvi) foydani maksimallashtiruvchi va xarajatlarni minimallashtiruvchi ishlab chiqarish hajmi va baho. Reklamaning ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Oligopoliya modellarining xilma-xilligi: talabning siniq egri chizig'i, lider ketidan quvish, sirli kelishuv, xarajatlar "plyus".

Savollar:

1. Raqobatning mohiyati nima?
2. Raqobaitning qanday turlari mavjud?
3. Raqobatning qanday bosqichlari mavjud?
4. Bozor tizimi va raqobat o'rtasida qanday bog'lanish bor?

5. Mukammal va nomukammal raqobat nima?
6. Sof raqobat va oligopolistik raqobatning umumiy va farqli tomonlarini qanday aniqlanadi?
7. Monopolistik va oligopolistik raqobatning o‘xhashlik va farqli tomonlarini qanday aniqlanadi?
8. Mulk shakli raqobatni belgilaydimi yoki raqobat mulk shaklinimi?
9. Davlatning raqobatga munosabatini qanday aniqlanadi?
10. Antimonopol faoliyat degenda nimani tushunasiz?
11. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat nima?
12. Nima sababdan raqobat iqtisodiyotni rivojlantiradigan kuch hisoblanadi?

Topshiriqlar:

1. Quyidagi jumlalarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yib, to‘g‘ri javob topganingizni tekshirib ko‘ring.
 - a) Raqobat bu o‘zaro kurashdir.
 - b) bu raqobat maydonidir.
 - d) Bozor iqtisodiyotiga raqobat xosdir.
 - e) Raqobatda yutib chiqish sharti ko‘p..... qilishdir.
 - f) Raqobatda yutqazganlarning bo‘lish xavfi bor.
2. Quyidagi keltirilgan savollarga javoblardan to‘g‘risini tanlang:
 - a) Halol raqobatda qaysi usullar qo‘llaniladi? – siyosiy xokimiyatdan foydalanish; raqib korxona siridan voqib bo‘lish; narxni o‘zgartirish; raqibning tovar belgisidan foydalanish; iqtisodiy tazyiq o‘tkazish.
 - b) O‘zbekiston qonunlariga ko‘ra firmalarning qanday faoliyat bilan shug‘ullanishlari ta‘qilanganadi? – tovarlarning sun’iy taqchilligini yaratish; boshqalarning bozorga kirib kelishiga to‘sinqilik qilish; raqiblarga tazyiq o‘tkazish; noto‘g‘ri javob yo‘q
3. Quyidagi keltirilgan ta’riflar qanday bozor tuzilishini ifodalaydi:
 - kam sonli firmalar bir turdagи mahsulot ishlab chiqaradilar va baholar ustidan qisman nazorat qiladilar;
 - ko‘p sonli kompaniyalar turli xildagi mahsulotlarni baholar ustidagi sust nazorat sharoitida ishlab chiqaradilar;
 - ma’lum turdagи mahsulot bitta kompaniya tomonidan baholar ustidagi qat’iy nazorat sharoitida ishlab chiqariladi;
 - O‘zbekistonda 10 ta kuchli kompaniya neftni qayta ishlovchi turli mahsulotlarning 95% ni ishlab chiqaradi;

- AQSh aviaqurilishida 81% mahsulot 8 ta yirik firma tomonidan ishlab chiqariladi;
- kam sonli firmalar bir turdag'i mahsulotni ishlab chiqaradilar va baholar ustidan qisman nazorat qiladilar;
- ko'p sonli kompaniyalar turli xildagi mahsulotlar baholari ustidan sust nazorat sharoitida ishlab chiqaradilar;
- ma'lum turdag'i mahsulot bitta kompaniya tomonidan baholar ustidan yuqori darajadagi nazorat sharoitida ishlab chiqaradilar;
- yagona firma shtuvmon uskunalarini ishlab chiqaradilar;
- mobil telefonlar bozorida bir nechta yirik firma faoliyat qiladi;
- O'zbekistonda temir yo'l orqali harakat faqat "O'zbekiston temir yo'llari" tomonidan olib boriladi.

4. Quyidagi ta'riflar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang:

- raqobatli firma tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotga talab baho bo'yicha mutlaqo elastikdir;
- monopolist faqat uzoq muddatli davrdagina iqtisodiy foydaga ega bo'ladi;
- oligopolistlar baholi raqobat usulidan foydalanishni afzal ko'radilar;
- har qanday baholi diskriminatsiya noqonuniydir;
- uzoq muddatli davrda raqobatli firmalar iqtisodiy foyda olmaydi;
- bozorga bemalol kirish va undan chiqish mukammal raqobatning zarur sharoitidir;
- monopolistik raqobat uchun mahsulotni standartlash xos emasdir;
- monopolistik raqobat firmalarning kam sonliliqi bilan xarakterlanadi;
- oligopoliya va monopolistik raqobatli firma ishlab chiqarish hajmini doimo oshirib boradi, agar chegaraviy daromad chegaraviy xarajatdan yuqori bo'lsa;
- monopol egasi o'z mahsulotiga turli bozorlarda turli xil narx o'rnatish orqali umumiyligi foydani oshirishi mumkin;
- raqobatli firma uchun mahsulot bahosi chegaraviy daromadga tengdir;
- talab egri chizig'i monopoliya uchun doimiy gorizontaldir;
- mukammal raqobat bozorida firma monopolistik raqobatga nisbatan xilma-xil tovarlarni taklif etadi.

5. Siz juda katta mablag‘ egasi sifatida avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona tashkil etmoqchisiz. Bu yo‘lda qanday to‘siqlarga duch kelasiz?

- (masshtab) ko‘lam samarasi;
- moliyaviy to‘siqlar;
- ijrochi yoki qonun ishlab chiqaruvchi hokimiyat bilan aloqadorlik;
- pora berish uchun zarurat;
- reklama kompaniyasi;
- raqobatchilar tomonidan “G‘irrom raqobat” usullari.

6. Nima sababdan raqobatli iqtisodiyot oqibatda iqtisodiy samaradorlikka olib keladi?

7. Quyida keltirilganlardan qaysi birida baholi raqobatni amalgamoshirish mumkin:

- bir sifatli olmaning bozorda va supermarketda sotish jarayonida;
- iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha darslikni quyi va yuqori kurs talablari orasida sotish jarayonida;
- mukammal raqobatli bozorda tovarlarni sotish jarayonida;
- restoranda pivo sotishda;
- bir sifatli kostyumni MUMda va Pskentda sotish jarayonida;
- erkaklar kostyuminini London markazida va undan chetda sotish jarayonida;
- avioobiletlar sotish jarayonida;
- qishloq xo‘jaligi qurollarini sotish jarayonida;
- poyezdga bilet sotishda;
- fotorasmni tayyorlashda.

8. Quyidagi qisqa muddatli davr ichida raqobatli firma tomonidan ko‘riladigan umumiy xarajatlar funksiyasini keltiring:

Mahsulot ishlab chiqarish	0	1	2	3	4	5
Umumiy xarajatlar (so‘m)	1000	1200	1600	2200	3000	4000

– tovar narxi 300 so‘m; 500 so‘m; 700 so‘m; 900 so‘m bo‘lganda, firma qaysi hajmda mahsulot ishlab chiqarishni tanlar edi;

- firma ko‘radigan foyda va zarar qanday bo‘ladi?

Testlar:

1. Bozorning qaysi turida ishlab chiqarishning pirovard natijalari ayrboshlanadi?

- a) iste'molchilik tovarlari bozorida;
- b) ishchi kuchi bozorida;
- c) kapital bozorida;
- d) tabiiy resurslar bozorida.

2. Quyidagilardan qaysi biri chakana savdo shoxobchalarining tarkibiy qismi hisoblanadi?

- a) ixtisoslashgan va universal magazinlar;
- b) supermarketlar;
- c) dehqon bozori;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Aqliy mehnat mahsuli bo'lgan intellektual tovarlar bozorida ayrboshlash obyekti bo'lib nima chiqadi?

- a) ilmiy g'oyalar;
- b) san'at va adabiyot asarlari;
- c) ilmiy-texnik ishlanmalar;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

4. Qaysi bozorda tovarlar ishlab chiqarish iste'moli, ya'ni unumli iste'mol uchun ayrboshlash qilinadi?

- a) iste'mol tovarlari bozorida;
- b) intellektual tovarlar bozorida;
- c) ishlab chiqarish vositalari bozorida;
- d) moliya bozorida.

5. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maxsus arzonlash-tirilgan baholar qanday nom bilan ataladi?

- a) ulgurji baholar;
- b) demping baholar;
- c) dotatsiyalangan baholar;
- d) nufuzli baholar.

6. Raqobatning qaysi shaklida baho belgilashda kelishib olish imkoniyati ko'proq mavjud bo'ladi?

- a) sof raqobat;
- b) monopoliya;
- c) monopolistik raqobat;
- d) oligopoliya.

7. Qaysi mezon bo‘yicha tarmoqning raqobatli ekanligini aniqlash mumkin:

- a) tarmoqda ishlab chiqarishning samarasiz usullari qo‘llanilmoqda;
- b) tarmoqdagi ish haqi darajasi mamlakatdagi o‘rtacha ish haqidan past;
- d) tarmoqqa kirish uchun to‘siqlar yo‘q;
- e) tarmoqdagi foyda darajasi mamlakatdagi normal darajadan yuqori.

8. Monopolistik raqobat bilan mukammal raqobat orasidagi farqni ko‘rsating:

- a) sotuvchilar sonining kamligi;
- b) tarmoqqa kirish uchun to‘siqlar mavjudligi;
- d) tabaqalashgan(differensiyalashgan) tovarlar ishlab chiqiladi;
- e) firma baho ustidan nazorat olib boradi.

9. Tarmoqda 1000ta firma faoliyat olib boradi. Har bir firmanın 5 ta birlik mahsulot ishlab chiqarishdagi chegaraviy xarajatlari 2 doll., 6 tada–3 doll., 7 tada–5 doll.ni tashkil etadi. Bir dona mahsulotning bozor narxi 3 doll. Bo‘lganda, tarmoqdagi ishlab chiqarish:

- a) 5000 birlikdan ko‘p emas;
- b) 5000 birlikni;
- d) 6000 birlikni;
- e) 7000 birlikni.

10. O‘z mavqeini va foydasini oshirish maqsadida bozor strukturasining qaysi ko‘rinishiga reklama, tovar belgilari va tovar markalaridan keng ko‘lamda foydalanish xosdir:

- a) mukammal raqobat;
- b) sof monopoliya;
- d) monopolistik raqobat;
- e) oligopoliya.

11. Qaysi holda baholi diskriminatsiya (kamsitish) o‘rinlidir:

- a) yuqori sifatli tovarlar bahosini oshirishda;
- b) ma’lum bir tovarni turli xaridorlarga har xil narxlarda sotish;
- d) iste’mol tovarlariga yuqori baholarni o‘rnatish jarayoni;
- e) turli millat vakillariga turli hajmda ish haqi belgilashda.

12. Qaysi holda “firma” va “tarmoq” tushunchalari bir-biriga mos keladi:

- a) oligopoliya holatida;
- b) ochiq monopoliyada;

- d) yopiq monopoliyada;
- e) sof monopoliyada.

13. Quyidagi keltirilganlardan qaysi biri sof monopoliya hisoblanadi:

- a) “Fan” nashriyoti;
- b) Toshkent metropoliteni;
- d) “Dori-darmon” aksionerlik jamiyati;
- e) “Perftctum Mobile”.

14. Qanday qilib oligopolist – korxona o‘z foydasini maksimal lashtiradi:

- a) ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish orqali;
- b) tarmoqning boshqa firmalari bilan narx siyosati borasida kelishish orqali;
- d) o‘z mahsulotining bahosini oshirish orqali;
- e) o‘z mahsuloti bahosini pasaytirish orqali.

15. Raqobatlari firmadan farq qilgan holda monopolist:

- a) o‘z mahsulotiga xohlagan baho o‘rnata oladi;
- b) chegaraviy daromad bilan chegaraviy xarajatlarni tenglashtirish orqali foydani maksimallashtiradi;
- d) xohlagan hajmda mahsulot ishlab chiqarib, uni xohlagan narxda sotishi mumkin;
- e) talabning berilgan egri chizig‘ida ishlab chiqarish hajmi va bahoning maksimal foyda keltiruvchi kombinatsiyasini tanlay olishi mumkin;

16. Quyida keltirilgan ta’riflardan qaysi biri “normal foyda” tu-shunchasiga mos keladi:

- a) chegaraviy xarajat va chegaraviy daromad bir-biriga teng bo‘lganda firma tomonidan olinadigan foyda;
- b) tarmoqdagi (tipik) firma tomonidan olinadigan foyda;
- d) tadbirkorga qulay turmush tarzini ta’minlab beruvchi foyda;
- e) firma tanlagan faoliyat doirasida qolishi uchun zarur bo‘lgan minimal foyda.

17. Raqobatlari firma mahsulotiga talab egri chizig‘i:

- a) salbiy tomonga og‘adi;
- b) berilgan narx darajasida gorizontal chiziq;
- d) berilgan narx darajasida vertikal chiziq;
- e) ijobiy tomonga og‘adi.

18. Tabiiy monopoliyaga misol bo‘la oladi:

- a) OPEK;
- b) IVM kompaniyasi;
- d) "Tasvir" nashriyoti;
- e) "O'zbekiston temir yo'llari" DAK.

19. Sof monopol raqobatli bozor quyidagi umumiylklarga ega:

- a) differensiyalashgan tovarlar ishlab chiqaradi;
- b) ko'p sonli sotuvchi va xaridorlar faoliyat ko'rsatadilar;
- d) har bir firma o'z mahsulotiga gorizontal talab egri chizig'i bilan to'qnashadilar;
- e) bir turdag'i tovarlar ishlab chiqaradilar.

20. Ishlab chiqaruvchi monopolist chegaraviy daromad - 180 doll., chegaraviy xarajatlar - 100 doll., o'rtacha xarajatlar - 200 doll.ga teng bo'lgan holda ma'lum hajmdagi mahsulotni ishlab chiqaradi va sotadi. Maksimum foyda olish uchun firma:

- a) narxni ko'targan holda, ishlab chiqarish hajmini oshirishi kerak;
- b) narxni ko'targan holda, ishlab chiqarish hajmini kamaytirishi kerak;
- d) narxni oshirgan holda, avvalgi ishlab chiqarish hajmini saqlab qolishi kerak;
- e) narxni pasaytirgan holda, ishlab chiqarish hajmini oshirishi kerak.

21. Quyidagi omillardan qaysi biri monopol hukmronlikni ifodaydi:

- a) firma o'rtacha xarajatlari darajasi;
- b) taklif elastikligi;
- d) ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi;
- e) ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hukumat tomonidan nazorat.

22. Faraz qilamiz, monopolist 10 birlik mahsulotni 100 dollardan sotadi, 11 chi tovari sotish tovar bahosini 99,5 dollarga pasaytirib yuboradi. Sotuv hajmini 10 birligidan 11 birliggacha oshirilganda chegaraviy daromad nechaga teng bo'ladi?

- a) 100 doll;
- b) 99,5 doll;
- d) 94,5 doll;
- e) 94 doll.

23. Oligopoliya bu bozor strukturasini bo'lib, unda:

- a) raqobatchi firmalar soni ko'p bo'ladi;
- b) raqobatchi firmalar soni kam bo'ladi;
- d) bitta yirik firma;
- e) bitta yirik xaridor.

24. Chegaraviy daromad bozor bahosidan kam bo'-ladi:

- a) monopolistik raqobatda;
- b) monopolistlarda;
- d) kartel ishtrokkchilarida;
- e) soj raqobatda.

6-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi. Korxona xarajatlari va foydasi

Xo‘jalik faoliyati mikro darajada tadbirkorlik va biznes tushunchalari bilan tavsiflanadi. Unda bozor munosabatlarining shakllanishi va o‘rta sinflarning vujudga kelishi tadbirkorlik faoliyatiga bog‘liq. Shu kunda tadbirkorlik faoliyati jamiyat iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch bo‘lib qolmoqda. Birinchi marta iqtisodiyot nazariyasida “tadbirkorlik” atamasini fransuz iqtisodchi olim Richard Kontilion qo‘llagan. O‘sha davrda tadbirkor atamasi kapitalning dastlabki jamg‘arilishining iqtisodiy shartini anglatgan. Dastlabki kapitalning jamg‘arilishi kapitalistik ishlab chiqarishni vujudga kelishida asos bo‘lgan. A.Smit va D.Rikardolar tadbirkor tushunchasini investor sifatida tushunganlar.

XIX-XX asrlarga kelib siyosiy iqtisod vakillari tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o‘sishidagi ahamiyatiga e’tibor qaratdilar. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik faoliyati uch yo‘nalishda tahlil etiladi:

1. Iqtisodiy kategoriya sifatida;
2. Xo‘jalik yuritish shakli sifatida;
3. Iqtisodiy tafakkur sifatida.

Hozirgi kunda yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik layoqati, asosiy ishlab chiqarish omillari sifatida o‘rganiladi. Har qanday jamiyatda ishlab chiqarish jarayoni eng muhim iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi. Bu jarayonda ishlab chiqarish tushunchasi eng asosiy omil hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish birligi korxona o‘z faoliyati natijalaridan imkonli boricha ko‘proq daromad olishga intiladi. Bu esa mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf xarajatlarni kamaytirish orqali yuzaga keladi. Har qanday firma kapital negizida quriladi. Kapital – foyda topish maqsadida firma tomonidan ishlab chiqarishga qo‘yilgan puldir. Bu pul firmanın o‘z mablag‘lari va bankdan qarzga olingan puldan iborat bo‘lib, asosiy va aylanma kapitalni tashkil etadi. Firmanın iqtisodiy resurslar uchun qilingan sarfi ishlab

chiqarish xarajatlari deyiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari ikkiga bo‘linadi: birinchisi, bevosita ishlab chiqarish xarajatlari; ikkinchisi, muomala xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlari doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlardan tashkil topadi. Muomala xarajatlari qo‘s Shimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlaridan iborat. Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi pul tushumidan shu mahsulotni ishlab chiqarishga qilingan barcha xarajatlar (tannarx) chiqarib tashlansa korxonaning iqtisodiy foydasi yuzaga keladi.

Mavzuning maqsadi:

1. Tadbirkorlik mohiyatini tushunish va uning asosiy xususiyatlarini bilish;
2. Tadbirkorning bozor iqtisodiyotidagi o‘rnini aniqlash;
3. Iqtisodiy faoliyatning tadbirkorlikka xos turlarini bilish;
4. Har bir tadbirkorlik faoliyati turining afzallik va kamchiliklarini ko‘rsata olish;
5. Hozirgi zamon iqtisodiyotida tadbirkorlikning mohiyati va maqsadlarini tushunish;
6. Tadbirkorlik kapitali va uning tarkibi.
7. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi
8. Ishlab chiqarish, korxona tushunchalarini ko‘rib chiqish;
9. Ishlab chiqarishdagi iqtisodiy xarajatlar, ularning turlari va mazmuni ochib berish va ularning dinamikasini o‘rganish;
10. Ishlab chiqarish hajmini turli ko‘rinishidagi samarasini o‘rganish.
11. Daromad, foyda tushunchasini aniqlash.

Atama va tushunchalar:

Biznes, kichik biznes subyektlari, tadbirkorli. Tadbirkorlikning huquqiy va iqtisodiy asoslari. Tadbirkorlik tizimi. Tadbirkorlik tamoyillari. Tadbirkorlik faoliyati turlari: ishlab chiqarish tadbirkorligi, tijorat tadbirkorligi, moliyaviy tadbirkorlik, vositachilik tadbirkorligi. Mulkiy jihatdan tadbirkorlik turlari: xususiy tadbirkorlik, jamoa-guruhiy tadbirkorlik, davlat tadbirkorligi. Qonuniyligi jihatdan tadbirkorlikning turlari: oshkora va yashirin tadbirkorlik. Tadbirkorlar toifalari. Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma. Iqtisodiy samadarlik. Rentabellik. Korxonaning ishlab chiqarish fondlari. Jismoniy va

ma’naviy eskirish. Ishlab chiqarish fondlarining samaradorligi. Tadbirkorlik kapitali. Kapitalning aylanishi va doiraviy aylanishi.

Korxona, firma, tarmoq. Ishlab chiqarish jarayoni. Tashqi ishlab chiqarish xarajatlari. Ichki (aniq bo‘lmagan yoki imkoniyatlar boy berilishi natijasidagi xarajatlar) va tashqi (aniq) xarajatlar. Firmaning uzoq va qisqa muddatdagi faoliyati. Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar. Umumiyligi, o‘rta va chegaraviy xarajatlar. Yalpi daromad. O‘rta va chegaraviy daromad. Iqtisodiy va buxgalterlik foyda. Normal foyda. Iqtisodiy nol foyda.

Savollar:

1. Tadbirkorlik bilan biznes bir xil faoliyatmi yoki ularning farqi bormi?
2. Tadbirkorlik qanday tamoyillarga asoslanadi?
3. Nima uchun tadbirkor multk sohibi bo‘lishi lozim?
4. Firmalarning qanday turlari bor va ulardan qaysi biri keng tarqalgan?
5. Xarajatlar nima va nima uchun ular turlarga bo‘linadi?
6. Nima uchun xarajatlar goh ortib, goh pasayib turadi?
7. Foydaning daromaddan nima farqi bor?
8. Foyda miqdori nimaga bog‘liq?
9. Ishlab chiqarish rentabelligi va mahsulot rentabelligi qanday farqlanadi?
10. Nima uchun firma investitsiya qilishi shart?
11. Nima uchun tadbirkorlikda xatar bor va uning turlari qanday?
12. Xatarni qanday yo‘llar bilan kamaytirsa bo‘ladi?
13. Kichik xususiy tadbirkorlik faoliyatining subyektlari kimlar?
14. Ularning manfaatlari va huquqlari qanday himoyalanadi?
15. Kichik xususiy tadbirkorlik faoliyatining asosiy ustuvor yo‘naliishlari nimalardan iborat?
16. Davlatning axborot vositalari texnika bilan ta’minlanganligining asosiy mohiyati nimadan iborat?
17. Nima uchun yirik korxonalar o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan detallarning 70% iga yaqini kichik va o‘rta korxonalardan xarid qiladi?
18. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda qanday holda davlat muassasalari uni qayd qilishdan bosh tortadi?. Qanday holda tadbirkor xo‘jalik sudiga murojaat qiladi?
19. Tadbirkor qanday hujjatlar yordamida o‘z faoliyatini rag‘batlantiradi?

20. Nima uchun kichik korxonaning hayot faoliyati 4-5 yil ichida tugaydi? Sababini izohlab bering.
21. Ishlab chiqarish sarf xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
22. Ichki va tashqi xarajatlar o‘rtasidagi farq nimada?
23. Ishlab chiqarish resurslari tarkibida qaysi biri uzoq muddatli xarajatlarga kiradi?
24. Nima uchun xarajatlar goh ortib, goh pasayib taradi?
25. Foydani daromaddan farqi nimada?
26. Foya nomasi va massasini oshishi qanday omillarga bog‘liq?
27. Foya miqdori nimalarga bog‘liq?
28. Normal va iqtisodiy foydaning farqi nimada?
29. Chegaraviy naflilik qonuni nima?

Topshiriqlar:

1. Davlat idoralarining ishchi-xizmatchisi o‘z pulini biznesga qo‘ydi. Birinchisi 100000 so‘mni kooperativga sarfladi, ikkinchisi 100000 so‘mga aksiya sotib oldi. Yil oxiriga kelib kooperativ va aksiyadorlik jamiyati foydasidan bir qismini talab qildi. Bu yerda qanday xatoga yo‘l qo‘yilgan. Kim haq, kim nohaq ekanligini izohlab ko‘ring.

2. Chinni zavodi choynak, piyola, lagan va kosa chiqaradi. Bitta choynak chiqarishga 1250 so‘m sarflanib 150 so‘m foya olinadi. Bir piyolaga 250 so‘m sarflanib 70 so‘m foya olinadi, bir laganga 3000 so‘m sarflanib, 750 so‘m foya olinadi, bir kosaga 700 harajat qilinib 150 so‘m foya olinadi.

Hisoblab ko‘ringchi, bu mahsulotlardan qaysi biri zavod uchun rentabel mahsulot.

3. Aksionerlik jamiyati 4 mld. so‘mlik aksiyalarning har birini 1 mill. so‘mdan sotdilar. Qo‘srimcha yana 3000 ta aksiya chiqardilar va ularning har birini 1 mill. so‘mdan sotdilar. Aksionerlik jamiyati jami qancha so‘m mablag‘ni bu faoliyatlariga jalb qilganlar?

- 4 mld. so‘m;
- 3 mld. so‘m;
- 7 mld. so‘m;
- 0 so‘m.

4. Sovutgich ishlab chiqaruvchi korporatsiya sindi, ya’ni bankrot bo‘ldi va uni kir yuvish mashinalari ishlab chiqaruvchi korporatsiya sotib oldi. Bunda sovutgich ishlab chiqaruvchi korporatsiyaning hamma

huquq va majburiyatlari uni sotib olgan kir yuvish mashinalari ishlab chiqaruvchi korporatsiyaga o‘tadimi?

- aksionerlar bilan hisob kitob qilish majburiyatlari o‘tadi;
- qarzlarni to‘lash majburiyati o‘tadi;
- hech qanday majburiyat o‘tmaydi;
- korporatsiya bitimlarini bajarish majburiyatlari o‘tadi.

5. Kichik korxona o‘z faoliyatini boshlash uchun unga universitet binosidan joy va zarur bo‘lgan stol, stul, seyf va shunga o‘xshash narsalar ajratildi. Sababi, kichik korxona rahbariyatining taklifi universitet rahbariyatini qiziqtirdi. Bunday sharoitda universitet quyidagilardan qaysi biri bo‘ladi?

- xususiy kreditor;
- davlat kreditori;
- firma olib borayotgan faoliyat sheri;
- xususiy ishlab chiqaruvchi.

6. Trikotaj fabrikasida 120 ming dona paypoq ishlab chiqarildi. Buning uchun 5160 ming so‘m xarajat qilindi. So‘ngra 130 ming dona paypoq ishlab chiqarib, 5220 ming so‘m sarflandi. Hisoblab ko‘ringchi, o‘rtacha xarajatlarda qanday o‘zgarish yuz berdi?

7. Changyutgich ishlab chiqaradigan zavod I kvartalda 500 ta changyutgich chiqarib, 1 million so‘m, II kvartalda 520 ta changyutgich uchun 1 million 420 ming so‘m, III kvartalda 540 ta changyutgich uchun 1 million 550 ming so‘m, IV kvartalda 550 ta changyutgich chiqarib, 1 million 600 ming so‘m sarfladi. Changyutgichning har kvartaldagi me’yoriy va o‘rtacha xarajatlarini hisoblab toping va ularni qanday yo‘nalishda o‘zgarganligini izohlang.

8. Korxonaning xarajatlari quyidagilardan iborat: amortizatsiya, xomashyo, yoqilg‘i sarfi, ish haqi, ijtimoiy sug‘urta ajratmasi, ijara haqi, elektr energiya haqi, qarz foizi, transport haqi, soliqlar va sug‘urta puli. Shulardan qaysi biri doimiy va qaysi biri o‘zgaruvchan xarajatlarga kirishini ajratib yozing.

9. Korxona binoni ijaraga olgan. Yangi ijara bitimiga ko‘ra ijara haqi oshirildi. Korxona bankdan qarz olgani uchun foiz ham ko‘paydi. Lekin korxonada yangi texnologiya kiritilib, xomashyo va yoqilg‘i tejaldi. Bu omillarning qaysi biri doimiy xarajatlarga yoki o‘zgaruvchan xarajatlarga ta’sir etadi.

10. Korxona o‘z binosida ishlaydi, lekin bozorda vaziyat noqulay bo‘lib, xomashyo va yoqilg‘i qimmatlashdi, ayni vaqtida menejerning

talabiga binoan uning xizmat haqi oshirildi. Shunday vaziyatda korxonaning umumiylar qaysi xarajat (doimiy va o'zgaruvchan) hisobiga oshadi?

11. Korxona I-kvartalda 2 mld. so'mlik, II-kvartalda 1,8 mld. so'mlik, III-kvartalda 2,4 mld. so'mlik, IV-kvartalda 2,8 mld. so'mlik mahsulot sotdi. Korxonaning yillik daromadi qancha bo'ldi. II, III, IV kvartalda me'yoriy daromad qanday bo'ldi?

12. Mebel ishlab chiqaruvchi tadbirkorning aniq va noaniq xarajatlarini aytib bering.

13. Quyidagilarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

– qarorlar qabul qilishda faqat kapital va mehnat omilini hisobga olish kerak;

– mehnat taqsimoti ishlab chiqarish hajmida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi;

– kichik firmalar doimo katta firmalarga nisbatan samarali bo'ladi;

– zarar ko'rib ishlovchi firmalar bozorda faoliyat ko'rsatishi mumkin emas;

– o'rtacha doimiy xarajatlar miqdori ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan kamayadi;

– o'rtacha doimiy xarajatlar miqdori ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan oshadi;

– iqtisodiy foyda – aniq bo'lмаган xarajatlar natijasidir;

– firma foydalanadigan resurslarini 30% ga oshirsa, ishlab chiqarish hajmi 25% ga oshadi va ishlab chiqarish hajmida ijobiy samara bo'ladi;

– ishchilar soni aniq bo'lganda, ishlatilayotgan kapital miqdori oshsa, kapital qiymati kamayadimi?

– uzoq muddatli davrda barcha xarajatlar o'zgaruvchan bo'ladi;

– elektroenergiya tarifining kamayishi, doimiy xarajatlarni kamaytiradi;

– mulk solig'inining kamayishi o'zgaruvchan xarajatlarni oshiradi.

14. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi o'zgarishlarda qisqa va uzoq muddatdagi xarajatlarni aniqlang:

– Teksako neftni qayta ishlaydigan yangi qurilmani yaratdi;

– DEU - avto korporatsiyasi 200ta yangi ishchini yolladi;

– fermer ishlatiladigan o'g'itlar miqdorini ko'paytirdi;

– Malika fabrikasida uchinchi smena ishga tushdi;

– Toshkent poyabzal fabrikasi yangi bino qurdi;

- talab oshishi bilan “O‘rtoq” konditer fabrikasi qo‘sishimcha kakao kukuni va yong‘oq sotib oldi;
- O‘zbekneftegaz Milliy korporatsiyasi yangi gazkondensat kombinatini ishga tushirdi;
- “Uzsalamon” yangi ishlab chiqarish korpusini ishga tushirdi;
- AvtoVAZ yangi yig‘uv liniyasini ishga tushirdi;
- “Daymler-Kraysler” yangi liniyani ishga tushirishga qaror qildi;
- bu yil zavod kombaynlarni yana 50 donaga ko‘paytirishga qaror qildi;
- Tovuq fermasi Germaniyadan qo‘sishimcha 1000 ta jo‘ja broylerlarni sotib oldi.

15. Quyidagilar, xarajatlarning (doimiy, o‘zgaruvchan) qanday turiga mansub:

- mahsulot reklamasi;
- yoqilg‘i xaridi;
- firma tomonidan chiqarilgan aksiyalarga to‘lanadigan foiz;
- xomashyo;
- dengiz orqali mahsulotlarni tashish;
- ko‘chmas mulkka to‘lanadigan soliq;
- boshqaruvdagi xodimlarning ish haqi;
- sug‘urta to‘lovleri;
- qo‘sishimcha qiymat solig‘i;
- sotishdan olinadigan soliq;
- firmaning arenda to‘lovi;
- ishchilarning ish haqiga ketadigan xarajatlar.

16. Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarni aniqlang:

- avtomobildan foydalanish;
- uy xarajati;
- issiqxonada gullarni yetishtirish;
- chorvachilik fermasini saqlash.

17. Siz korxonaga 20 mln. so‘m sarfladingiz. Yil oxirida yalpi daromad 10 mln. so‘m bo‘ldi, buxgalterlik xarajatlari 8mln. so‘m, bankning yillik foiz stavkasi 15%. Siz bunday holda olgan foyda normadami? Siz kapitalingizni to‘g‘ri joylashtirdingiz-mi?

18. Pomidorning bozor bahosi 1kg 2500 so‘m bo‘lsa, sizning chegaraviy daromadingiz 100 kg, 1kg, 20 kg da qancha bo‘ladi? Agarda

siz sof raqobat kurashi sharoitida ishlayotgan bo‘lsangiz o‘rtacha daromadingiz qancha bo‘ladi?

19. Korxonaning doimiy xarajati 50 mln. so‘m. Qisqa muddatdagi (AVS) o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlarga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlar jadvalda keltirilgan:

– doimiy o‘rtacha, umumiyl o‘rtacha, chegaraviy xarajatlarni aniqlang;

– AVS, ATS, MS egri chizig‘ini chizing, MS boshqa ikkita egri chiziqning minimal nuqtasidan o‘tishini tekshiring;

– ishlab chiqarish hajmi bir xuftada 5 mingdan 6 ming donaga oshdi. MS miqdori nima uchun oshdi?

Javobingizni tushuntiring (5-jadval).

5-jadval

Ishlab chiqarish hajmi bir xuftada ming (dona)	AVS
1	15
2	13
3	12
4	13
5	13
6	27

Testlar:

1. Asosiy kapitalning jismoniy eskirishi qachon ro‘y beradi?

- a) foydalanish jarayonida;
- b) harakatsiz turish natijasida;
- d) tabiiy kuchlarning ta’sirida;
- e) maqsadli foydalanilmaganda.

2. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash uchun asosiy kapital qanday usullarda baholanadi?

- a) dastlabki qiymati bo‘yicha;
- b) qoldiq qiymati bo‘yicha;
- d) qayta tiklash qiymati bo‘yicha;
- e) takror ishlab chiqarish qiymati bo‘yicha.

3. Tadbirkorlik ...

- a) hamisha foydali;
- b) oliy ma'lumot olgan katta yoshdagilargagina xos ish;
- d) ishlab chiqarish omili;
- e) iqtisodiy tizimda doimo tavakkalchilik bilan bog'liq.

4. O'z obroyini uylaydigan firma quyidagilardan manfaatdir...

- a) faqat foyda olish;
- b) foydani ko'paytirishning eng oson va tez yo'lini tanlash;
- d) mahsulot sifati, idishi va markirovkasi, shuningdek iste'molchining xavfsizligi;
- e) hatto sifatiga putur yetganida ham ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish.

5. Asosiy kapitalning ma'naviy eskirishi qachon ro'y beradi?

- a) foydalanish jarayonida qiymatning kamayishi natijasida;
- b) eski mashinalarni yangisi bilan almashtirish natijasida;
- d) jihozlardan foydalanmaslik natijasida;
- e) jihozlarning sinishi natijasida.

6. Tadbirkorning asosiy belgisini aniqlang:

- a) menejer;
- b) boshqaruvchi;
- d) mulkdor;
- e) foyda olish maqsadida tavakkalga boruvchi kishi.

7. Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri tadbirkorlikka xos?

- a) tavakkalchilik;
- b) erkin iqtisodiy faoliyat;
- d) foyda olishga intilish;
- e) yuqoridaqilarning barchasi.

8. Biznes reja nima?

- a) korxona (firma)ning rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi asosiy hujjatdir.
- b) asosan marketing bo'limining rejasidir.
- d) asosan moliyaviy rejadir.
- e) tashkiliy va huquqiy rejadir.

9. Tadbirkor - bu:

- a) yuridik shaxs sifatida doimiy asosda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs;
- b) yuridik shaxs bo'lmasdan doimiy asosda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs;

d) puxta o‘ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar asosida ish tutuvchi shaxs;

e) tadbir bilan, puxta o‘ylab ish qiladigan kishi;

10. Jismoniy shaxs — bu:

a) mamlakatning huquqli bo‘lish qobiliyatiga ega bo‘lgan fuqarosidir;

b) o‘z mulkiga ega bo‘lib, majburiyatlari uchun shu mulki bilan javob beradigan, belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan va mulkini mustaqil boshqarib borayotgan tashkilot;

d) mustaqil muassasa;

e) mustaqil korxona;

11. Huquqiy shaxs — bu:

a) o‘z mulki, balansi, muhri, nomi, ta’sischilari, ustaviga ega bo‘lgan korxona;

b) fuqarolik huquqi subyekti bo‘lgan fuqaro;

d) o‘z mulkiga ega bo‘lib, majburiyatlari uchun shu mulki bilan javob beradigan, belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan va mulkini mustaqil boshqarib borayotgan tashkilot

e) noto‘g‘ri javob yo‘q.

12. Investitsiya nima?

a) kelajakda daromad olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo‘yish;

b) pul mablag‘larini bankka qo‘yish;

d) birjada qimmatli qog‘ozlar bilan savdo operatsiyalarini o‘tkazish;

e) ixtirolardan foydalanish huquqlarini sotib olish.

13. Korxona nima?

a) foyda olish maqsadida birgalikda ishlovchi kishilar guruhi;

b) xo‘jalik subyekti sifatida o‘zlariga biriktirilgan ishlab chiqarish vositalaridan unumli foydalanuvchi, tovarlar ishlab chiqarish natijasida normativ belgilangan daromadning bir qismiga egalik qiluvchi yalpi ishchilar faoliyat ko‘rsatadigan obyekt;

d) mustaqil ish yurituvchi, mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va realizatsiya qiluvchi, ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi va natijada olingan daromadga egalik qiladigan o‘zining joriy hisobiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik subyekti;

e) korxona – bu ishlab chiqarishni tashkil etuvchi va ishlovchilarga ish beruvchi tashkilotdir.

14. Sohibkorlik nima?

- a) xo‘jalikni boshqaruvchi shaxsning ishchanlik faoliyati;
- b) xususiy mulkdor shaxslarning foyda olish maqsadida olib borayotgan kommersiya faoliyati;
- d) tashabbuskorlik faoliyati asosida tavakkal ish yuritish va javobgarlikni o‘z bo‘yniga oluvchi subyektning iqtisodiy faoliyati;
- e) daromad yoki foyda olish imkoniyatlarini beradigan xo‘jalik faoliyati.

15. Aksionerlik jamiyatida daromad qanday taq-simlanadi?

- a) a’zolar o‘rtasida teng taqsimlanadi;
- b) sarf qilinadigan mehnatiga qarab taqsimlanadi;
- d) har bir a’zoning qo‘sghan pul mablag‘lari miqdoriga qarab;
- e) aksionerlik jamiyati umumiy yig‘ilishi qaroriga va aksionerning soniga qarab.

16. Sizning fikringizcha quyidagilardan qaysi biri firmaning kommersiya siri hisoblanadi?

- a) firmanın moliyaviy yakunları;
- b) mahsulot tannarxi;
- d) firma bilan tuzilgan bitimlar;
- e) firma tomonidan tovarlarni yetkazish yoki xizmat qilish tartibi.

17. Sohibkor kim?

- a) boshqaruvchi;
- b) menejer;
- d) egalik qiluvchi;
- e) foyda olish maqsadida tavakkal qilib ish yurituvchi shaxs.

18. Mustaqil ish yuritish uchun ishlab chiqarishni tashkil etishning qaysi turini tanlash mumkin?

- a) shaxsiy korxonani;
- b) sherikchilik korxonasini;
- d) ijtimoiy tashkilotni;
- e) yopiq turdagı aksionerlik jamiyatını.

19. Iqtisodiy faoliyat turlaridan qaysi birining natijasi bo‘lib moddiy ashyoviy ko‘rinishdagi ne’matlar chiqadi?

- a) xizmat ko‘rsatishda;
- b) iste’molda;
- d) iqtisodiy naqli ish bajarishda;
- e) ishlab chiqarishda.

20. Quyidagilardan qaysi biri ishlab chiqarishning moddiy omili hisoblanadi?

- a) xomashyo;
- b) materiallar;
- d) bino va inshootlar, mashinalar, asbob uskunalar;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

21. Iqtisodiy resurslar hisobiga olinadigan daromad turini aniqlang?

- a) ish haqi;
- b) foiz;
- d) renta;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

22. Mehnat unumdorligining oshishiga olib keladigan omillarni aniqlang?

- a) mehnat intensivligining oshishi;
- b) vaqt ni tejash;
- d) yangi texnologiyani qo'llash;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

23. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?

- a) ishlab chiqarish natijalari sarf-xarajatlar bilan taqqoslanadi;
- b) ishlab chiqarish natijalari jonli mehnat sarflari bilan taqqoslanadi;
- d) ishlab chiqarish natijalari kapital sarflari bilan taqqoslanadi;
- e) ishlab chiqarish natijalari aylanma mablag'lar qiymati bilan taqqoslanadi.

24. Quyidagilardan qaysi biri mehnat kooperatsiyasini xarakterlaydi?

- a) mehnatning alohida mehnat turlariga ajralishi;
- b) xodimlarning iqtisodiy faoliyatining biron turini bajarishga yoki mahsulotning alohida turlarini ishlab chiqarishga moslashuvi;
- d) mehnatning alohida va bir-biriga bog'liq turlariga uyushishiga;
- e) iqtisodiy tarmoqlar va sohalarning bir-biriga bog'liqligining kuchayishi.

25. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?

- a) mahsulot miqdorini uni ishlab chiqarishga ketgan ish vaqtiga nisbati bilan;
- b) mahsulot miqdorini qilingan sarf-xarajatlarga nisbati bilan;
- d) mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yo'li bilan;
- e) yuqoridagi barcha usullarda.

26. Firmaning doimiy xarajatlari-bu:

- a) firmaning resurslarni xarid etgan vaqtdagi resurslar bahosining sarfi;
- b) ishlab chiqaruvchining qulay sharoitdagi har qanday hajmda ishlab chiqargan mahsulotlariga ketgan minimal xarajatlari;
- d) mahsulotlarni ishlab chiqarmasada firmaning sarflayotgan xarajatlari;
- e) firmaning maksimal foyda olayotgandagi xarajatlari.

27. Aniq bo‘limgan xarajatlar:

- a) soliq to‘lash;
- b) firma egasiga tegishli bo‘lgan resurslardan foydalanish uchun kerak bo‘lgan muqobil xarajatlar;
- d) mavsumiy ishda band bo‘lganlarning ish haqi;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

28. Firmanın maqsadga muvofiq bo‘lgan hajmi haqida qaror qabul qilinganida quyidagi xarajatlardan qaysi biri hisobga olinmaydi?

- a) o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar;
- b) o‘rtacha doimiy xarajatlar;
- d) chegaraviy xarajatlar;
- e) buxgalterlik xarajatlar.

29. O‘zgaruvchan xarajatlar:

- a) ishlab chiqaruvchilarning ish haqi;
- b) boshqaruva xodimlarining ish haqi;
- d) amortizatsiya ajratmalari;
- e) qorovulning ish haqi.

30. Yalpi daromad:

- a) mahsulot realizatsiyasidan olingan tushum;
- b) mahsulot realizatsiyasidan olingan tushum minus xarajatlar olingan qism;
- d) qo‘sishimcha yana bitta mahsulotning realizatsiyasidan olingan tushum;
- e) mahsulot realizatsiyasidan olingan tushumdan xarajatlarni olingan qismi.

31. Qisqa muddatda maksimum foyda olishga erishgan firma faoliyatini tugatadi, agarda:

- a) minimal umumiy o‘rtacha xarajatdan baho kam bo‘lsa;
- b) normal foyda tarmoqdagi o‘rtacha foydadan past bo‘lsa;
- d) o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar bahodan kam bo‘lsa;

e) umumi daromad umumi xarajatdan kam bo'lsa.

32. Chegaraviy xarajat:

a) ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq bo'lman xarajatlar;

b) ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

d) sarflanayotgan resurslarning eng muqobilidan foydalanish hisobi-ga olingan daromadlarga teng bo'lgan xarajatlar;

e) har bir qo'shimcha yaratilgan mahsulotga ketgan xarajatlar.

33. Quyidagilardan to'g'risini aniqlang:

a) buxgalterlik xarajatlari + iqtisodiy xarajat= foyda;

b) iqtisodiy foyda –buxgalterlik foydasi= aniq xarajat;

d) buxgalterlik foydasi – noaniq xarajatlar = iqtisodiy foyda

e) aniq xarajatlar+ noaniq xarajatlar = buxgalterlik foydasi.

34. Firma resurslarga xarajatlarni 10% ga ko'tarsa, ishlab chiqarish hajmi 15%ga oshadi, bunda:

a) ishlab chiqarish hajmida salbiy samara kuzatiladi;

b) ishlab chiqarish hajmida ijobiy samara kuzatiladi;

d) mehnat unumdarligini pasayish qonuni amal qiladi;

e) firma maksimal foyda oladi.

35. Doimiy o'rtacha xarajatlar:

a) ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan o'rtacha xarajatlar ham oshadi;

b) ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan o'rtacha xarajatlar qisqaradi;

d) ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan o'rtacha xarajatlar o'zgarmaydi;

e) ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan xarajatlarga ehtiyoj sezilmaydi.

36. Qisqa muddatli davr:

a) ba'zi bir resurslar hajmi o'zgarmaydigan davr;

b) ba'zi bir resurslar hajmi o'zgaradigan davr;

d) qisqa muddatli tovarlarni iste'mol qilinadigan davr;

e) uzoq muddatli tovarlarni iste'mol qilinadigan davr.

7– mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari

Iqtisodiy faoliyat bo'lishi uchun mehnat zarur. Mehnat qilish insonning o'z ish kuchini foydali sarflashi, uning natijasida tovarlar va xizmatlar yaratishdir. Mehnat ish kuchining funksiyasi, ish kuchi esa insonning qobiliyatidir. Mehnatning bozorda sotilish narxi kelishilgan ish haqidir. Mehnat talab va taklif ta'sirida bo'ladi.

Ish haqi mehnatning pul shaklidagi narxi bo‘lib, uni ishga yollaganlar mehnat qiluvchilarga ma’lum vaqt mobaynida, ma’lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajarganliklari uchun to‘laydilar. Ish haqi asosiy ish haqi, mukofotlar, ish vaqtidan so‘ng bajarilgan ish uchun beriladigan ustamalarga bo‘linadi. Ish haqi ishbay va vaqtbay bo‘lishi mumkin. Ishchining ishlagan vaqtি hisobga olinib to‘lanadigan ish haqi vaqtbay ish haqi deyiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga va bajarilgan ishi miqdoriga qarab to‘lanadigan ish haqi ishbay ish haqi deyiladi. Ish haqidan soliqlar, ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari, har xil badal pullari chegirilib olingandan keyingi qolgan qismi sof ish haqi deyiladi. Ish haqi nominal va real ish haqiga bo‘linadi.

Pul shaklida olingen ish haqi summasi nominal ish haqi deyiladi. Real ish haqi – sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdoridir.

Ish haqi xarajatlar vositasida foydaga ta’sir etish orqali mehnatga talabni o‘zgartiradi. Tarif setkasi – ish toifalari nisbatiga qarab ish haqi to‘lashdir. Tarif stavkasi – tegishli ish toifasiga ega bo‘lgan ishchilarning mehnatiga to‘lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.

Mavzuning maqsadi:

1. Resurslar bozoridagi talab va taklif xususiyatlarini aniqlash. Barcha resurslar o‘zgaruvchan bo‘lgan sharoitda xarajatlarni minimallashdirish va foydani maksimallashtirish qoidalarini o‘zlashtirish.
2. Bozor sharoitida mehnatga bo‘lgan talab va mehnat taklifi xususiyatlarini aniqlash.
3. Ish haqining mohiyatini ochib berish, uning ko‘rinishlari va mehnatga haq to‘lashda yuzaga keladigan tabaqalashuvga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib chiqish.
4. Sof raqobat sharoitida mehnatga haq to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish. Monopsoniya ttushunchasini yoritish va shuningdek kasaba uyushmalari va ularning mehnat bozoridagi o‘rnini ochib berish.

Asosiy atama va tushunchalar:

Mehnat bozori, mehnat shartnomalari, jamoa bitimi, ish haqi, vaqtbay va ishbay ish haqi. Tarif setkasi va stavkasi. Mehnatga bo‘lgan talab, mehnat taklifi, ish haqiga ta’sir etuvchi omillar. Nominal va real

ish haqi. Monopsoniya va oligapsoniya. Kasaba uyushmalari. Insonga sarflanadigan kapital.

Savollar:

1. Ish haqi deganda nimani tushunasiz?
2. Real ish haqi nima va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Ishchi kuchi sifati qanday aniqlanadi?
4. Mehnat munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
5. Mehnat bozorining qanday xususiyatlari bor?
6. Ishga yollash bitimlarining qanday turlari bor?
7. Ish kuchiga talab va taklifning elastik bo'lishiga nimalar ta'sir ko'rsatadi?
8. Insonga sarflanadigan kapital deganda nimani tushunasiz?
9. Monopsoniya va oligapsoniya nima?
10. Kasaba uyushmalari ish haqini oshirishning qanday usullaridan foydalanadilar?

Topshiriqlar:

1. Quyidagi tasdiqlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang:(6-jadval)
 - korxona foydasi maksimallashganda, bir vaqtning o'zida xarajatlar minimumlashadi;
 - resurslar bahosi ularga bo'lgan talab va taklifga bog'liq;
 - chegaraviy mahsulot bu - ortiqcha mahsulotdir;
 - mehnat unumdorligining o'sishi faqat fan-texnika taraqqiyotiga bog'liq;
 - mehnat intensivligi ishlovchining jismoniy va aqliy energiyasini sarflash darajasidir;
 - ish haqi qilingan mehnat uchun to'lanadigan haqdир;
 - ish haqi insonning ishlab chiqarish jarayonida sarflangan jismoniy, aqliy, ruhiy kuchlar yig'indisidir;
 - tovar va xizmatlarning chakana narxi nominal ish haqiga nisbatan tezroq o'sib borsa, real ish haqi shunchalik kamayib boradi;
 - nominal ish haqi bozordagi narx-navoga bevosita bog'liq;
 - real ish haqining o'zgarishi bozordagi iste'mol buyumlari narxiga bevosita bog'liq;
 - daromad solig'i oshgan sari real ish haqi ham oshib boradi.

6-jadval

Mehnat hajmi	Mehnatning chegaraviy miqdori	Mehnatning chegaraviy miqdorining puldagi ifodasi	Kapital hajmi	Kapitalning chegaraviy miqdori	Kapitalning chegaraviy miqdorining puldagi ifodasi
1	10	5	1	21	10,5
2	8	4	2	18	9
3	6	3	3	15	7,5
4	5	2,5	4	12	6
5	4	2	5	9	4,5
6	3	1,5	6	6	3
7	2	1	7	3	1,5

2. Quyida mehnat va kapitalning chegaraviy miqdori va uning puldagi ifodasi keltirilgan. Bu ikkala resurs o‘zgaruvchandir. Mehnatning bahosi - 2 doll, kapitalniki - 3 doll.

a) korxona 64 birlik, 99 birlik, 122 birlik mahsulot minimal xarajat qilgan holda ishlab chiqarish uchun qancha birlik mehnat va kapital sarflashi zarur;

b) korxona foydani maksimallashtirishi uchun qancha birlik mehnat va kapital sarflashi zarur va o‘z mahsulotini qaysi bahoda sotish mumkin;

d) korxona maksimal foyda olish sharoitida mahsulotning umumiy hajmini, umumiy tushumni, umumiy xarajatlar va foydasini aniqlang.

3. Qurilish firmasi uchun ish kuchi kerak. Mehnatga talab $D_1=1000-02W$ tenglamasi bilan aniqlanadi. Ishga yollash to‘g‘risidagi e’longa 700 ta kishi javob berdi. Shulardan 200 tasi kuniga 40000 so‘mdan, 200 tasi kuniga 25000 so‘mdan, 200 tasi kuniga 20000 so‘mdan va 100 tasi kuniga 15000 so‘mdan ish haqi olishga rozi.

a) qancha ishchi ish bilan band bo‘ladi va ish haqi darajasi qancha bo‘ladi;

b) davlat tomonidan ish haqining minimal darajasi kuniga 4000 so‘m deb qonunlashtirilsa, u holda firma qancha ishchini yollaydi;

4. Qanday iqtisodiy sharoitlarda mehnatga talab oshadi? Bizning mamlakatda bunday sharoitlar bormi?

5. Talabaning 150000 so‘m puli bor. U bu pulni sarflash yoki saqlab qo‘yish haqida o‘y surmoqda. Agar u pullarni bankka qo‘ysa, u holda bir yildan so‘ng 168000 so‘mga ega bo‘ladi. Inflyatsiya yiliga 14 % ni tashkil etadi. Talabaga qanday maslahat berar edingiz?

6. Quyidagi jumlalardan tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yib, to‘g‘ri javoblarni toping.

- a) ish kuchiga talab o‘zgarishiga qarab elastik bo‘ladi;
- b) o‘sishi ish kuchiga talabni qisqartiradi;
- d) ish kuchiga talabning o‘zgarishi o‘sishiga ham bog‘liq;
- e) ishsizlikning asosiy sababi taraqqiyotidir.

Testlar:

1. Bozorning qaysi turida ishlab chiqarishning pirovard nati-jalari ayrboshlanadi?

- a) iste’mol tovarlari bozori;
- b) ishchi kuchi bozori;
- d) kapital bozori;
- e) tabiiy resurslar bozori.

2. Quyidagilardan qaysi biri chakana savdo shaxobchalarining tarkibiy qismi hisoblanadi?

- a) ixtisoslashgan va universal magazinlar;
- b) supermarketlar;
- d) dehqon bozori;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

3. Aqliy mehnat mahsuli bo‘lgan intellektual tovarlar bozorida ayrboshlash obyekti bo‘lib nima chiqadi?

- a) ilmiy g‘oyalar;
- b) san’at va adabiyot asarlari;
- d) ilmiy-texnikaviy ishlanmalar;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

4. Mehnat birjasi qanday vazifani bajaradi?

- a) ishsizlarning ishga joylashishida vositachilik xizmatini ko‘rsatadi;
- b) ishchi kuchiga talab va taklifni o‘rganadi;
- d) turli xil kasblar to‘g‘risida ma’lumot beradi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

5. Ish haqining vazifasi nimalardan iborat?

- a) ishchi va uning oilasining hayot faoliyati uchun sharoitni ta’minalash;
- b) ishlovchining mehnat faoliyati uchun sharoitni ta’minalash;
- d) sarflangan mehnat miqdori va sifatini hisobga olish;
- e) iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish.

6. Real ish haqining darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- a) nominal ish haqi;
- b) xarid qilinadigan tovar va xizmatlar bahosi;
- d) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- e) natural shaklda olingan daromad.

7. Ish haqi darajasida farqlar bo'lishini keltirib chiqaruvchi sabb nima?

- a) ishchilarning layoqati darajasidagi farqlar;
- b) ish turlarini turli tuman bo'lishi;
- d) ish kuchi raqobatining cheklanganligi;
- e) ishchining malakasidagi farqlar.

8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi bu-

- a) yaratilgan mahsulotning sarflangan mehnat miqdori va sifati bo'yicha taqsimlash shaklidir;
- b) ish kuchi bu - tovarning bahosidir;
- d) mehnat uchun mukofot;
- e) ish kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar qiymati.

9. Real ish haqi darajasidagi o'zgarishlariga:

- a) tovar va xizmatlar bahosi;
- b) foyda normasi;
- d) soliqqa tortish stavkalari;
- e) ishchi tomonidan bir oy mobaynida ishlagan ish soatlari miqdori ta'sir qiladi.

10. Mehnatga talab nimaga bog'liq bo'ladi?

- a) pirovard mahsulotga bo'lgan talabga;
- b) mehnatning chegaraviy mahsulotining boshqa resurslar chegaraviy mahsulotiga nisbatiga;
- d) ishlab chiqarish texnologiyasiga;
- e) nominal ish haqining inflyatsiya natijasida o'zgarishiga.

11. Ish kuchi taklifining o'sishi ish haqi miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- a) uni oshiradi;
- b) uni kamaytiradi;
- d) hech qanday ta'siri yo'q;
- e) inflyatsiya darajasiga mos ravishda o'zgaradi.

12. Jamoa shartnomasining maqsadi bu-

- a) ish kuchi taklifini qisqartiradi;

- b) bandlikni o‘zaro mos keluvchi sharoitlarini ishlab chiqaradi;
- d) monopol imkoniyatlarga ega bo‘lgan tadbirkorlarga qarshilik ko‘rsatish uchun;
- e) turmush darajasidan past bo‘lgan ish haqini o‘rnatalishi.

8– mavzu. Agrar munosabatlар va agrobiznes

Bozor munosabatlari iqtisodiyotning hamma sohalarini, jumladan qishloq xo‘jaligini ham o‘z ichiga oladi. Yer bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlар agrar munosabatlар deyiladi. Agrar sohada jamiyat uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlari uchun xomashyo ishlab chiqariladi. Bizning respublikamizda agrar soha ishlab chiqarish miqdori, aholining bandligi, eksport quvvati bo‘yicha iqtisodiyotning yirik sohasi hisoblanadi. Shuning uchun aholining turmush darajasi, uning farovonligi, iqtisodiyotning boshqa sohalarining rivojlanishi aynan agrar sohaning holatiga va uning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «Respublika sanoatining ko‘pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to‘qimachilik, kimyo sanoatini, qishloq xo‘jaligi mashinasozligini va boshqalarni rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o‘tish davridagi iqtisodiy ahvoli bevosita qishloq xo‘jaligiga bog‘liqidir». Shuning uchun agrar siyosat davlatimiz iqtisodiy siyosatining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida yerning mulk shaklida namoyon bo‘lishi yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlар agrar munosabatlар bo‘lib, ular uch xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- yerga egalik qilish;
- yerdan foydalanish;
- tasarruf qilish.

Mavzuning maqsadi:

1. Agrar munosabatlар va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmunini yoritib berish. Yerga mulkchilik, uning turlari va o‘ziga xos mohiyatini talabalarga yetkazish.

2. Yerning mahsus resurs ekanligi va unga xos iqtisodiy aloqalar aniqlash. Shuningdek yer agrar munosabatlarda asosiy ishlab chiqarish omili ekanligi yoritiladi. "Yerga egalik" va "yerdan foydalanish huquqi" kabi tushunchalarni ochib berish.

3. Yer rentasi tushunchasini yoritish. Renta turlari bo‘lmish differential renta I, differential renta II, absolyut renta va monopol renta kabilarning iqtisodiy mazmunini ochib berish. Yerning bahosini to‘g‘ri hisoblash.

4. Ijara haqi, uning rentadan farqini aniqlash. O‘zbekistonda agrar munosabatlar, ularning shakllari, agrobiznes kabilarni aniq misollar bilan yoritish.

Atama va tushunchalar:

Agrar munosabatlar. Yerga egalik qilish, yerdan foydalanish huquqi, renta munosabatlari. Yer rentasi: differential renta I va II, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoatda renta. Yerning bahosi. Ijara haqi. Ijara munosabatlari. Agrobiznes. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi. Bozor infratuzilmasi. Fermer xo‘jaliklari. Dehqon xo‘jaliklari. Agrofirmalar. Agrosanoat birlashmalar. Argosanoat kombinatlari.

Savollar:

1. Bozor munosabatlari agrar tizimga nimalarni kiritadi?
2. Yerning boshqa resurslardan qanday farqi bor?
3. Agrar munosabatlar va uning bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitidagi xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Nima uchun yerga bo‘lgan mulkchilik shakli agrar munosabatlarning asosini tashkil etadi?
5. Renta munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
6. Absolyut renta differential rentadan nima bilan farqlanadi?
7. Differential renta hosil qilish mexanizmi qanday?
8. Tuproq hosildorligining me’yori nimadan iborat?
9. Yer narxi nima va u qanday hisoblanadi?
10. “Ijara haqi” va “yer rentasi” ning farqlarini tushuntirib bering.
11. Agrobiznes deganda nimani tushunasiz?
12. O‘zbekistonda agrar sohani isloh qilish va uning xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Agrar sohani isloh qilishda fermer xo‘jaliklarining roli qanday?
14. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarining o‘rni qanday bo‘ladi?

Mashqlar:

1. Yer rentasi 15 foiz ortdi, bankka to‘laydigan foiz 1,5 marta oshdi, yillik inflyatsiya 15 foizni tashkil etdi. Shunday sharoitda yerning narxi qanday o‘zgarishini hisoblab ko‘ring.

2. Quyida keltirilgan jadvalga qarab differensial renta II hisoblang (7jadval)

7-jadval

Yer sifati	Yer miq-dori (ga)	Yalpi hosil (s.)	Jami xarajat lar ming (so‘m)	O‘rtacha xarajat-lar (1s). xisobi-dan, (ming so‘m)	1s mah sulot ning bozor narxi (ming so‘m)	1s uchun hisob. Dif. Renta (ming sum)	1ga yerga hisob. Dif. Renta (ming so‘m).
O‘ta yomon	1,0	15	120				
Yo-mon	1,0	18	120				
O‘rta-chacha	1,0	20	120				
Yaxshi	1,0	22	120				
O‘ta yaxshi	1,0	25	120				

Testlar:

1. Differensial renta qaysi sohalarda hosil bo‘ladi?

- a) qishloq xo‘jaligida;
- b) qurilishda;
- d) undirma sanoatda;
- e) qazib oluvchi sanoatda.

2. Quyidagi omillardan qaysi biri yer bahosining o‘sishiga olib keladi?

- a) renta miqdorini o‘sishi;
- b) ssuda foiz normasining pasayishi;
- d) noqishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yerga bo‘lgan talabning o‘sishi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

3. Yer rentasi hajmini aniqlovchi omil bu-

- a) yerga bo‘lgan talab;
- b) yerning taklifi;
- d) yaratilgan mahsulot miqdori;
- e) malakali ishchi.

4. Yerning bahosi nimaga bog‘liq?

- a) yer uchastkasi kattaligiga;
- b) yer rentasiga;
- d) yer uchastkalaridan foydalanish maqsadiga;
- e) yerning geografik joylashuviga.

5. O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligidagi islohotlar nimani nazarda tutadi?

- a) qishloq xo‘jaligida davlat sektorini ko‘paytirish;
- b) barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga qat’iy baholarni o‘rnativish;
- d) fermer xo‘jaliklarini tashkil etish;
- e) qishloq xo‘jaligida ishlovchilar sonini kamaytirish.

6. Yerning bahosi:

- a) mutlaq egiluvchan;
- b) 1 ga teng;
- d) mutlaq noelastik;
- e) noelastik.

7. Quyidagilardan qaysi biri yerga bo‘lgan mulkchilik huquqini to‘liq ta’minlaydi?

- a) yerga egalik qilish;
- b) yerdan foydalanish;
- d) ishlab chiqarish natijalarini tasarruf etish;
- e) o‘z mulkidagi yerni tasarruf etish.

8. Yer rentasi darajasini belgilab beruvchi asosiy omilni aniqlang:

- a) yerga bo‘lgan talab;
- b) shu yerda yetishtiriladigan mahsulot bahosi;
- d) yerning unumдорligi;
- e) qo‘llanialdigan boshqa resurslar bahosi;
- f) yuqoridagilarning barchasi.

9. Yerni iqtisodiy resurslarning boshqa turlari (kapital, ishchi kuchi, tadbirkorlik layoqati)dan farqlovchi asosiy omil nima?

- a) miqdorning nisbatan cheklanganligi;
- b) tabiat mahsuli ekanligi;
- d) miqdor doimiyligi;

- e) bahoga ega emasligi;
- f) yuqoridagilarning barchasi.

10. Agrar munosabatlarning xususiyatlarni nimalar belgilab beradi?

- a) yerning asosiy mehnat vositasi va predmeti hisoblanishi;
- b) iqtisodiy qonunlarning tabiat qonunlari bilan bog‘lanib ketishi;
- c) ishlab chiqarish vaqtini bilan ish davri o‘rtasidagi farqning nisbati kattaligi;
- d) ishlab chiqarishning mavsumiy xarakterda bo‘lishi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

11. Yer uchastkalarining tabiiy unumdarligi va joylashgan joyidagi farqlaridan kelib chiqadigan renta qanday nom bilan ataladi?

- a) absolyut renta;
- b) differensial I;
- c) differensial II;
- d) monopol renta;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

12. Quyidagi yer uchastkalarining qaysi birida differensial renta hosil bo‘lmaydi.

- a) unumdarligi juda yuqori;
- b) unumdarligi yuqori;
- c) unumdarligi o‘rtacha;
- d) unumdarligi past;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

13. Yerdan intensiv foydalanish, ya’ni ularning iqtisodiy unumdarligini oshirish natijasida vujudga keladigan renta qanday nom bilan ataladi?

- a) absolyut renta;
- b) differensial I;
- c) differensial II;
- d) monopol renta;
- e) to‘g‘ri javob yo‘q.

14. Yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik, ularning unumdarligidagi farqlardan qat’iy nazar yer egalariga qanday rentani olish imkonini beradi?

- a) absolyut renta;
- b) differensial I;
- c) differensial II;

- e) monopol renta;
- f) yuqoridagilarning barchasi.

15. Yerning tabiiy sharoitida noyob qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish imkonini berganda renta qanday renta hisoblanadi?

- a) absolyut renta;
- b) differensial I;
- d) differensial II;
- e) monopol renta;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

16. Differensial renta qaysi sohalarda hosil bo‘ladi?

- a) qishloq xo‘jaligida;
- b) qurilishda;
- d) undirma sanoatda;
- e) qazib oluvchi sanoatda;
- f) yuqoridagilarning barchasi.

17. Quyidagi omillardan qaysi biri yer bahosining o‘sib ketishiga olib keladi?

- a) renta miqdorini o‘sishi;
- b) ssuda foiz normasining pasayishi;
- d) inflyatsiyani kuchayishi;
- e) noqishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yerga bo‘lgan talabning o‘sishi;
- f) yuqoridagilarning barchasi.

18. Agrosanoat integratsiyasi nima?

- a) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, uni qayta ishslash va iste’molchiga yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy tarmoqlar majmuasi;
- b) ishlab chiqarishning to‘planishi va kapitalning markazlashuvi;
- d) ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- e) qishloq xo‘jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste’molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning kuchayishi hamda ularning uzviy birikib borish jarayoni;
- f) to‘g‘ri javob yo‘q.

19. Quyidagilarning qaysi biri agrobiznesning asosiy shakli hisoblanadi?

- a) fermer xo‘jaligi;
- b) konserva zavodi;
- d) agrofirma;
- e) agrosanoat kombinatlari;

f) yuqoridagilarning barchasi.

20. Agrar munosabatlar bu-...

- a) yer bilan bog‘liq har qanday munosabatlardir;
- b) qishloq xo‘jalaigida band bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar;
- d) yerni ijaraga beruvchi egalari va ijaraga oluvchi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar;
- e) dehqonlar bilan ular tomonidan yaratilgan mahsulotlarni iste’mol qiluvchilar o‘rtasidagi munosabatlar.

21. O‘zbekistonda yangicha agrar munosabatlarni shakllantirishda nimani nazarda tutish lozim?

- a) qishloq xo‘jaligida davlat sektorini kengaytirish;
- b) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yagona belgilangan narxlarni joriy etish;
- d) dexxon fermer xo‘jaliklarini tashkil etish;
- e) qishloq aholisini keng miqyosda ish bilan ta’minlash.

22. Ijara haqi nima?

- a) yerning bahosi;
- b) yer, undagi qurilmalar va mevali daraxtlardan vaqtincha foydalanish uchun yer egalarga to‘lanadigan haq;
- d) yer uchastkalaridan vaqtincha foydalanganlik uchun yer egalarga to‘lanadigan haq;
- e) yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish.

23. Renta bu-...

- a) yerdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq;
- b) yerdan olingan foydani taqsimlash usuli;
- d) yer egasini mahsulot ishlab chiqarish orqali olgan foya;
- e) yerning bahosi.

24. Agrosanoat majmuasi nima?

- a) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va ularni qayta ishlovchi korxonalar yig‘inisi;
- b) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va ularni iste’molchilarga yetkazib beruvchi korxonalar yig‘indisi;
- d) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni saqlash, qayta ishslash va iste’molchiga yetkazib berish bilan band bo‘lgan va shuningdek qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlaydigan korxonalar, ularda band bo‘lganlar uchun ishlab chiqarish va yashash uchun sharoitlar yaratib beruvchi infratuzilma yig‘indisi;

e) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol-chilarga yetkazib berish bilan band bo‘lgan korxonalar va ularda band bo‘lganlar uchun ishlab chiqarish va yashash uchun zarur sharoitlarni yaratib beruvchi infratuzilma yig‘indisi.

25. Agrobiznes nima?

- a) qishloq xo‘jaligida yangi qonun-qoidalarni joriy etish;
- b) qishloq xo‘jaligi sohasi bilan band bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati;
- d) yer bilan bog‘liq ishlab chiqarish munosabatlari;
- e) agrar sohaga moliyaviy munosabatlarni joriy etish.

26. Agrobiznesning yiriklashtirilgan turi bu-...

- a) tuman va xo‘jalik miqyosidagi boshqarmalar;
- b) agrofirmalar;
- d) agrosanoat majmuasi;
- e) agrar sohada band bo‘lgan yirik tadbirkor korxona va xo‘jaliklar.

III bo‘lim. Makroiqtisodiyot

9 – mavzu. Milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy o‘lchamlari. Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari

Milliy iqtisodiyot biron bir mamlakatning yaxlit bir holda olingan iqtisodiyotidir. Ammo mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti ayrim olingan korxonalar, bo‘g‘inlarining rivojlanishi, taraqqiyoti natijasi hisoblanadi. Bunday natija ayrim olingan korxonalar, tarmoqlar, bo‘g‘inlarning alohida – alohida ishlashi natijasida sodir bo‘lmaydi, hamda bunday ishslash mumkin ham emas.

Har bir mamlakat shu mamlakatda yashayotgan biron-bir hukmron millat vakilining qiziqishini uyg‘unlashtirganligi sababli mamlakat iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot deyiladi. Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiyot hal qiluvchidir. Makroiqtisodiyot qay darajada ekanligi uning ayrim ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi va uning o‘ziga xos tahlili ham mavjud. J.Keyns tomonidan yaratilgan nazariya milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil qilish ta’limotidir. Bu ta’limotga ko‘ra, J.Keynsning 1920 yillarda chiqqan «Bandlik, foiz va pul haqidagi umumiy nazariya» nomli kitobi turtki bo‘ldi. Chet ellarda J.Keynsni iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada tahlil qilishning asoschisi deb hisoblaydilar. Makroiqtisodiyot deganda, jami ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar tushuniladi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar statistika ma’lumotlari asosida tarkib topadi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar «milliy hisoblar tizimi» deb ham ataladi.

Hozirgi davrda davlatning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish, iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalilanadi: yalpi milliy mahsulot (YaMM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), shaxsiy daromad (ShD), real daromad (RD) va hakozolar.

Mavzuning maqsadi:

1. Milliy hisob tizimining milliy iqtisodiyotdagi roli aniqlanadi.
2. Milliy hisob tizimidagi asosiy ko‘rsatkichlar tavsifi beriladi.

3. Pirovard va oraliq mahsulot o‘rtasidagi farq o‘rganiladi. Qo‘shilgan qiymat va qayta hisoblashlar tahlil etiladi.

4. Yalpi milliy mahsulotni daromadlar va xarajatlar yordamida hisoblashga e’tibor beriladi.

5. Nominal YaMM bilan real YaMM o‘rtasidagi farq, baholarning umumiylarini o‘lchash usullari tushuntirib beriladi.

Atama va tushunchalar:

Milliy iqtisodiyot. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Milliy hisob tizimi. Yalpi milliy mahsulot. YaMMning xarajatlar oqimi, daromadlar oqimi, ularni hisoblash usullari. Yalpi ichki mahsulot. Milliy daromad. Iste’mol qilinadigan va ishlab chiqarilgan MD. Real YaMM. Nominal YaMM. YaMM deflyatori. Iste’mol tovarlari indeksi. Sof iqtisodiy farovonlik. Daromadlarning iste’mol va jamg‘arishga sarflanishi. Investitsiya va uning turlari.

Savollar:

1. Milliy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Qaysi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni bilasiz?
3. Yalpi milliy mahsulot nima va u qanday aniqlanadi?
4. Yalpi milliy mahsulotni xarajatlar oqimi bilan hisoblash qanday aniqlanadi?
5. Yalpi milliy mahsulotni daromadlar oqimi bilan hisoblash qanday aniqlanadi?
6. Sof milliy mahsulot nima va u qanday aniqlanadi?
7. Milliy daromad nima?
8. Nima uchun YaMMni hisoblashda faqat pirovard mahsulotlarning qiymati e’tiborga olinadi?
9. SMM va MD bir-biridan nima bilan farqlanadi?
10. Investitsiya nima va uning qanday turlari mavjud?

Topshiriqlar:

1. Ochiq iqtisodiyotda yalpi daromad ikkita ko‘rsatkich yordamida o‘lchanadi: YaMM, YaIM. Uning farqini hisobga olgan holda O‘zbekistonda yaratilayotgan YaMM va YaIMning farqini aniqlang: Lola

Moskvada “Turkistonda” konsert beradi. “Bolalar” guruhi Buxoroda, “Setora” guruhi Dushanbada konsert beradi. “UzDEU” avto Moskvadagi avtosalondan foyda oladi. “Toyota” Toshkentdagi avtosalondan foyda oladi.

2. Quyidagilarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang:

- uy xo‘jaliklarining yangi uy qurilishiga ketadigan xarajatlari – iste’molga ketadigan xarajatlariga kiradi;
- qo‘silgan qiymat tarkibiga ish haqi kiradi, lekin foydaning hajmiga kirmaydi;
- Nominal YaIM va Real YaIMning hajmi faqat pul ko‘rinishida ifodalanadi;
- qo‘silgan qiymat hisoblanganda firmaning sotishdan kelib tushgan tushumlaridan material xarid qilishga ketgan xarajatlarni olib tashlash, ishchilarga to‘langan ish haqini oshirmsaslik kerak;
- transfert to‘lovlarini oluvchilar davlatga nimadir berishlari kerak;
- kapital zaxiralari yalpi investitsiya xarajatlari oshishi bilan birga oshib boradi;
- agarda «Ford» kompaniyasi avtomobilarni sotishni ko‘paytirsa, uni Amerikada yoki chet ellarda sotilishidan qat’i nazar YaMM miqdori oshadi;
- agar firma eski yozuv mashinkasini yangisi bilan almashtirsa YaMM miqdori o‘zgarmaydi, chunki umumiylar mashinkalar soni o‘zgarmagan;
- agar «Jeneral Motorz» kompaniyasi ishlab chiqargan avtomobilarga nisbatan ko‘proq avtomobil sotsa, YaMM miqdori hamma avtomillar sotilganiga nisbatan kamroq ko‘payadi;
- IBI (iste’mol baholari indeksi) iste’molchilar savatchasidagi tovar miqdori asosida hisoblanadi;
- qo‘silgan qiymat miqdori va pirovard mahsulot qiymatining miqdori bir-biriga teng.

3. Quyidagilar YaMMni daromadlar va xarajatlar yordamida hisoblanganda qaysi birining tarkibiga kiritiladi?

- “IBM” kompaniyasi obligatsiyalarining foizlari;
- sobiq fabrika ishchisining nafaqasi;
- o‘z uyini ta’mirlaydigan bo‘yoqchining ishi;
- tish shifokorining daromadi;
- talabaning har oyda uyidan oladigan pul mablag‘lari;
- Sherzodning 2007 yilda chiqqan «Matis» avtomashinasini Rustamga sotgandan olgan puli;

- kompaniya zaxirasining 2 mlrd. dollarga ko‘payishi;
- oqsochning ish haqi;
- yangi matabning qurilishi;
- renta;
- joriy yilda ishlab chiqarilgan «Matis» rusumli mashinaning sotilishidan olingan daromad;
- “O‘zbektelekom” kompaniyasi obligatsiyalarining xarid qilinishi.

4. Aytaylik mamlakatda 2007 yillarda yalpi milliy mahsulot 705 mlrd. dollardan 2015 yillarga kelib 4015 mlrd dollarga yetgan bo‘lsa, 2014 yilda narx indeksi 2007 yilga nisbatan 3,2 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2007 yilda ishlovchilar son 74,5 mln. kishi, 2015 yilda 115,5 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, ijtimoiy mehnat unumдорligi necha marta o‘sadi?

5. Quyidagi jadvalga qarang va quyidagi savollarga javob bering (8-jadval)

- ishlab chiqarishning har bir bosqichidagi qo‘shilgan qiymatni aniqlash;
- qayta hisoblash nima?
- oraliq va pirovard mahsulot nima?
- umumiyligi qo‘shilgan qiymatni solishtirishdan maqsad nima?

6. Ishlab chiqarishni tahlil qilamiz (9-jadval):

8-jadval			
№	Paxta bo‘yicha ishlab chiqarish davri	Umumiyligi qiymat (mln. so‘m).	Qo‘shilgan qiymat (mln. so‘m).
1	2	3	4
1.	«Turon firmasi» paxta yetishtiradi	50	
2.	TP-10 paxtani qaytadan ishlab chiqarishga topshiradi	55	
3.	Paxtani qayta ishlovchi kombinat tola ishlab chiqaradi	70	
4.	ATP -3 to‘qimachilik kombinatiga tolani topshiradi	75	
5.	To‘qimachilik kombinati mato to‘qiydi	120	
6.	ATP matoni savdo shaxobchalariga tarqatadi	125	
7.	Savdo shaxobchalari matoni iste’molchilarga sotadi	140	

9-jadval

	2010 yil	2015 yil
1 ta traktorning bahosi	50 mln.so‘m	60 mln.so‘m
11 sutning bahosi	1000 so‘m	1500 so‘m
Ishlab chiqarilgan traktorlar soni	100 ta	120 ta
Sutning umumiy miqdori	500000 1	400000 1

7. Milliy daromad komponentlarini aniqlang va daromadlar yordamida hisoblang (10-jadval)

10-jadval

№	Hisob varaqasi	Mlrd. so‘m..
1.	Kreditdagi olinadigan foizning so‘mdagi ifodasi	12
2.	Yalpi xususiy investitsiyalar	55
3.	Ish haqi va to‘lovlar	215
4.	Korporatsiyalar foydasi	113
5.	Egri soliqlar	22
6.	Renta to‘lovlar	20
7.	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	50
8.	Sof eksport	9
9.	Davlatning xaridlari (tovarlar va xizmatlar)	90
10.	Mulkdan olinadigan daromad	21
11.	Transfert to‘lovlar	23
12.	Iste’molchilarining xarajatlari	260
13.	Ichki sof investitsiyalar	44

8. YaMM 125 mlrd. dollarni, shuningdek iste’mol uchun 85 mlrd. dollar ajratilgan, amortizatsiya uchun 25 mlrd. dollar ketadi. 1 dollar sof investitsiya 0,65

- a) 2005 yilni joriy yil deb hisoblab, har bir yildagi nominal va real YaMMni YaMM deflyatorini IBI hisoblang.
- b) 2005 yildan 2015 yilgacha baholar qanchaga oshganligini hisoblang.

Testlar:

1. Milliy hisob tizimidagi asosiy ko‘rsatkich:

- a) YaMM;
- b) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi;
- d) Milliy daromad;

e) aholi daromadlarining oshishi.

2. Transfert to‘lovlar:

- a) pochta hizmatiga to‘lovlar;
- b) kreditga to‘lanadigan foiz;
- d) kommunal to‘lovlar;
- e) yoshiga qarab to‘lanadigan nafaqa.

3. Nominal YaMM:

- a) YaMMga inflyatsiya darajasining ta’sirini ifodalaydigan ko‘rsatkich;
- b) YaMMning joriy yil baholaridagi qiymati;
- d) YaMMga deflyatsiyaning ta’sirini ifodalaydigan ko‘rsatkich;
- e) YaMMning o‘tgan yildagi baholardagi qiymati.

4. YaMMni daromadlar oqimi yordamida hisoblaganda uning tarkibiga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi:

- a) ish haqi;
- b) sof eksport;
- d) biznesdan olinadigan egri soliqlar;
- e) renta.

5. Qayta hisoblash nima?

- a) biznesdan olinadigan egri soliqlarni qo‘sish jara-yonidagi holat;
- b) qayta hisoblash milliy darajasini ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va foyda olishni ifodalaydi;
- d) zaxiradagi mahsulotlarning jami;
- e) bir qancha tovarlar bir qancha marta hisoblanganda bo‘ladigan holat.

6. Milliy daromad qanday aniqlanadi?

- a) renta + ish haqi + kapitaldan olinadigan foiz + foyda;
- b) YaMM – amortizatsiya;
- d) shaxsiy daromad+shaxsiy soliq va transfert to‘lovlar.
- e) ish haqi, foiz va kapital shaklidagi daromad, renta - shaxsdan olinadigan soliq.

7. Baholar indeksidan qanday holda foydalilanadi?

- a) ikkita davlatdagi baholardagi farqni hisoblaganda;
- b) ulgurji va chakana baholardagi farqni hisoblashda;
- d) bazis va joriy yildagi baholardagi farqni hisoblaganda;
- e) ishlab chiqarishni joriy va bazis yildagi tarkibini solishtirilganda.

8. Nominal YaMM – bu?

- a) YaMMga inflyatsiyaning ta’sirini ifodalaydigan ko‘rsatkich;

- b) YaMMning joriy yil baholaridagi qiymati;
- d) YaMMda deflyatsiyaning ta'sirini hisobga oladigan ko'rsatkich;
- e) YaMMni o'tgan yilgi baholardagi qiymati.

9. Shaxsiy daromad – bu?

- a) ish haqi, foiz, renta, foydaning yig'indisi;
- b) shaxsiy jamg'arma;
- d) uy xo'jaliklarining joriy yildagi daromadlari;
- e) soliqlar to'langandan keyingi shaxsning ixtiyorida qolgan daromad.

10. Yalpi talab hajmiga narxdan tashqari qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- a) iste'molchi sarflaridagi o'zgarishlar;
- b) investitsion sarflarning o'zgarishlari;
- d) davlat sarflarining o'zgarishalri;
- e) sofabSPORTdagI o'zgarishlar.

11. Aholi iste'mol va pul jamg'armalari o'rtasidagi nisbatga qanday omil ta'sir ko'rsatadi?

- a) aholi jamg'argan boylik darajasi;
- b) narxlar darajasi;
- d) narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishining kutilishi;
- e) iste'molchi qarzlari va soliq stavkalari darajasi.

12. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichi?

- a) YaMM mutlaq hajmini o'sishi;
- b) YaMMning aholi jon boshiga o'sishi;
- d) milliy daromad hajmini o'sishi;
- e) milliy daromadning aholi jon boshiga o'sishi.

10 - mavzu. Yalpi talab va yalpi taklif. Iste'mol, jamg'arma va investisiyalar. Miliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati

Mavzuning maqsadi:

1. Makroiqtisodiy muvozanat tushunchasini aniqlash;
2. Makroiqtisodiy muvozanat haqidagi klassik va keys nazariyalari ning tahlil etish va ular o'rtasidagi farqni ko'rsatish;
3. Muvozanatli holdagi milliy daromad hajmini aniq-lashda multiplikator samarasining ahamiyatini ko'rsatish;

4. Yalpi talab va yalpi taklif mazmunini aniqlash va uning o'sish sur'atlariga baholar bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmasagan omillar ta'sirini ko'rsatib berish;

5. Milliy ishlab chiqarishning muvozanatli holatidagi modelini grafikda ifodalashni ko'rib chiqish.

Asosiy atama va tushunchalar:

Makroiqtisodiy muvozanat. Makroiqtisodiy muvozanat haqida klas-sik qarashlar. Sey qonuni. Makroiqtisodiy muvozanat haqidagi keynscha qarashlar. Iste'mol, jamg'arish. Iste'molga bo'lgan o'rtacha va chegaraviy moyillik. Jamg'arishga bo'lgan o'rtacha va chegaraviy moyillik. "Milliy daromad - yalpi xarajat" modeli, "Investitsiya –jamg'arma" modeli. Multiplikator. Inflyatsiyada, deflyatorda uzilish. Yalpi taklif, yalpi talab. "Yalpi talab - yalpi taklif" modeli.

Savollar:

1. Makroiqtisodiy muvozanat deganda nimani tushunasiz?
2. Sey qonuni nimani ifodalaydi?
3. Klassik model nimani ifodalaydi?
4. Keynscha model nimani ifodalaydi?
5. "Yalpi talab - yalpi taklif" modeli nimani ifodalaydi?
6. Iste'molga bo'lgan o'rtacha va chegaraviy moyillik deganda nimani tushinasiz?
7. Jamg'arishga bo'lgan o'rtacha va chegaraviy moyillik deganda nimani tushunasiz?

Topshiriqlar:

1. "Milliy mahsulotning muvozanatli hajmi" nimani ifodalaydi. Iqtisodiyot bunda qanday holatda bo'ladi?
2. Quyidagilarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang:
 - yalpi talab egri chizig'i salbiy qiyalikka ega;
 - Keyns modelida ishsizlik hisobga olinmaydi;
 - yalpi va individual talab egri chiziqlarining siljish sababi bir xil;
 - multiplikator samarasini to'liq bandlilik bo'lmasagan amal qiladi;

- YaMMning muvozanatli darajasi haqiqiy jamg‘arish va investitsiya darajasi rejadagiga mos kelganda erishiladi;
- Keyns modeli Sey modeliga asoslangan;
- kutilgan inflyatsiya talab egri chizig‘ini doimo o‘ng tarafga suradi;
- Keyns nazariyasiga binoan ishlab chiqarishning muvozanatli holati investitsiya jamg‘arishga mos kelgan sharoitda amalga oshadi;
- investitsiya va jamg‘arish doimo bir biriga teng bo‘ladi;
- yalpi taklifning o‘sishi baholarning va real YaMM hajmining pasayishiga sabab bo‘ladi.

3. Yalpi talab va yalpi taklifga quyidagi omillar qanday ta’sir etadi.
Har bir javobni grafikda izohlang:

- iste’molchining turg‘unlik holatdagi qo‘rquvlari;
- ta’limga ajratilgan davlat xarajatlarining qisqarishi;
- baholar darajasi keskin oshib ketishining kutilishi;
- daromad solig‘i miqdorining kamayishi;
- nominal ish haqining oshishi;
- ta’limga ajratiladigan federal xarajatlarning oshishi;
- baholar darajasini keskin pasayib kelishining kutilishi;
- neft bahosining keskin oshib ketishi;
- neft bahosining keskin tushib ketishi;
- daromad solig‘i miqdorining oshishi;
- kasaba uyushmalariga a’zo bo‘lgan ishchilar sonining kamayishi.

4. Quyidagi jadvalni berilgan ma’lumotlar asosida to‘ldiring. Kishilarning iste’mol xarajatlari = 200 mlrd.s.; ixtiyoriy daromad = 0,15 mlrd.s.; investitsiya = 200 mlrd.s.; eksport = 125 mlrd.s.; import = 25 mlrd.s.; soliqlar = 200 mlrd.s.

11-jadval

Milliy daromad mlrd. so‘m	Soliq lar so‘m	Ixtiyoridagi daromad so‘m	Iste’- mol so‘m	Investit siya so‘m	Davlat xara- jatlari so‘m	Sof eks- port so‘m	Yalpi talab so‘m
1800							
2000							
2200							
2400							
2600							

a) daromadlarning qanday darajasida iqtisodiyot makro-iqtisodiy muvozanatda bo‘ladi?

b) investitsiya multiplikatori qanchaga teng?

d) daromadlarning qanday darajasida (agarda investitsiya miqdori 150 mld. so‘mga tushsa) iqtisodiyot muvozanatlari holda bo‘ladi?

5. Davlat iqtisodiyotga 100 mln. so‘m miqdorida investitsiya ajratishga qaror qildi. Iste’molga bo‘lgan moyillik chegarasi 75%. Daromadlar qancha oshadi?

6. Yalpi xarajatlarning iste’molga sarflanishi quyidagi formulada aks etgan. $S=100+0,8V$. Vning muvozanatlari hajmining miqdori qanday bo‘ladi? Agarda Vning miqdori to‘la bandlilik sharoitida 600 mld. so‘mga teng bo‘lsa, bunda qanday holat kuzatiladi? (inflyatsiyali va deflyatsiyali uzilish).

7. ITTning yutuqlarini umumiy muvozanatlikga erishish uchun qo‘llash mumkinmi? Bu bilan kim xususiy shug‘ullanishi kerak: davlatmi yoki xususiy sektor?

8. Quyidagilarning qaysi birini O‘zbekiston Respublikasi ochiq iqtisodiyotining ijobiy yoki salbiy tomoniga kiritish mumkin?

- aholi daromadlarining bir qismini jamg‘arishga yo‘naltirish;
- tadbirkorning investitsiyaga bo‘lgan talabini oshirish;
- uy xo‘jaliklari tomonidan soliqlarning to‘lanishi;
- davlat tomonidan texnikalarning xarid qilinishi;
- o‘zbeklar tomonidan xarid qilinayotgan Amerika tovuqlariga haq to‘lanishi;
- chet elliklarning eksport qilinayotgan paxtaga haq to‘lashi.

Testlar:

1. Agarda baholar darajasi ko‘tarilsa, ishlab chiqarish pasaysa, bunda:

- a) yalpi talab egri chizig‘i o‘ngga suriladi;
- b) yalpi talab egri chizig‘i chapga suriladi;
- d) yalpi taklif egri chizig‘i o‘ngga suriladi;
- e) yalpi taklif egri chizig‘i chapga suriladi.

2. Yalpi taklif oshganda:

- a) baholar darajasi va real YaMM hajmi pasayadi;
- b) baholar darajasining o‘sishi pasayadi va real YaMM miqdori oshadi.

- d) baholar darajasi va YaMMning hajmi oshadi;
- e) baholar darajasi pasayadi va real YaMM hajmi pasayadi.

3. Keynsning muvozanat modeliga binoan, iqtisodiyot muvozanatli bo‘ladi:

- a) iste’mol xarajatlari - jamg‘arish = investitsiya bo‘lganda;
- b) ma’lum davr mobaynida pul taklifi sur’ati pasaymaganda;
- d) davlat byudjeti balans holda bo‘lganda;
- e) yalpi talab yalpi taklifga teng bo‘lganda.

4. Yalpi taklifda oraliq qism:

- a) ijobjiy qiyalikka ega bo‘ladi;
- b) salbiy qiyalikka ega bo‘ladi;
- d) vertikal chiziqli ko‘rinishda bo‘ladi;
- e) gorizontal chiziqli ko‘rinishda bo‘ladi.

5. Iqtisodiyotning holati Keyns egri chizig‘ining yalpi taklifi bo‘lagiga mos tushganda yalpi taklifning o‘sishi quyidagilarga olib keladi:

- a) baholarning oshishiga, real YaMM hajmining o‘zgarmasligiga;
- b) baholar darajasi o‘zgarmaganda real YaMM oshishiga;
- d) baholar darajasi va real YaMMning oshishiga;
- e) baholar darajasining o‘sishiga va real YaMM hajmining qisqarishiga.

6. Klassik maktab iqtisodchilari ta’kidlaydi:

- a) iqtisodiyot moliyaviy siyosat yordamida tartibga solinadi;
- b) baholar va ish haqi darajasi egiluvchan bo‘lganda iqtisodiy muvozanatda bo‘ladi;
- d) baholar va ish haqi darajasi o‘zgarmaganda iqtisodiyot muvozanatda bo‘ladi;
- e) iqtisodiy o‘sishning harakatlantiruvchi kuchi (motori) - taklif.

7. Yalpi talab egri chizig‘ining o‘ng tomonga surilishi:

- a) baholar darajasi va yalpi milliy mahsulot real hajmining bir vaqtda oshganligini;
- b) real YaMM hajmining oshmaganligida va baholar darajasining oshishini;
- d) real YaMM hajmining baholar ko‘tarilmaganda oshishini;
- e) baholar darajasining va real YaMM hajmining bir vaqtda ko‘tarilishini anglatmaydi.

8. Iste’molga moyillik chegarasi-bu:

- a) yalpi iste’molning yalpi daromadga bo‘lgan nisbati;

b) daromadlarning o‘zgarishi natijasida iste’molga sarflanadigan xarajatlar tarkibining o‘zgarishi;

d) iste’moldagi xarajatlarni daromadlarga nisbatan egri chiziqdagi ko‘rinishi;

e) iste’moldagi xarajatlarni kishilarning ixtiyoridagi daromadlarga nisbatini oshishi;

9. Agarda iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilin-gan sof milliy mahsulot balans holda bo‘lsa, unda:

a) yalpi daromad yalpi taklifga teng bo‘ladi;

b) iste’mol xarajatlari – jamg‘arma = investitsiyaga teng bo‘ladi;

d) iqtisodiyot to‘la bandlik va barqaror baholar holatida bo‘ladi;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

10. Yalpi talab egri chizig‘i o‘ng va chap tarafga siljishi bir xil bo‘lganda:

a) bu siljish yalpi taklif egri chizig‘ining gorizontal bo‘lagida amalga oshadi;

b) bu siljish yalpi taklif egri chizig‘ining vertikal bo‘lagida amalga oshadi;

d) bu siljish yalpi taklif egri chizig‘ining oraliq bo‘lagida amalga oshadi;

e) iqtisodiyot turg‘unlik holatida bo‘ladi.

11 – Mavzu. Iqtisodiy o‘sish va milliy boylik.

Iqtisodiyotning ciklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik.

Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Iqtisodiy o‘sish jamiyat hayotining asosini tashkil etadi. Iqtisodiy o‘sish natijasida aholi turmush darajasi ko‘tariladi. Iqtisodiy o‘sish doimo ijtimoiy taraqqiyotga olib kelmaydi. Iqtisodiy o‘sish natijalari qurollarga sarflanganda, boshqarish xarajatlari yuqori bo‘lganda aholi turmush darajasi pasayib ketadi. Iqtisodiy o‘sishning natijalari nisbiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy o‘sishning natijasi ijtimoiy taraqqiyotga olib kelsa, bu uning ijobiy tomoni hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish natijasida atrof muhitning ifloslanishi, boylik va kambag‘allik o‘rtasidagi keskin farq, uning salbiy oqibatda ekanligini ifodalaydi. Iqtisodiy o‘sishning omillari har bir davlatda har xil ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o‘sish milliy boylikning ko‘payish manbai hisoblanadi. Milliy boylik ham o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishga ta’sir

qiladi. Iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish birlamchi bo‘lib, ustuvorlikka egadir. Ishlab chiqarish o‘ziga xos ijtimoiy shakllarga ega bo‘lman asosiy va umumiy belgilar yig‘indisidan iborat. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining taraqqiyoti insoniyat madaniyatining rivojlanishiga moddiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish bir yo‘la harakat emas, ishlab chiqarish bu uzluksiz jarayondir. Ishlab chiqarish jarayonida tovarlar hajmi va uning qiymati oshib boradi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, hech qaysi mamlakatda iqtisodiy rivojlanish bir tekis kechmaydi. U davriy xarakterga ega bo‘lib, iqtisodiy o‘sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Iqtisodiy davr – bu rivojlanishning shakli bo‘lib, iqtisodiyotning bir inqirozdan ikkinchi inqirozgacha bo‘lgan harakat davrini o‘z ichiga oladi. Davrlar davomiyligi turlicha, ya’ni qisqa va uzun bo‘lishi mumkin. Shuning uchun “uzun to‘lqinlar” va “qisqa to‘lqinlar” davri farqlanadi. Uzun to‘lqinlar davri 40-60 yillik davrni o‘z ichiga olib, bu nazariyaga angliyalik X.Klark asos solgan. Iqtisodiy davr inqiroz, turg‘unlik, jonlanish, yuksalish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ishsizlik mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta’minlanmaslidigidir. Inflyatsiya bu pulning qadrsizlanishi bo‘lib, unga qarshi davlat chora - tadbirlar olib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Inflyatsiyaning o‘sish ko‘rsatkichlarini 2016 yilga ham 7-10 foiz darajasida saqlab turish mo‘ljallanmoqda” deb ta’kidlab o‘tgan.

Mavzuning maqsadi:

1. Iqtisodiy o‘sish va uning manbalarini aniqlash;
2. Iqtisodiyotning davriyligi va uning turlarini o‘rganish. Davr va uning fazalari, uning sabablarini tahlil qilish;
3. Iqtisodiyotni rivojlanishida davlatning rolini baholash;
4. Ishsizlik, uning sabablari va turlarini ko‘rib chiqish;
5. Inflyatsiya mohiyatini, uning turlari va o‘lchash usullarini o‘rganish.

Asosiy atama va tushunchalar:

Iqtisodiy o‘sish. Iqtisodiy o‘sish omillari. Iqtisodiy davr. Uning fazalari (krizis, turg‘unlik, jonlanish, yuksalish) va belgilari. Davriylik va uning sabablari. Akseleratsiya tamoyili. Davlatning antitsiklik boshqa-

ruvi. Inflyatsiya, uning turlari. Inflyatsiya mexanizmi. Inflyatsiyaning sabablari. Davlatning inflyatsiyaga qarshi olib boradigan siyosati. Inflyatsiya darajasi. Ishsizlik, uning turlari. Ouken qonuni. Ishsizlik darajasi. Ishsizlikning tabiiy darajasi. To‘liq bandlilik. Filips egri chizig‘i. Ishlab chiqarish davriyligi. Iqtisodiy davr va uning bosqichlari. Kapital jamg‘arilishi. Inflyatsiya va uning turlari. Inflyatsiyaga qarshi siyosat. To‘liq bandlilik. Bandlilik. Ish kuchi. Mehnat resurslari. Mehnat birjasi. Mehnat bozorining mohiyati. Ishsizlik. Ishsizlik turlari. Ishsizlikning tabiiy darajasi. Ouken qonuni. Filips egri chizig‘i.

Savollar:

1. Iqtisodiy o‘sishning qanday modellarini bilasiz?
2. Ishlab chiqarish funksiyasi nima?
3. Nol darajadagi iqtisodiy o‘sish deganda nimani tushunasiz?
4. Iqtisodiy krizislarga tabiiy hol deb qarash mumkinmi?
5. Iqtisodiy o‘sishning salbiy oqibatlari nimada ifodalanadi?
6. Iqtisodiy o‘sish bilan ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasida farq bormi?
7. Iqtisodiy o‘sish doimo ijtimoiy taraqqiyotga olib kelmaydi. Nima uchun?
8. Iqtisodiy o‘sishni harakatga keltiruvchi kuchlarini ayting.
9. Moddiy va nomoddiy aktivlarga nimalar kiradi?
10. Kondratyev to‘lqini nima?
11. Ishlab chiqarish davriyligi deganda nimani tushunasiz?
12. Iqtisodiy sikllarning qanday turlarini bilasiz?
13. Katta va kichik sikllar qanday farqlanadi?
14. Inflyatsiya nima va uni qanday o‘lchanadi?
15. Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari nimada?
16. Inflyatsiya jarayonining rivojlanish mexanizmini qanday tushunasiz?
17. Talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi qanday farqlanadi?
18. Inflyatsiyaga qarshi qanday chora-tadbirlar olib boriladi?
19. To‘liq bandlilik nima?
20. Ish kuchiga talab va taklif qaysi bozorda bo‘ladi?
21. Ishsizlik nima va uning qanday turlari mavjud?
22. Ishsizlikning tabiiy darajasi qanday aniqlanadi?
23. Ouken qonunu nimani ifodalaydi?

24. Ishsizlik va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni qanday tushuntirish mumkin?

25. Agar o‘tgan yili narx indeksi 220 va bu yili 245 ni tashkil etsa, bu yilgi inflyatsiya darajasi kancha bo‘ladi?

26. Agar narxlar 20 marta oshsa, mamlakatda inflyatsiya o‘sish darajasi va pulning sotib olish qiymati qanday o‘zgaradi?

Topshiriqlar:

1. Misol uchun O‘zbekistonda NYaMM hajmi 2014 yilda 60 trill mlrd. so‘m bo‘lgan. Uning miqdori 2010 yilda 8,3% ga, 2011 yilda 8,5% ga, 2012 yilda 8,5% ga oshgan.

a) YaMMning 2012 yildagi qiymatini toping.

b) Investitsiya 1% oshganda YaMMning 0,27% ga o‘sishi ta’minlanadi. 2014 yilda investitsiya 20% ga oshgan. Bunday holda 2015 yilda YaMMning qanchaga oshishi kutiladi?

2. Quyidagi jumalalarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘ying:

a) iqtisodiy o‘sishvako‘payishni bildiradi.

b) real YaMM.....narxlarda hisoblanadi.

d) ekstensiv o‘sish yuz bergandasarfi ko‘payadi, intensiv o‘sishdasarfi tejaladi.

e) investitsyaning samaradorligi ikki narsaga bog‘liq:

1).....

2).....

f) iqtisodiy o‘sish samaradorligi uch omilning hosilasi hisoblanadi:

1).....

2).....

3).....

g) iqtisodiy krizislar davri to‘lqinli holda bo‘lib, ular har xil vaqtini o‘z ichiga oladi.

1).....

2).....

3).....

3. Quyidagilarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang:

– ishlab chiqarishning «Buyuk turg‘unlik» kabi holda bo‘lishi qonuniyat emas;

– harbiylashtirish yuqori darajadagi iqtisodiy o‘sishga olib keladi;

- yashirin inflyatsiyaning sababi – davlatning baholarini tartibga solish va kamomad bo‘lishi mumkin;
- iqtisodiy o‘sish jarayonida tabiiy resurslarning cheklanganligi yanada oshadi;
- YaMMning kishi boshiga taqsimlanishini o‘sishi – aholi turmush darajasining o‘sishining asosiy ko‘rsatkichi;
- talab inflyatsiyasi – mahsulot bahosining ishlab chiqaruvchilar tomonidan oshirilishi natijasida vujudga kelgan inflyatsiya hisoblanadi;
- yuksalish fazasida iqtisodiyotda baholar darajasi pasayadi, ishsizlik darajasi oshadi;
- friksion ishsizlik bo‘lishi jamiyatning maqsadiga muvofiq bo‘ladi;
- inflyatsiya aholi turmush darajasining pasayishiga sabab bo‘ladi;
- jonlanish fazasida ishsizlik va baholar darajasi eng yuqori darajada bo‘ladi;
- ishsizlik darajasida band bo‘lganlarning umumiy sonini ishsizlar soniga bo‘lgan nisbati bilan o‘lchanadi;
- taklif inflyatsiyasi ish haqining oshishi natijasida vujudga keladi.

4. Quyidagi jarayonlar ishlab chiqarish fazalarining qaysi biriga taalluqli. (1 jonlanish, S ishlab chiqarish hajmining qisqarishi)

- foiz stavkasining ko‘tarilishi;
- foydaning pasayishi;
- soliq tushumlarining o‘sishi;
- mehnatga bo‘lgan talabning o‘sishi;
- aksiya kursining pasayishi;
- baholarning ko‘tarilishi;
- xususiy sektorda investitsiyalar miqdorining o‘sishi;
- soliq tushumlarining pasayishi;
- uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqarishni ko‘payishi;
- ishsizlik uchun to‘lanadigan nafaqalar miqdorining ko‘payishi;
- mehnatga bo‘lgan talabning pasayishi;
- foiz stavkasi darajasining pasayishi.

5. Quyidagi ma’lumotlar mavjud: Band bo‘lganlar soni 100 mln. kishi. Ishsizlar soni 10 mln. kishi.

- a) ishsizlik darajasini hisoblang;
- b) bir oydan so‘ng ish bilan band bo‘lgan 100 mln. kishidan: 1 mln. kishi ishdan bo‘shatildi;

0,5 mln.kishi chet elga ketdi.

1) Band bo‘lganlar soni qancha bo‘ladi?

2) Ishsizlar soni, ishsizlik darajasini aniqlang.

6. Quyidagilarning qaysi guruhga kirishini aniqlang band bo‘lganlar, ishsizlar, band bo‘lmaganlar)

– o‘z xohishi bilan ishdan bo‘shagan ishchi;

– shtat qisqarishi natijasida ishdan bo‘shagan ishchi;

– kunduzgi o‘qishda o‘qiydigan talaba;

– sirtqi o‘qishda o‘qiydigan talaba;

– uy va oila ishlari bilan band bo‘lgan uy bekasi;

– qisman kutubxonada ishlaydigan uy bekasi;

– uzoq muddat ish qidirishdan charchagan va ish qidirmay qo‘ygan ishchi;

– kollej talabasi;

– tijorat magazini sotuvchisi;

– dividend hisobiga kun ko‘radigan shaxs;

– to‘liqsiz ish kuniga o‘tkazilgan ishchi;

– sog‘lig‘i yomonligi sababli ishlay olmagan o‘qituvchi.

7. Nominal YaMM 4060 mlrd. so‘mga teng. Ishsizlikning tabiiy darjasи 5%, haqiqiy darjasи 10%. Mamlakatda qancha mahsulot ishlab chiqarilmay qolgan.

8. Quyidagilarga kutilmayotgan inflyatsiya qanday ta’sir etishini aniqlang: maktab o‘qituvchisiga; xizmatchiga; foizsiz qarz olgan kishiga; talabaga; bankda jamg‘armaga ega bo‘lganga?

9. Agarda 1 oydan so‘ng inflyatsiya darjasи 2% ga, bir haftadan so‘ng 2% ga oshsa, bugunchi bir so‘mning qadri qanday bo‘ladi?

10. A davlatda Filips egri chizig‘i o‘ngga va yuqoriga suriladi. Bu surilish nimani anglatadi?

a) deputat ishsizlik ko‘paygan deb hisoblaydi.

b) ikkinchi deputat egri chiziq baholarning oshishi natijasida surilgan deb hisoblaydi.

d) vazir egri chiziq surilishiga qaramasdan davlat ishsizlik va inflyatsiya darajasini pasaytirishga erishadi deb hisoblaydi.

11. Akselerator 2 ga teng. Akselerator formulasidan foydalangan holda, milliy daromad hajmini qancha bo‘lganini belgilangan yillar uchun aniqlang.

Jadvalda yuqoridagi yillar uchun baho indeksi belgilangan: (12-13-jadval)

12-jadval

T	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
V	100						
I	0	120	- 60	- 30	30	21	150

13-jadval

yillar	Baholar indeksi %	Inflyatsiya darajasi
1	100	
2	120	
3	146	
4	150	

a) Har bir yil uchun inflyatsiya darajasini aniqlang;

b) 70 qoidaga asoslangan holda baholarning 2 marta oshishi uchun necha yil kerak bo‘lishini hisoblang.

12. Quyida keltirilgan kasb egalarining har biriga inflyatsiyaning 10 foizga oshishi qanday ta’sir ko‘rsatadi:

- supermarket xizmatchisiga;
- qarzi bor fermerga;
- kichik shaharchadagi xususiy do‘kon egasiga;
- nafaqadagi temir yo‘l ishchisiga.

13. Quyida keltirilganlardan qaysi biri iflyatsiya natijasida yutadi:

- faqat nafaqa hisobiga yashovchilar;
- foizsiz ssuda olgan xizmatchi;
- jamg‘arma bankida jamg‘armasi bo‘lgan student;
- obligatsiya egasi.

14. Quyidagi jumlalarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yib, to‘g‘ri javob topganingizni tekshirib ko‘ring:

- a) iqtisodiy o‘sishning sikli bo‘lishiga asosiy sabab
- b) Iqtisodiy sikllar ikki turga bo‘linadi:
1) 2).....

15. Quyidagi savolga keltirilgan javoblardan to‘g‘risini tanlang:

Ishsizlikning sababi nima? – mehnat unumdarligining ortishi; iqtisodiy tanglik; tovarlarning o‘tmay qolishi; ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlar; ish joyini almashtirish; noto‘g‘ri javob yo‘q.

16. Ouken qonuniga binoan ishsizlik darajasining 1 foizga oshishi YaMMning:

a) 0,5 foizga kamayishiga; b) 1,0 foizga kamayishiga; d) 1,5 foizga kamayishiga; e) 2,5 foizga kamayishiga; f) 3 foizga kamayishiga olib keladi.

17. Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?

- a) ID = (MSxIFA)x100; b) ID = (IFAxIS)x100;
- d) ID = (IS/IFA)x100; e) ID = (IFA/IS)x 100;
- f) ID = (IFA-IS)x100.

Testlar:

1. Iqtisodiyotning davriyligiga sabab bo‘lgan ichki omillarga qu-yidagilardan qaysi birini kiritish mumkin?

- a) asosiy kapitalning jismoniy yemirilishi;
- b) ishlab chiqarish vositalariga xususiy egalik qilish;
- d) urushlar, stixiyali holatlar;
- e) markaziy rejalashtirishning mavjud emasligi.

2. Elektr energiyasi bahosining oshishi natijasida:

- a) talab inflyatsiyasi;
- b) taklif inflyatsiyasi;
- d) balanslashmagan inflyatsiya;
- e) mo‘tadil inflyatsiya vujudga keladi.

3. Ta’lim olayotgan talaba:

- a) bandlilar kategoriyasiga kiradi;
- b) to‘liq band bo‘lmaganlar guruhiga kiradi;
- d) ishsizlarga kiradi;
- e) ish kuchi tarkibiga kiritilmaydi.

4. Iqtisodiy o‘sish davrida quyidagilardan qaysi biri antitsiklik tartibga solishda qo‘llaniladi?

- a) soliq stavkasi kamaytiriladi;
- b) hisob stavkasi pasaytiriladi;
- d) hisob stavkasi oshiriladi;
- e) davlat xarajatlari oshiriladi.

5. Inflyatsiya aholining ma’lum bir qatlamlariga nafli bo‘lishi mumkin. Ular kimlar?

- a) ko‘p miqdorda qarzi bo‘lgan fermer;
- b) nafaqaxo‘r;
- d) o‘qituvchi;
- e) metropoliten ishchisi.

6. Ekstensiv iqtisodiy o'sish omili:

- a) yangi texnologiyani xarid qilish;
- b) qo'shimcha ishchilarni yollash;
- d) ishchi malakasini oshirish;
- e) eski ishlab chiqarish vositalarini yangilash.

7. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi?

- a) yalpi xarajatlar darajasini o'sishi;
- b) qo'shimcha resurslardan samarali foydalanish;
- d) ishlab chiqarishda investitsiyalarning ko'payishi;
- e) barchasi to'g'ri.

8. O'tgan yili baholar indeksi 120, joriy yilda 132% bo'lgan.

Joriy yildagi inflyatsiya darajasini aniqlang:

- a) 5%;
- b) 10%;
- d) 12%;
- e) 32%.

9. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari nimada ifodalanadi?

- a) jamg'arishga bo'lgan ishtyoq so'nadi;
- b) milliy daromad qayta taqsimlanadi, ya'ni nominal ish haqining o'sish sur'ati baholarning o'sish darajasidan orqada qola boshlaydi;
- d) mehnatkashlarning jamg'armalari qadrsizlanadi;
- e) soliq tushumlarining kelib tushishi ta'minlanadi.

10. Joriy yilda ishsizlik darajasi to'la bandlilik sharoitida 5% ni tashkil etdi. (haqiqiy ishsizlik darajasi 9%) RYaMM = 500 mlrd.doll. Ishsizlik natijasida YaMMning qancha qismi o'qoladi?

- a) 5% (25mlrd.doll.)
- b) 4% (20mlrd.doll.)
- d) 10% (50mlrd.doll.)
- e) 15% (30mlrd.doll.)

11. Joriy yilda real YaMM miqdori 55mlrd.doll.ni tashkil etgan.

O'tgan yili bu ko'rsatkich 50 mlrd.doll. bo'lga. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini aniqlang:

- a) 5%
- b) 10%
- d) 110%
- e) 5 mlrd.doll.

12. Intensiv iqtisodiy o'sish:

- a) yangi korxonalarning qurilishi;
- b) mavjud bo'lgan resurslarni tejash;
- d) ishchilar sonining oshishi;
- e) qo'shimcha pul resurslarini jalb etish.

13. Iqtisodiy o'sish nima?

- a) ishlab chiqarish taraqqiyoti;
- b) ijtimoiy buyumlar ishlab chiqarishning o'sishi;
- d) yaratilgan tovar va xizmatlar hajmining ko'payishi;
- e) aholi turmush sharoitlarining yaxshilanishi.

14. Iqtisodiy o'sish qanday aniqlanadi?

- a) daromad va ish haqi darajasi bilan;
- b) aholining sotsial himoyalanganlik darajasi bilan;
- d) ishsizlik darajasi bilan;
- e) bir yil mobaynida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM miqdori bilan.

15. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omil nima?

- a) ishlab chiqarish hajmining o'sishi;
- b) yalpi harajat hajmining o'sishi;
- d) qo'shimcha resurslardan samarali foydalanish;
- e) iqtisodning uzoq muddat davomida rivojlanishi.

16. Intensiv o'sish nima?

- a) qo'shimcha pul resurslarini jalb etish;
- b) ishchilar sonini ko'paytirish;
- d) yangi korxonalar qurish;
- e) yangi texnika va texnologiyani qo'llash orqali mavjud resurslaridan samarali foydalanish.

17. Ekstensiv o'sish nima?

- a) ekin maydonlarini kengaytirish;
- b) ishlab chiqarishga ishchi kuchlarini jalb qilish;
- d) ishlab chiqarish vositalarini ko'paytirish;
- e) ishlab chiqarish joylarini kengaytirish.

18. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning qaysi modeli qo'llanilmoqda?

- a) rejalahtirilgan modeli;
- b) ma'muriy buyruqbozlik modeli;
- d) aralash iqtisod modeli;
- e) demokratik asosda sotsial rivojlanishga qaratilgan O'zbekiston modeli.

19. Milliy boylik nima?

- a) ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot;
- b) jami milliy daromad;
- d) asosiy va aylanma fondler;

e) jamiyat ixtiyoridagi tabiiy va ilgarigi mehnat bilan yaratilgan boyliklar.

20. Milliy boylikning o'sishi nimaga bog'liq?

- a) ishlab chiqarish fondlarining o'sishiga;
- b) asosiy va aylanma fondlarning o'sishiga;
- c) mehnat unumdorligining o'sishiga;
- d) moddiy resurslarga, ish kuchiga va kapital qo'yilmalar o'sishiga.

21. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy o'sishning ekstensiv tipining belgisi hisoblanadi?

- a) mehnat unumdorligining o'sishi;
- b) resurslarni samarali taqsimlash;
- c) mehnat va kapital sarflarining ortishi;
- d) resurslardan samarali foydalanish.

22. Umumiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlab borishning asosiy yo'li qanday?

- a) iste'molni cheklash;
- b) xalq xo'jaligini bir me'yorda rivojlantirish;
- c) barcha bozorlarda talab va taklif muvozanatini keltirish;
- d) resurslardan samarali foydalanish.

23. Iqtisodiy inqirozlarning asosiy mazmuni nimada namoyon bo'ladi?

- a) tovarlarni ishlab chiqarishning kamayishida;
- b) ishsizlikning o'sishida;
- c) narxlarning o'sishida;
- d) ishlab chiqarilgan tovarlar massasining to'lovga qobil talabidan oshib ketishi yoki kam bo'lishidan.

24. Agrar inqirozning asosiy xususiyatlari nimada namoyon bo'ladi?

- a) mahsulotlarni nisbiy ortiqcha ishlab chiqarishda;
- b) narxlarning pasayishi, daromadlari va foydaning kamayishi;
- c) davriy xarakterga ega bo'lmaslikda va nisbatan uzoq davom etishida;
- d) ishlab chiqarishning qisqarishida.

25. To'liq bandlilik – qanday ma'noda tushuniladi?

- a) ishsizlikning mutlaq mavjud bo'lmasligi;
- b) friksion ishsizlikning mavjud bo'lishi;
- c) tarkibiy ishsizlikning mavjud bo'lishi;
- d) ishsizlikning tabiiy darajasining mavjud bo'lishi.

26. Ish kuchi 6,7 mln. kishini, ishsizlar 0,5 mln. kishini tashkil qilsa, ishsizlik darajasi necha foizni tashkil qiladi?

- a) 7,2%
- b) 6,5%
- c) 7,5%
- d) 8,0%

12 - mavzu. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat

Davlat byudjeti. Mamlakatning iqtisodiy holati ko‘p jihatdan moliyaviy munosabatlarga bog‘liq. Davlat moliyasi moliyaviy tizimning asosini tashkil etadi. Moliyaviy resurslarning shakllanishi va uning taqsimlanishida davlat byudjeti muhim rol o‘ynaydi. Davlat byudjetining asosiy vazifasi moliya yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish, turli markazlashgan jamg‘armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag‘lari fondi davlat byudjetini tuzish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Hukumat o‘z mamlakatini iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holda, byudjet siyosatini ishlab chiqadi. Bunday siyosat mamlakatning mablag‘ imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladigan ishlar majmuasidan iborat bo‘lgan hukumatning moliyaviy faoliyatini dasturi bo‘lishi mumkinligini, byudjet taqchilligi ustida qat’iy nazorat o‘rnatilishini, uni qoplash manbalarini ko‘rsatishni juda katta iqtisodiy samara beradigan iqtisodiy dasturlarga byudjetdan mablag‘ ajratishni talab etadi.

Mavzuning maqsadi:

1. Moliya mazmunini, uning tuzilishini, uning bo‘g‘inlari, moliya siyosatining mohiyatini ochib berish;
2. Davlat byudjeti va uning tuzilishini tushuntirish;
3. Byudjet kamomadi va davlat qarzining sabablarini tushuntirish;
4. Soliqlarga tavsif berish uning vazifalari va soliq olish metodlarini o‘rganish.

Asosiy atama va tushunchalar:

Moliya tizimi. Moliyaviy munosabatlar. Moliya siyosati. Davlat byudjeti. Byudjet kamomadi. Byudjet daromadlarining ortiqchaligi (prefitsit) Davlat qarzi (tashqi va ichki). Soliqlar. Soliq stavkasi. Laffer egri chizig‘i. Soliqlarning vazifalari. Diskretsiyaviy va nodiskretsiyaviy fiskal siyosat.

Savollar:

1. Moliya munosabatlari qanday munosabatlar?
2. Moliya qanday vazifalarni bajaradi?
3. Pul resurslari va uning manbalari nimalardan iborat?
4. Davlat byudjetining kamomadi va uning sababi nimadan iborat?
5. Davlat byudjetining kamomadini kamaytirish yo‘llari nimalardan iborat?
6. Moliya tizimi nima?
7. Davriy va tarkibiy davlat byudjeti nima?
8. Davlat qarzi nima?
9. Soliq yuki nima?
10. Davlatning moliyaviy siyosati nimadan iborat?

Topshiriqlar:

1. 100000 so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan va sotilgan. Undan 20000 so‘m ish haqi, 8000 so‘m ijtimoiy sug‘urta, 6000 so‘m qoplash fondi, 20000 so‘m amortizatsiya fondiga ajratilgan. Foyda qancha bo‘lgan. (javob: 18000 so‘m.)
2. Soliq quyidagi ko‘rinishda olingan: (14-jadval)

14-jadval

daromad	soliq	I	II	III
100 so‘m		10	15	10
200 so‘m		20	25	12
300 so‘m		30	35	22
400 so‘m		40	45	38
500 so‘m		50	55	42

Progressiv, proporsional, regressiv soliq turlarini aniqlang.

3. Quyidagilarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang:
 - davlat qarzlari aholining qo‘lida bo‘lgan barcha obligatsiyalarning summasi hisoblanadi;
 - davlat yillik byudjetining kamomadi davlat byudjetining daromadlari bilan xarajatlari o‘rtasidagi farqga teng;
 - Loffer egri chizig‘i soliq miqdorini kamayishi bilan soliq miqdori tushumining ko‘payishini ifodalaydi;
 - davlat qarzi davlat byudjetida yillar davomida yig‘ilib qolgan kamomadlarning umumiyligi summasiga teng;

- davlat byudjetining kamomadi davlatning daromadlari oshganda vujudga keladi;
- agarda mamlakat fuqarolarining barchasi bir xil soliq to‘laganda adolatli bo‘lardi;
- byudjet «kamomadsizligi» mamlakat iqtisodiyotining sog‘lomligi-dan dalolat beradi;
- byudjet kamomadi obligatsiyalar chiqarish va soliq miqdorini oshirish bilan bartaraf etiladi;
- progruhessiv soliq ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rag‘batlantiradi;
- tashqi qarzning oshishi mamlakatning obro‘sini tushiradi;
- kamomadning o‘sishi sof eksport miqdoriga bog‘liq emas;
- mamlakatda soliqning vazifalaridan biri ijtimoiy sohani rivojlantirish hisoblanadi.

4. Quyidagilarning qaysi biri davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari qismiga kiradi:

- davlat xavfsizligidan keladigan daromad;
- QQS-qo‘silgan qiymat solig‘i;
- davlat qarzlarini to‘lash;
- atrof muhitni muhofaza qilishga ketayotgan xarajatlar;
- aksiz solig‘i;
- ma’muriy boshqarish xarajatlari;
- daromad solig‘i;
- nafaqa, yordam pullari, sog‘liqni saqlashga sarflanadigan xarajatlar;
- tashqi iqtisodiy faoliyatdan keladigan daromadlar;
- ijtimoiy to‘lovlar;
- chet davlatlarga beriladigan yordam va qarzlar.

5. YaMM to‘la bandlik sharoitida 30 mlrd. dollar bo‘lgan. Haqiqiy YaMMning hajmi 25 mlrd. dollar. YaMM hajmining 15% soliqlarga sarflangan. Tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun davlat 4 mlrd. dollar sarflandi.

a) davlat byudjeti bunda qanday holda bo‘ladi: (kamomadlimi yoki ortiqchami)

b) to‘la bandlik sharoitida davlat byudjetining qoldig‘i (saldo) qanday o‘zgaradi;

4. Davlat aholidan 1 yilga 4% stavkasi bilan 10 mln. dollar qarz oldi:

- a) davlat yilning oxirida qarzning qanchasini qaytarib beradi;
- b) agarda yillik inflyatsiya sur'ati 3%ni tashkil etsa, inflyatsiyani hisobga olgan holda qarz miqdori va foiz miqdori qancha bo'ladi;

6. Siz mahalliy hokimiyatlarga qanday prinsip asosida soliq solishni va uni qaysi sohalarga sarflashni tavsiya etgan bo'lar edingiz:

- ko'p bolali oilalarga yordam;
- ippodrom qurilishi;
- tayanch ma'lumotni olish;
- kam daromadlilarga yordam berish;
- sog'liqni sog'lash tizimiga;
- oliy ma'lumot olishga;
- yong'inning oldini olish tizimiga;
- kuchuklarni sayr ettirish uchun maydonchalar qurishga;
- yangi bozorni qurishga;
- yangi park qurilishiga;
- qariyalar uyidagilarni ta'minlashga;
- bolalar maydonini jihozlashga.

7. Iqtisodiy turg'unlik sharoitida byudjet kamomadli bo'ladi. Byudjet kamomadini to'latishda yangi pullarni emissiya qilish yoki aholidan qarz olishning qaysi biri ko'proq samara beradi va nima uchun?

8. Davlat qarzlarini qoplash va qaytadan moliyalashtirish o'rtaida qanday farq mavjud?

9. Davlatning tashqi va ichki qarzlarini qoplash qanday oqibatlarga olib keladi? Davlat qarzlari to'xtovsiz oshib borganda davlat xonavayron bo'lishi mumkinmi?

10. Davlat byudjetini balans holga keltirish mumkin bo'lgan 3 xil variantini ko'rib chiqing: yillik balanslashtirish; davriy balanslashtirish; funksiyali moliyalashtirish konsepsiysi. Ular o'rtaсидаги farqni ko'rsating. Ularning qaysi birini qo'llash maqsadga muvofiq?

11. Quyidagi qaysi soliq olish sxemasini siz soliqdan bo'yin tov lash yoki maqsadga muvofiq bo'lgan soliq miqdori deb hisoblaysiz?

– tadbirkor hisobotda o'zining korxonasidagi ish haqi miqdorini to'la ko'rsatmaydi;

– o'g'il ota-onasi uyiga to'liq merosga ega bo'lish maqsadida ro'yxatda turadi;

– import qilayotgan subyekt bojxonada olib kelayotgan tovarlarini xujjalarni pasaytirish uchun birovdan qarz oladi;

– tadbirkor foydasining bir qismini xayriya ishlariga sarflaydi. Bu qism soliqdan ozod qilingan-mi? «Soliq teshigi» deganda nimani tushunasiz? O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksida «Soliq teshigi» ko‘zda tutiladimi?

12. Qanday guruhlar soliq yukini boshqalarga yuklash imkoniyatiga egalar: yo‘llanma ishchilar; o‘zлari ishlariga ish haqi belgilaydiganlar (advokatlar, vrachlar). Ular soliq yukini kimga yuklaydilar?

13. Muvozanatni ta’minlashga bo‘lgan harakat fiskal tizimning amal qilishi uchun yetarli bo‘ladi deb hisoblash mumkinmi? Diskretsion fiskal siyosatni amalga oshirish shartmi?

Testlar:

1. Moliya tizimining mazmuni:

a) barcha pul massasining muomalada bo‘lishi;

b) pul resurslarining vujudga kelishi va undan foydalanish tizimi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlash;

d) MB da saqlanilayotgan pul mablag‘lari;

e) aholi omonatlari.

2. Davlat byudjetining kamomadli bo‘lishi:

a) pul emissiyasi tufayli;

b) muomalada pul mablag‘larining yetishmasligi;

d) soliq darajasining yuqori bo‘lishi;

e) ijtimoiy ishlab chiqarishda xarajatlarning yuqori ekanligi va hajmining pasayib ketishi.

3. Davlat byudjetining xarajatlar qismini aniqlang:

a) daromad soliqlari;

b) aksiz to‘lovleri;

d) moliya mudofaa xarajatlari;

e) boshqa davlatlarning yordamlari.

4. Soliq stavkasining oshishi:

a) investitsyaning oshishiga;

b) ish kuchi taklifining oshishiga;

d) kishilarning ixtiyoridagi daromadlarning oshishiga;

e) javoblar noto‘g‘ri.

5. Avtomobilni sotishda olinadigan 60% soliq qanday soliq turiga kiradi?

a) to‘g‘ri soliq;

- b) egri soliq;
- d) daromad solig‘i;
- e) foydadan to‘lanadigan soliq.

6. Davlatning xarajatlarini tartibga solish va soliqlar bilan bog‘-liq bo‘lgan siyosat qanday siyosat hisoblanadi:

- a) pul miqdori nazariyasiga asoslangan siyosat;
- b) monetar siyosat;
- d) fiskal siyosat;
- e) daromadlarni taqsimlash siyosati.

7. O‘zbekistonda amal qilinadigan soliqning qanday turi progressiv hisoblanadi:

- a) daromad solig‘i;
- b) sotishdan to‘lanadigan soliq;
- d) korxonalarining foydasidan olinadigan soliq;
- e) kutilgan daromad solig‘i.

8. Davlat qarzi bu:

- a) davlat xarajatlari;
- b) byudjet kamomadi;
- d) byudjet kamomadi – byudjetdagi ortiqcha mablag‘lar;
- e) mudofaa xarajatlari.

9. Ishbilarmonlik faoliyatining pasayishi va soliq tushumlarining kamayishi natijasida vujudga keladigan byudjetning kamomadi:

- a) tarkibiy kamomad;
- b) siklik kamomad;
- d) byudjet kamomadi;
- e) tashqi savdo kamomadi hisoblanadi.

10. Loffer egri chizig‘i bu:

- a) soliq tushumlari va davlat byudjeti daromadlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi;
- b) soliq tushumlari va davlat byudjeti xarajatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi;
- d) soliq stavkasi va YaMM darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi;
- e) baholar darajasi va YaMM miqdori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi.

11. Davlat qarzi qanday iqtisodiy aloqalarga olib keladi:

- a) milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlarini qisqartiradi;
- b) aholi turmush darajasi pasayadi;

- d) jamiyat a'zolari o'rtasida milliy boylik qaytadan taqsimlanadi;
- e) yalpi milliy xarajat ko'payadi.

12. Eng qadimgi soliq turi:

- a) QQS;
- b) daromad solig'i;
- d) aksiz;
- e) ekologiya solig'i.

13. Quyidagilardan qaysi biri moliya bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi?

- a) qarz majburiyatlari bozori;
- b) kapital bozori;
- d) qimmatli qog'ozlar bozori;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

14. Moliya bozorining qaysi turida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotilmaydi va sotib olinmaydi?

- a) kapital bozorida;
- b) ssuda kapitali bozorida;
- d) qarz majburiyatlari bozorida;
- e) qimmatli qog'ozlar bozorida.

15. Qaysi bozorda broker va dillerlar vositachilik qiladi?

- a) qarz majburiyatlari bozorida;
- b) ishlab chiqarish vositalari bozorida;
- d) qimmatli qog'ozlar bozorida;
- e) ishchi kuchi bozorida.

16. Moliyaviy munosabatlarning subyektlari:

- a) barcha turdag'i korxonalar;
- b) aholining keng qatlami;
- d) davlat tashkilotlari va muassasalari;
- e) chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar.

17. Naqd pul muomalasi nima bilan ta'minlanadi?

- a) cheklar;
- b) bank biletlari va metall tangalar;
- d) kredit kartochkalari;
- e) veksellar va akkreditivlar.

18. Qaysi daromad turi xodimlar mehnatining natijasiga bog'liq?

- a) ish haqi; b) dividend;
- d) foiz; e) renta.

13 - mavzu. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli

Mavzuning maqsadi:

1. Pul bozori, pul taklifi va unga bo‘lgan talabga ta’sir etadigan omillarni ko‘rib chiqamiz;
2. Kredit, uning mohiyati va turlarini o‘rganish;
3. Bank tizimi, markaziy va tijorat banklarining mohiyatini o‘rgani-sh;
4. Pul multiplikatorining mohiyatini o‘rganish;
5. Pul massasining hisoblash mexanizmini monetar siyosat vositasi yordamida o‘rganish.

Asosiy atama va tushunchalar:

Pul muomalasining tuzilishi. Bitim tuzuvchilar tomonidan pulga bo‘lgan talab. Pul aktivlari tomonidan pulga bo‘lgan talab. Pul aggre-gatlari. Kredit. Markaziy bank (MB). Tijorat banklari. Moliyaviy muas-sasalar. Banklarning aktiv va passiv operatsiyalari. Depozitlar. Lizing. Faktoring. Konsalting. Injiniring. Trast operatsiyalari. Bank multipli-katori. Monetar (pul-kredit) siyosati. Hisob miqdori. Ssuda foizi. Diskont. Majburiy zaxira normasi. Ochiq bozordagi operatsiyalar. «Qim-matbaho» va «arzonbaho» pullar siyosati.

Savollar:

1. Qat’i belgilangan zaxira normasi nima?
2. Pul massasining miqdori nimaga bog‘liq?
3. MB hisob stavkasini kamaytirish natijasida qanday holat yuzaga keladi?
4. Pul taklifi deganda nimani tushunasiz?
5. “Qimmatbaho” pullar siyosatining mohiyati nimani anglatadi?.
6. “Ochiq bozordagi operatsiya” atamasi deganda nimani tushunasiz?
7. Monetar siyosat qanday siyosat?
8. Hisob stavkasining oshishi nimaga olib keladi?
9. Pul bozorida muvozanat nimaga teng?
10. Kredit nima?

11. Kredit qanday shart asosida beriladi?
12. Olingan kreditga to‘lanadigan foiz nima?
13. Kredit tizimi nima?
14. Bank foydasi nima?
15. Hisob-kitob stavkasi nimani ifodalaydi?
16. Kredit munosabatlarining mohiyati va vazifalari sanab o‘ting.

Topshiriqlar:

1. Bitimlar uchun mo‘ljallangan har bir dollar tovarlar va xizmatlarni xarid qilish uchun o‘rtacha bir yilda 4 marta aylanadi deb, faraz qilamiz. Nominal YaMM 2000 mlrd. dollarga teng. Aktivlar tomonidan pulga bo‘lgan talab 120 mlrd. dollarga teng. Pulga bo‘lgan umumiy talab miqdori qanchaga teng?

2. Quyidagilarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang:

- MBning asosiy vazifasi pul massasiga ta’sir etadigan bank zaxiralari miqdorini nazorat qilishdan iborat;
- hisob stavkasi tijorat banklarining yirik mulkdorlarga qarzga beradigan foiz miqdori;
- yuqori miqdordagi foiz stavkasi investorlarning daromadlarini ko‘paytirishni rag‘batlantiradi;
- MB pul massasi hajmi hamda berilayotgan ssuda bank zaxiralari miqdorini tartibga solish yordamida nazorat qilinadi;
- MB ochiq bozorda qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish bilan aktivlar summasini kamaytiradi va bank majburiyatlarini summasini oshiradi;
- MB davlatning qimmatli qog‘ozlarini xarid qilganda, bank zaxiralari kamayadi;
- ochiq bozordagi operatsiyalar, MB da pul massasidan foydalaliganda uni nazorat qilishning vositasi bo‘lib xizmat qiladi;
- bitimlar uchun bo‘lgan pulga talab NYaMM hajmi bir maromda bo‘lganda kamayadi;
- pul taklifi oshganda yalpi taklif egri chizig‘ini o‘ng tarafga suradi;
- iste’mol xarajatlarining o‘zgarishi foiz miqdoriga nisbatan investitsiya miqdorining o‘zgarishiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi;
- har qanday vaqt oralig‘ida pulning bankka kelib tushishi, undan chiqib ketayotgan pul miqdoriga nisbatan ko‘proq bo‘lishi kerak;

3. Quyidagilardan pul massasi tarkibiga kiradiganlarini aniqlang:

- 1) sizning qo‘lingizdagi metall pullar (tangalar);

- 2) omonat kassasidagi muddatli qo‘yilmalar;
- 3) qo‘lingizdagi banknotlar;
- 4) davlat obligatsiyalari;
- 5) bankdagi joriy raqam.

Ulardan qaysi biri pul agregatlariga (M1 va M2) kiradi?

4. Quyidagilarda kreditning qanday shaklidan foydalaniladi:

– oilaning uy olish uchun olgan krediti;

– davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun obligatsiyalarning ishlab chiqarilishi;

– XVF dan kredit olish;

– uyni garovga qo‘yish;

– uzoq muddatda to‘lash sharti bilan Avtomobil zavodiga avtomobil dvigatellarini xarid qilish uchun berilgan qarz;

– tadbirkorlarning “Tadbirkorbank” dan olgan krediti;

– “Toshkentnonmahsulotlari” XJdan “O‘zbektelekom” XJning aksiyalarining xaridi;

– Parij klubidan olingan qarz;

– oilaning muzlatkich sotib olishi;

– oilaning bolalarni o‘qishi uchun bankdan bir yilga olgan qarzi;

– London klubidan olingan qarz;

– “O‘zbekgaz”ning “O‘zbektelekom” XJ ning aksiyalari xaridi.

5. Taniqli iqtisodchilar bir yildan so‘ng mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni quyidagi holda: S=10+0,7V; I=50 mlrd. dollar; G=100 mlrd. dollar. bo‘ladi deb taxmin qilmoqdalar. Kelgusi yilda mo‘ljallanayotgan YaMM darajasini aniqlang.

6. Tijorat banklarining majburiy zaxira normasi omonatlarning 20% ni tashkil qiladi. Tijorat bankida №1 omonat miqdori 100000 dollarga ko‘paygan deb hisoblasak:

a) 1 - raqamli bank o‘zining beradigan ssuda miqdorini qancha oshirishi mumkin?

b) shu summani X subyekt A firmadan tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun olgan. A firma bu pulni 2 - bankka o‘tkazgan. 2 - bank qancha miqdorda ssuda bera oladi?

d) bank tizimi qancha miqdordagi pul summasiga ega?

7. MBning quyidagi chora tadbirlari pul taklifiga qanday ta’sir o‘tkazadi?

– MB davlatning qimmatli qog‘ozlarini 50 mln. so‘m miqdorida sotadi;

- MB hisob stavkasini pasaytiradi;
- MB majburiy zaxira normasini pasaytiradi;
- MB davlatning qimmatli qog‘ozlarini 50 mln. so‘m miqdorida xarid qiladi;
- MB hisob stavkasini oshiradi;
- MB majburiy zaxira normasini oshiradi.

Testlar:

1. Qat’i belgilangan zaxira normasi bu-:

- pul miqdorini cheklash vositasi;
- kundalik bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan pul mablag‘larining miqdori;
- omonatlarni muzlatish yo‘li;
- hozirgi vaqtda zaxira normasidan foydalanilmaydi.

2. Pul massasining miqdori muntazam tushib turadi, qachonki tijorat banklari:

- jamg‘armalarni kamaytirsa;
- aholiga beradigan ssuda hajmini qisqartirsa;
- aholini naqd va naqd bo‘lмаган омонатлари хисобига о‘зининг маъбүриятларини qisqartirsa;
- MB омонатлarning bir qismini qaytarib oladi.

3. MB hisob stavkasini kamaytirish natijasida:

- tijorat banklarining umumiyl zaxira miqdori ko‘payadi;
- aholi jamg‘armalari miqdorining o‘sishi rag‘batlantiriladi;
- MB tijorat banklariga beradigan ssuda miqdorini kamaytirishga yordam beradi;
- boshqa maqsadlar ko‘zlanadi.

4. Pul taklifi bu-:

- aholi va tadbirkorlarning ma’lum vaqtda o‘z ixtiyorlarida bo‘lishini xohlaydigan pul;
- MB tomonidan bozorda taklif qilingan pul miqdori;
- depozitlardagi pul miqdori;
- davlat qarzlarining aholiga to‘lanishi.

5. “Qimmatbaho” pullar siyosatining mohiyati:

- pul taklifining ko‘payishi;
- investitsiya xarajatlarining o‘sishi;

- d) MB tomonidan obligatsiyalarni xarid qilish, rezerv normasining pasayishi, hisob miqdorining pasayishi;
 - e) MB tomonidan obligatsiyalarning sotilishi, rezarv normasining oshishi, hisob miqdorining oshishi.

6. “Ochiq bozordagi operatsiya” atamasi deganda:

- 6. O‘chniq bozordagi operatsiya“ atamasi deganda:**

 - a) tadbirkorlarga tijorat banklari tomonidan beriladigan kredit tushu-niladi;
 - b) MB tomonidan tijorat banklariga beriladigan qarz;
 - d) bandlik va inflyatsiyaning o‘zgarishiga qaratilgan MB operatsi-yasi;
 - e) MBning qimmatli qog‘ozlarni sotish va xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiya.

7. Monetar siyosat bu-:

- a) pul taklifi va foiz miqdoriga asoslangan siyosat;
 - b) taklif o‘zining talabini keltirib chiqaradi degan nazariya;
 - d) talab o‘zining taklifini keltirib chiqaradi degan nazariya;
 - e) kishilar yalpi farovonlikka erishish uchun qarorlar qabul qiladilar degan nazariya.

8. Davlat obligatsiyalar chiqardi. Bu operatsiya kreditning qanday turiga kiradi?

- a) iste'molchilar;
 - b) tijorat;
 - d) davlat;
 - e) bank.

9. Bitimlar uchun pulga bo‘lgan talab quyidagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi:

- a) foiz miqdori ko‘payishi bilan pulga bo‘lgan talab oshadi;
 - b) foiz miqdori kamayishi bilan pulga bo‘lgan talab kamayadi;
 - d) NYaMM oshishi bilan pulga bo‘lgan talab pasayadi;
 - e) NYaMM kamayishi bilan pulga bo‘lgan talab pasayadi.

10. Majburiy rezerv normasi 100% bo‘lganda pul multiplikatorining miqdori:

11. Agarda pulga talab va taklif oshsa, u holda:

- a) pul miqdorining muvozanati va foiz stavkasining muvozanati ko‘tariladi;

b) pul miqdorining muvozanati va foiz stavkasining muvozanati pasayadi;

d) pul miqdorining muvozanati ko‘tariladi, foiz stavkasining o‘zgarishini aniq aytib bo‘lmaydi;

e) pul miqdorining muvozanati ko‘tariladi, lekin pul miqdorining o‘zgarishini aniq aytib bo‘lmaydi.

12. Agarda MB aholidan ko‘p miqdorda obligatsiyalar sotib olsa, unda:

a) tijorat banklarining joriy hisoblari kamayadi;

b) MBning tijorat banklarining zaxiralari asosida majburiyatlari oshadi;

d) MB ning hisob stavkasi va ssuda miqdori oshadi;

e) MB ning hisob stavkasi va ssuda miqdori kamayadi.

13. Hisob stavkasining oshishi odatda:

a) aksiya va obligatsiya baholarining oshishiga;

b) aksiya va obligatsiya baholarining pasayishiga;

d) aksiya bahosining pasayishi, obligatsiya baholarining oshishiga;

e) aksiya bahosining oshishi va obligatsiya baholarining pasayishiga olib keladi.

14. Pul bozorida muvozanat nimaga teng?

a) muomalaga chiqarilgan pul miqdoriga;

b) muomalaga chiqarilgan tovarlar miqdoriga;

d) talab va taklif munosabatlariga;

e) pul talabi va taklif o'rtasidagi muvozanatga bog'liq.

15. Kredit nima?

a) ortiqcha to‘plangan pul;

b) qarz berish;

d) qarz olish;

e) muayyan muddatga, ma'lum bir foiz hisobiga qarz berish.

16. Siz 100 ming so‘m pulni bankdan yiliga 200% to‘lash sharti bilan 2 yilga kredit oldingiz. Kredit muddati tugashi bilan bankka qancha qaytarishingiz kerak?

- a) 200 ming b) 400ming
d) 500ming e) 800ming

17. Kredit qanday shart asosida beriladi?

a) kredit berish vaqtiga haq to‘lash va qaytarish sharti bilan;

b) foiz bilan vaqtida qaytarish;

d) foydadan haq to‘lash;

e) chegaralanmagan vaqtida qaytarish.

18. Olingan kreditga to‘lanadigan foiz nima?

a) bank xizmatlari tannarxi;

b) bank xizmatchilar iishchi kuchining bahosi;

d) kreditga beriladigan pulning qiymati;

e) ma’lum vaqtga olingan pul uchun to‘lanadigan haq.

19. Kredit tizimi nima?

a) pullarning banklarda jamg‘arilishi;

b) banklardagi pullarning xalq xo‘jaligi tarmoqlariga foydalanish uchun taqsimlanishi;

d) banklar tomonidan foydalanish uchun beriladigan pullar ustidan nazorat qilish;

e) moliya - kredit muassasalarining majmuasi.

20. Bank foydasi nima?

a) depozitivlar bo‘yicha foizlar;

b) kredit bo‘yicha foizlar;

d) kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlar bilan depozitivlar o‘rtasidagi farq;

e) xarajat va daromad o‘rtasidagi farq.

21. Rivojlangan davlatlarda xaridorlar qilgan xarid mollari uchun haqni chek bilan to‘laydilar. Bu chek daftari egasining bankda schyoti bo‘ladi. Bu qanday schyot?

a) omonat pullarining jamg‘arma schyoti;

b) joriy schyot;

d) korrespondent schyot;

e) sintetik schyot.

22. Bank quyida ko‘rsatilgan operatsiyalarning qaysi biri bilan shug‘ullanadi?

a) passiv operatsiyalar bilan;

b) aktiv operatsiyalar bilan;

d) passiv va aktiv operatsiyalar bilan;

e) naqd - pulsiz bo‘ladigan operatsiyalar bilan.

23. Hisob-kitob stavkasi nimani ifodalaydi?

a) sohibkorlikning tijorat banklaridan oladigan ssuda miqdorining bahosi;

b) tijorat banklari oladigan foiz miqdori;

d) talab va taklif egri chizig‘ining kesishgan nuqtasi;

e) xalqaro valyuta fondi beradigan kreditlarning foiz miqdori.

24. Kredit munosabatlarining mohiyati va vazifalari uning qaysi shaklida to'laroq namoyon bo'ladi?

- a) iste'molchilik kreditida;
- b) ipoteka kreditida;
- c) tijorat kreditida;
- d) bank kreditida.

14 - mavzu. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli

Klassik maktab namoyondalari A.Smit, D.Rikkardo va boshqalar davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda aralashuviga salbiy munosabatda bo'lganlar. Ularning fikricha bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga solib turuvchi mexanizm bozor hisoblanadi, davlat esa ushbu jarayonga aralashmasligi lozim. Lekin XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish amaliyoti bozor mexanizmi resurslarni samarali ishlatishni ta'minlab bera olmasligini ko'rsatdi. 1929-1933 yillardagi kuchli iqtisodiy inqiroz buning yaqqol dalili bo'ldi. Iqtisodiy inqirozning oldini olish va oqibatlarini yumshatish, milliy iqtisodiyotni tartibga soluvchi mexanizmini angliyalik iqtisodchi J.Keyns asoslab berdi. U iqtisodiy tanazzuldan iqtisodiyot o'zi chiqib keta olmasligini, buning uchun davlatning aralashuvi zarur ekanligini asoslab berdi. U davlat o'zining iqtisodiy siyosati vositasida, jami talab va jami taklifni bir-biriga muvofiqlashtirishi, iqtisodiyotni tanazzul holatidan chiqarishi, keyinchalik barqarorlikni ta'minlashi zarur degan g'oyani ilgari surgan.

Rivojlangan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishi natijasida iqtisodiy tanglikning keskinligi birmuncha pasayadi, aholi turmush darajasi oshadi. O'zbekiston Respublikasida davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatli olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov «Murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilaydi. Iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va mustaqil davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish va izchil ro'yobga chiqarish kerak». - deb ta'kidlaydi.

Mavzuning maqsadi:

1. Bozorni davlat tomonidan boshqarish zarurligini izohlash;
2. Pirovard hollarda tashqi samaraning qanday vujudga kelishini tu-shuntirish;
3. Ijtimoiy ne'mat tushunchasini tushuntirish va uning nima uchun iste'molchilardan olingan soliq hisobiga shakllanishini izohlash;
4. Davlatning bozor mexanizmiga aralashuv chegarasini aniqlash;
5. Davlatning bilvosita va bevosita aralashuvini farqlash.

Asosiy atama va tushunchalar:

Ijtimoiy ne'mat. Tashqi samaralar. Daromadlarni taqsimlash. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning vazifalari. Monopoliyalarga qarshi si-yosat. Huquqiy asosni yaratish. Daromadlarni qayta taqsimlash. Mak-roiqtisodiy muvozanatlashtirish. Resurslarni taqsimlash. Davlatni bosh-qarish vositalari: davlatning bevosita va bilvosita iqtisodiyotga arala-shuvi. Davlat mulki. Fiskal siyosat. Pul-kredit siyosati. Ijtimoiy siyosat. Tashqi iqtisodiy siyosat.

Savollar:

1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblanishining nazariy asoslarini qanday tushuntirish mumkin?
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblanishining maqsadlari nima-lardan iborat?
3. Iqtisodiyotni tartibga solishning qanday modellarini bilasiz?
4. O'zbekistonda iqtisodiyotni tartibga solish qanday olib boriladi?
5. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegarasi nima bilan belgilana-ni?
6. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qanday tamoyillar asosida olib boriladi?

Topshiriqlar:

1. Raqobatli bozor iqtisodiyotining ijobiy va salbiy tomonlarini aytинг. Bozor iqtisodiyotiga davlatning aralashuvini oqlash mumkinmi?
2. Ijtimoiy ne'mat nima? Davlat qanday manbalar yordamida ijti-moiy ne'matlarni yaratadi. Quyidagi ne'matlar kim tomonidan ishlab

chiqarilishi kerak? (davlatmi yoki bozormi) – non, ko‘chani yoritish, shahar transporti, ko‘priklar, avtomillarning to‘xtash joyi, teatrlar, favvoralar, milliy mudofaa, pochta xizmati, kutubxonalar, MBni ta’mir-lash.

3. Quyidagilarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlang:

- ijtimoiy ne’matlar davlat tomonidan ishlab chiqarilishi kerak;
- iqtisodiyot amaldorlar manfaatini qondirish maqsadida boshqariladi;
- davlatni ma’muriy buyruqbozlik usuli yordamida boshqarilishi iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi;
- ijtimoiy ne’matlar odatda xususiy bozorlarda sotiladi;
- davlat sektori kiyim va poyabzal ishlab chiqarish ko‘rinishida bo‘ladi;
- bozorning baho mexanizmi o‘z-o‘zini boshqarish, xarajatlarni qoplash va iqtisodiyotning muvozanatli holda bo‘lishini ta’minlaydi;
- ijtimoiy ne’matlar birgalikda iste’mol qilinishi bilan tavsiflanadi;
- agarda davlat tovarlarga muvozanatli bahodan past baho belgilasa, bunda tovarlarning kamomadligi yuzaga keladi;
- davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining nochor qatlam-larining ijtimoiy himoyasini kafolatlaydi;
- davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdan maqsadi – kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash bilan ishsizlikni qis-qartirish;
- agarda qandaydir tovarga muvozanatli bahodan past bo‘lgan baho o‘rnatilsa, bunda shu tovarning sifati oshadi;
- ijtimoiy ne’matlarni maqsadga muvofiq bo‘lgan holda taqsimlash «cheгарвиy daromad va cheгаравиy xarajat» qoidasi asosida amalga oshiriladi;

4. Nima uchun makroiqtisodiy siyosatning maqsadi ishlab chiqarish hajmini oshirish, baholar darajasini mo’tadil holda saqlash, bandlilik darajasining yuqori bo‘lishi hamda muvozanatli savdo balansiga ega bo‘lishdan iborat? Ideal iqtisodiy siyosatni amalga oshirish mumkinmi? Javobingizni izohlang.

5. Daromadlar va resurslarni taqsimlash, bandlilik darajasini mo’tadil holda saqlash, baholar darajasiga davlatning quyidagi vazifalari qanday ta’sir ko‘rsatadi?

- Mirobod tumanida yangi mакtabning qurilishi;

- yangi tumanning qurilishi;
- korxonalardan olinadigan soliq miqdorining 2% ga kamayishi;
- aksiz to‘lovlari miqdorining 5% ga ko‘tarilishi;
- harbiy xarajatlar miqdorining 50 mlrd. so‘mga oshishi;
- aholidan olinadigan daromad solig‘ining 5% ga qisqarishi;
- minimal ish haqi miqdorining 18 ming so‘mdan 30 ming so‘mga ko‘tarilishi;
- daromad solig‘ining 5% ga oshishi.

6. Nima uchun butun dunyoda shahar transporti hokimiyatning dotasiyasi bo‘ladi?

7. Nima uchun davlat yangi sanoat tarmoqlarini moliyalashtiradi? Ko‘pincha davlat uning qurilishini to‘liqligicha o‘z zimmasiga oladi?

8. Quyidagi jumlalardan tushirib qoldirilgan so‘zлarni o‘rniga qo‘yib, to‘g‘ri javob topganingizni tekshirib ko‘ring:

a) Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblashning asosiy moliyaviy vositasi _____ dir. b) “Xulkar” firmasi faoliyati _____ uchun ahamiyatli bo‘lganidan davlat byudjetidan unga _____ berildi. d) “Qo‘shekko‘prik” firmasini sanatsiyalash uchun unga ____ imtiyoz berildi. e) Solievlar oilasi yangidan ochgan kichik korxona ____ga ____ dan ozod qilindi. f) Mahsulot eksportini ko‘paytirish uchun davlat _____ bekor qildi. g) Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatida ____ o‘sirish va ____ qattiq nazorat qilish asosiy o‘rinni egallaydi.

9. Korxonaning jami xarajatlari 5 million so‘mga teng. Shundan 12 foizi gaz xarajatlaridir. Davlat korxonaga sotadigan gazni narxi 30 foizga tushurildi. Davlat korxonaga necha so‘mlik yordam ko‘rsatgan bo‘ladi?

10. Hozir 1 foiz investitsiya 0,7 foizga teng iqtisodiy o‘sishni ta’milaydi. Davlat kreditni arzonlashtirgani tufayli investitsiya 5 foizga oshdi. Necha foiz iqtisodiy o‘sish ta’minlandi?

Testlar:

1. Bozor mexanizmining kamchiliklari:

- a) iste’molchilar va tadbirkorlarning erkin tanlashi;
- b) bozorning monopollashuv tendensiyasi;
- d) ixtisoslashuv va ijtimoiy mehnat taqsimoti;
- e) raqobat kurashi.

2. Quyidagilarning qaysi biri ijtimoiy ne’mat hisoblanadi:

- a) shahar transporti;
- b) xususiy restoran;
- d) mudofaa majmui;
- e) attorlik buyumlarini ishlab chiqarish.

3. Davlatning qanday mablag‘lari ijtimoiy ne’mat ishlab chiqarishga sarflanadi:

- a) importni oshirish hisobiga;
- b) eksportni kamaytirish hisobiga;
- d) soliq tushumlaridan foydalangan holda;
- e) transfert to‘lovlari hisobiga.

4. Davlatning kam daromadli aholisini ijtimoiy himoyalash vazifasini aniqlang:

- a) huquqiy asosni yaratish;
- b) raqobatni qo‘llab-quvvatlash;
- d) imtiyoz va nafaqalar berish;
- e) makroiqtisodiy darajada iqtisodiyotni tartibga solish.

5. Davlatning iqtisodiyotga bevosita aralashuvi quyidagilarning qaysi birida namoyon bo‘ladi:

- a) kredit-pul siyosatida;
- b) byudjet siyosatida;
- d) qonun chiqarishda;
- e) soliq siyosatida.

6. Quyidagi muammolardan qaysi biri bilan davlat shug‘ulananishi kerak:

- a) jamiyatning pul mablag‘larini taqsimlash;
- b) kam daromadga ega bo‘lgan iste’molchilarga yordam berish;
- d) mahsulot hajmi va assortimentini rejalashtirish;
- e) jamiyat a’zolariga kerakli bo‘lgan tovar va xizmatlar hajmini aniqlash.

7. Ijtimoiy ne’mat bilan shaxsiy ne’mat o‘rtasidagi farq nimadan iborat:

- a) iste’molning keng qamrovligi bilan;
- b) taqsimlashning teng emasligi bilan;
- d) iste’molning doimiy ekanligi;
- e) iste’molning ustuvorligi.

8. Davlat qanday yo‘l bilan daromadlarni qayta taqsimlaydi:

- a) pul-kredit siyosati bilan;
- b) faqat transfert to‘lovlari yordamida;

- d) monopoliyalarga qarshi olib boriladigan siyosat bilan;
- e) soliqlar va transfert to‘lovlari yordamida.

9. Davlatning monopoliyaga qarshi olib boradigan siyosatidan maqsad:

- a) monopoliyalarni yo‘qotish;
- b) raqobatni yo‘qotish;
- d) raqobat kurashini qo‘llab-quvvatlash;
- e) bozor mexanizmini takomillashtirish.

10. Hozirgi davrda davlatning iqtisodiyotni bosh-qarish mexanizmi qanday amal qiladi?

- a) davlat iqtisodiyotni inflyatsiyaga qarshi baholar, soliq normativ-investitsiya, tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish siyosatlari yordamida tartibga soladi;
- b) ma’muriy, huquqiy, iqtisodiy usullar yordamida iqtisodiyotni tartibga soladi;
- d) iqtisodiyotni ma’muriy yo‘l bilan boshqaradi;
- e) boshqa davlatlar bilan bitimlar tuzish yordamida boshqaradi.

11. Bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi muammolarning qaysi biri bilan davlat shug‘ullanishi kerak?

- a) o‘z vazifalarini bajarish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul fondlarining shakllanishi va uni to‘g‘ri taqsimlanishi bilan;
- b) ishlab chiqarish korxonalariga olgan pul daromadlarining samarali foydalanish usullarini belgilab berish yo‘li bilan;
- d) tovar ishlab chiqarishning hajmi va uning turlarini rejalashtirish bilan;
- e) jamiyatga zarur bo‘lgan tovarlar va xizmatlar doirasini aniqlash bilan.

15 - mavzu. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya qilish bozori iqtisodiyotning asosiy muammoasi hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining asosi moddiy ne’matlar yaratishdir. Sarf etilgan xarajatlar qoplangandan so‘ng qolgan milliy daromad jamiyat a’zolari o‘rtasida taqsimlanadi. Lekin daromadlar har xil taqsimlanadi. Daromadlarning noteng taqsimlanishiga, uning sabablari mavjud. Kam daromadga ega bo‘lganlar davlatning ijtimoiy siyosati yordamida himoya qilinadi.

Daromadlarning tengsizligi ijtimoiy adolat tushunchasiga zid emas. Ijtimoiy tenglik deganda jamiyat a'zolarining tenghuquqliligi tushuniladi. Bozor munosabatlarining mavjud ekanligi iqtisodiy tengsizlik muammosini bartaraf etmaydi.

Mavzuning maqsadi:

1. Aholining daromadlari va ularning turlarini aniqlash;
2. Daromadlarning tengsizligini tushunish va Lorens egri chizig'i bilan tanishish;
3. Kambag'allik, ijtimoiy adolat, ijtimoiy tenglik tushunchalarini o'r ganish;
4. Aholini ijtimoiy himoyalash metodini baholash.

Asosiy atama va tushunchalar:

Ijtimoiy siyosat. Daromadlar. Hayot darajasi. Iste'molchilar byudjeti. Kambag'allik ostonasi. Yashash minimumi. Fiziologik minimum. Iste'molchilar savatchasi. Lorens egri chizig'i. Djini koeffitsiyenti. Transfert to'lovlari. Ijtimoiy himoya. Daromadlarni indeksatsiyalash. O'zbekistonda va boshqa davlatlarda olib boriladigan ijtimoiy siyosatning mohiyati.

Savollar:

1. Aholi daromadlarining asosi nimadan iborat?
2. Daromadlarning noteng ekanligi, jamiyat a'zolarining teng huquqli ekanligiga zid emasmi?
3. Ijtimoiy adolat nima?
4. Iqtisodiy adolat nima?
5. Daromadning tabaqalashuvi deganda nimani tushunasiz?
6. Nima uchun daromadlar teng taqsimlanmaydi?
7. Lorens egri chizig'i nimani ifodalaydi?
8. Daromadlar bilan iste'molga moyillik o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
9. Yalpi farovonlik nima?
10. Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishi nimani ifodalaydi?

Topshiriqlar:

1. Amerika Qo'shma Shtatlaridayuqori, shuning uchun ish haqi ham yuqori. Yaponiyada ish haqi past, chunki u yerda Ish haqining past yoki yuqori bo'lishiqonuniga bog'liq.

Daromad oshsa, iste'mol kamayadi,.....oshadi. Daromad kamaysa iste'mol oshadi,..... kamayadi. Iste'molga moyillik birligida o'lchanadi. Muvozanatli ish haqi mehnat bozoridagi.....holatga bog'liq.

2. Shu yili oziq-ovqat bahosi 15% ga, transport bahosi 11% ga, komunal to'lovlar 9% ga oshgan. Aholi pul daromadlari 22% ga oshgan. Aholi real daromadini aniqlang.

3. Davlat uy xo'jaliklaridan nimani sotib oladi: gazni, neftni, ish kuchini, moliyaviy va moddiy resurslarni.

4. Kishilar iste'molga nisbatan jamg'arishga ko'proq pul sarflamoq-dalar. Buning sababi nima?

1) Daromadlar oshgan;

2) Daromadlar kamaygan.

5. Nima uchun odamlar har xil daromadga egalar? Daromadlarning teng emasligi sabablarini aytинг. Tengsizlik deganda mulkka egalik merosxo'r bilan yuqori darajada intellektual rivojlanish o'rtasida qandaydir farqni ko'rsatish mumkin-mi? Kontrabanda bilan shug'ullanuvchi, litsenziyaga ega bo'limgan sotuvchi va matematika fanidan repetitorning daromadlarining umumiy o'xshash tomoni nimada?

6. Quyidagilarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang:

- Lorens egri chizig'ining shakli transfert to'lovlariga bog'liq emas;
- minimal iste'molchilar savatchasida faqat oziq-ovqat mahsulotlari hisobga olinadi;
- sanoati rivojlangan davlatlarda daromadlarni indeksatsiyalash tizimi davlat xizmatchilari va nafaqaxo'rlarigagina tegishli;
- daromadlarni indeksatsiyalash unumli mehnatni rag'batlantiradi;
- ixtiyordagi daromad - individual soliqlar va majburiy to'lovlar siz bo'lgan shaxsiy daromad;
- kambag'allik darajasi minimal ish haqi asosida aniqlanadi;
- agarda Lorens egri chizig'i bissiktrissasidan nariga surilsa, aholi daromadlarining tabaqalashuvi kuchaygan;
- aholini daromadlarining asosini ijtimoiy to'lovlar tashkil etadi;

– bozor iqtisodiyoti amal qilgan davlatlarda siyosat inflyatsiyani pasaytirish maqsadida olib boriladi;

– transfert to‘lovlari davlatning ayrim kishilarga beradigan to‘lov-laridir.

7. Aytaylik Ravshan 800 ming so‘m, Aziz 550 ming so‘m, Bahodir 300 ming so‘m, Odil 200 ming so‘m, Nazrullo 150 ming so‘m daromadga egalar. Yuqoridagi ma’lumotlar asosida 5 kishining daromadlari ifoda-langan Lorens egri chizig‘ini chizing va uni tushuntirib bering.

8. Quyidagi ma’lumotlar asosida ikkita Lorens egri chizig‘ini chizing:

a) soliqlar to‘lanmasdan va transfert to‘lovlari olinmasdan daromadlar quyidagicha taqsimlangan: 1 guruh 20% aholi milliy daromadning 2% ga egalik qilgan; 2 guruh - 10%; 3 guruh – 15%; 4 guruh – 20%; 5 guruh - 53%.

b) soliqlar to‘langandan so‘ng, transfert to‘lovlari olingandan so‘ng, daromadlar quyidagicha taqsimlangan:

1 guruh 20% -5% daromadga ega bo‘lgan;

2 guruh 20%- 14% daromadga ega bo‘lgan;

3 guruh 20% - 21% daromadga ega bo‘lgan;

4 guruh 20% - 25% daromadga ega bo‘lgan;

5 guruh 20% - 35% daromadga ega bo‘lgan;

Lorens egri chizig‘ining qaysi birida sizningcha soliq olishda ijtimoiyadolat prinsipiga riosa qilingan?

9. Jamiyat a’zolari o‘rtasida milliy daromadni qanday taqsimlash kerak? Jamiyat a’zolarining qo‘shgan hissalariga qarabmi? Mutaxassisligiga qarabmi? Taqsimlash jarayonida adolatli va tenglik tushunchalari ayniyatmi? Umuman adolat bo‘lishi mumkinmi?

10. Davlat davlat byudjeti daromadlarini soliqlar hisobiga 10% oshirishni, shu bilan bir vaqtda byudjet sohasidagi xizmatchilarning ish haqi 40% ga, nafaqani 30% ga oshirishni mo‘ljallaydi. Bu chora-tadbirlar biz ko‘rsatib o‘tgan guruhdagilarning real daromadlariga qanday ta’sir qildi?

11. Yuz yillar davomida kishilar o‘zlarini boqib kelganlar. Nima uchun keyinchalik nafaqa to‘lashga davlat aralasha boshladi? Qariyalar mehnat faoliyati davrlarida yig‘gan pullari bilan o‘zlarini nafaqa bilan ta’minlay oladilarmi?

12. Aholining qaysi qatlamlari eng kam ta'minlangan hisoblanadi? Ularga qanday yordam berish mumkin? Davlat qanday yo'l bilan va qanday miqdorda daromadlarni teng taqsimlashga erishiladi?

13. Ijtimoiy himoya tizimi nima? Davlat uni ta'minlashi shartmi? O'zbekistonda ijtimoiy himoyalashning qanday chora-tadbirlari qo'llaniladi?

14. Toshkent shahrida yashashi uchun bolasiz oilalarga qancha pul kerak bo'ladi? Siz pulingizni nimaga sarflaysiz? Minimal iste'mol byudjeti nima?

Testlar:

1. Aholi daromadlari:

- a) ish haqi;
- b) ish haqi va ijtimoiy to'lovlar;
- d) aholi ihtiyyorida bo'lgan va o'z ehtiyojini qondirish uchun kerak bo'lgan moddiy mablag'lar;
- e) individ tomonidan yil davomida olingan pul mablag'ları.

2. Aholi mablag'larining asosiy manbalari:

- a) davlat tomonidan beriladigan nafaqlar majmuasi;
- b) shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olinadigan daromad;
- d) individual ishdan olinadigan daromad;
- e) korxona, tadbirkorlik faoliyati daromadlari va ijtimoiy to'lovlar.

3. Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichi:

- a) ish haqi va uy ro'zg'or buyumlari;
- b) aholining real daromadlari;
- d) aholining barcha daromadlari;
- e) aholining pul daromadlari.

4. Tengsizlikning sabablari:

- a) ma'muriy-buyruqbozlik tizimining yemirilishi;
- b) bozor iqtisodiyotining vujudga kelishi;
- d) kishilar qobiliyatlari va bilim darajasining har xil ekanligi;
- e) davlatning pul-kredit siyosati.

5. Ijtimoiy tenglik:

- a) kishilarning qo'shgan hissalariga yarasha daromad olish;
- b) hissasiga bog'liq bo'lmasan holda daromadga egalik qilish;
- d) daromadlarni teng taqsimlash;
- e) transfert to'lovlarining mavjudligi.

6. Shaxsiy va jamg‘arish uchun foydalaniladigan daromad bu:

- a) nominal daromad;
- b) ixtiyordagi daromad;
- d) real daromad;
- e) shaxsiy daromad.

7. Lorens egri chizig‘i nimani ifodalaydi:

- a) daromadlarning taqsimlanishini;
- b) daromadlarning teng taqsimlashni;
- d) daromadlarning noteng taqsimlashni;
- e) daromadlarningadolatli taqsimlashni.

8. Davlat qanday yo‘l bilan daromadlaniadolatli taqsimlashga erishadi:

- a) kredit berish bilan;
- b) antimonopol siyosatdan foydalanib;
- d) soliq va transfert to‘lovlaridan foydalanib;
- e) ma’muriy usullar yordamida.

9. Ijtimoiy adolat:

- a) barcha bir xil ne’matga ega bo‘lganda;
- b) aholining kam himoyalangan qatlamlari imkon qadar ko‘p ne’matlar bilan ta’minlanganda;
- d) barcha maksimum ne’matlar bilan ta’minlanganda;
- e) kishi mehnatiga yarasha ne’matlarga ega bo‘lganda.

10. Real daromad:

- a) individ tomonidan ma’lum vaqtida ishlab topilgan pul mablag‘i;
- b) individning daromadlari va to‘lovlarining soliq to‘langandan keyingi ixtiyorida qolgan pul;
- d) individga kerak bo‘lgan pul summasi;
- e) barchasi noto‘g‘ri.

11. Daromadlarni taqsimlashdagi tongsizlik faqat:

- a) bozor iqtisodiyoti amal qilgan davlatlarda bo‘ladi;
- b) ma’muriy-buyruqbozlik davlatlarida bo‘ladi;
- d) davlatning qanday bo‘lishidan qat’i nazar hammasida bo‘ladi;
- e) kam rivojlangan davlatlarda bo‘ladi.

12. Djenni koeffitsiyenti:

- a) daromadlarningadolatli taqsimlanishini ifodalaydi;
- b) daromadlarning noteng taqsimlanishini ifodalaydi;
- d) daromadlarning mutlaq adolatsiz taqsimlanishini ifodalaydi;
- e) daromadlarning taqsimlanishiga hech qanday aloqasi yo‘q.

13. Kambag‘allik bu:

- a) jamiyatda belgilangan standartdagi hayot kechirish darajasiga mos keladi;
- b) hayot darajasi mamlakatdagi standartdan past;
- c) yashash darajasi standartdan yuqori;
- d) davlat tomonidan belgilangan minimal yashash darajasiga mos keladi.

14. Ijtimoiy himoyaning eng muhim tamoyili:

- a) kambag‘allik chegarasida yashaydigan odamlarga yordam berish;
- b) daromadi farovonligidan qat’i nazar jamiyatning barcha a’zosiga yordam berish;
- c) ijtimoiy himoya ko‘rsatayotgan xizmat ko‘rsatishga murojaat et-ganlarga yordam berish;
- d) har bir individning daromadi, yashash sharoiti, jamiyat farovonligiga qo‘shgan hissasi va mehnatiga qarab yordam berish.

15. Aholi daromadlari nima?

- a) ish haqi;
- b) ish haqi va ijtimoiy nafaqalar;
- c) o‘z ehtiyojini qondirish uchun aholi ixtiyoridagi moddiy vositalar;
- d) ma’lum bir vaqt ichida aholi tomonidan olinadigan pul mablag‘lari summasi.

16. Aholi daromadlarining asosiy manbalari nima?

- a) davlat nafaqalarining hamma turlari;
- b) yordamchi xo‘jalikdan olinadigan daromad;
- c) yakka tartibdagi faoliyat natijasida olinadigan daromadlar;
- d) korxonalardan va tadbirkorlik natijasida olinadigan daromadlar yig‘indisi.

17. Agar sizning yillik daromadingiz 50% ga ko‘paysa, lekin siz xarid qiladigan tovarlar bahosi 100% oshsa, unda sizning yillik daromadingiz haqida nima deyish mumkin?

- a) yillik daromad ko‘payadi;
- b) yillik daromad kamayadi;
- c) nominal daromad kamayadi;
- d) yillik daromad o‘zgarmaydi.

18. Daromadlar tengsizligining asosiy sababi nima?

- a) ma’muriy buyruqbozlikning tugatilishi;
- b) bozor iqtisodiyotining shakllanishi;

- d) davlatning pul-kredit siyosati;
- e) ma'lumot va qobiliyat darajasidagi tafovutlar.

19. Ijtimoiy tengsizlik nima?

- a) insonning qilgan mehnatlariga mutanosib ravishda boylikka ega bo'lishi;
- b) jamiyatda sarflangan mehnati va ko'rsatish xizmatlaridan qat'iy nazar farovonlikka ega bo'lishi;
- c) insonlar qobiliyatining turlicha ekanligi;
- d) ijtimoiy iste'mol fondlaridan turlicha foydalanish.

20. Ijtimoiy iste'mol fondi nima?

- a) aholi uchun to'lanadigan pul mablag'lari;
- b) mukofot pullari;
- c) ish haqi, yordam va mukofot pullari;
- d) insonning mehnat qilish jarayonida ishtirok etish, etmasligidan qat'i nazar davlat tomonidan tashkil topgan maxsus fondlardan ularga ajratiladigan pul mablag'lari.

IV bo‘lim. Jahon xo‘jaligi.

16 - mavzu. Jahon xo‘jaligi va uning evolyutsiyasi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi

Jahon xo‘jaligi iqtisodiyot nazariyasining alohida bo‘limini tashkil etadi. Uning predmeti mamlakatlar o‘rtasida tovarlar va xizmatlar ayirboshlash, moliya va ishlab chiqarish omillarining joylashtirish kabi kabi qator muammolarni o‘rganishdan iborat. Jahon xo‘jaligning vujudga kelishi resurslarning notekis joylashganligidadir. Ayrim davlatlarda mehnat resurslari, ayrimlarida xomashyo resurslari, yana birida moliyaviy resurslar ko‘p bo‘ladi. Davlatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalar o‘rnatilganda ulardan samarali foydalanishga erishiladi.

Bir davlatdan ikkinchi davlatga moliyaviy resurslar, (investitsiyalar) bir davlatdan ikkinchi davlatga ish kuchi, bir davlatdan ikkinchi davlatga xomashyo resurslari (m:neft, gaz) “oqib” o‘tadi. Jahon xo‘jaligi tizimida o‘zaro iqtisodiy munosabatlarda bo‘lgan davlatlar bir-biridan iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy jihatdan farq qiladi va shuning uchun bu munosabatlar silliq kechmaydi. Ular o‘rtasida ziddiyatlar bo‘lishi tabiiy hol.

Jahon xo‘jaligi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi darajasidan qat’i nazar iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq milliy xo‘jaliklar majmuidan iborat. Iqtisodchilarning hisoblariga ko‘ra, jahon hamjamiyati 2800 xildan ortiq so‘zlashgani, 500 xildan ortiq pul birligida savdo qilgani holda, davlatlarning taraqqiyoti bir-biri bilan nihoyatda chambarchas bog‘langan. Bunday bog‘liqlikni hisobga olmaslik ko‘pgina xatolarga olib kelishi mumkin.

Jahon xo‘jaligning kurtaklari qadim-qadim davrlarda vujudga kelgan. Jahon xo‘jaligning rivojlanishi va uning tuzilmasini o‘zgarishida fan texnika taraqqiyoti katta ahamiyatga ega. Fan texnika taraqqiyotining o‘zi mamlakatlarning tabaqlashuviga boy, o‘rtahol, kambag‘al davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Jahon xo‘jaligi o‘z holicha stixiyali rivojlanadigan tizim emas. Uning faoliyatini bir nechta tartibga soluvchi mexanizmlar boshqaradi. Bularga xalqaro valyuta

fondi (XVF), Xalqaro taraqqiyot va rekonstruksiya banki (XTRB), Xalqaro savdo tashkiloti, Xalqaro mehnatni tashkil etish tashkiloti va boshqalar kiradi.

Jahon xo‘jaligi evolyutsiyasi jarayonida yuz bergan o‘zgarishlar, birinchi va ikkinchi jahon urushida insoniyat uchun og‘ir yo‘qotishlar kishilik jamiyati oldiga mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, qarama - qarshiliklar, kelishmovchiliklarni sivilizatsiyalashgan yo‘l bilan hal qilishni obyektiv zaruriyat qilib qo‘ydi. Aynan shu zaruriyat tufayli xalqaro tashkilot – Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ga asos solindi. 1945 yil 24 oktyabrda uning ustaviga 51 mamlakat vakillari imzo chekdi.

Davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish, yer yuzida tinchlikni saqlash uchun kurash va xavfsizlikni ta’minlashga erishishda BMT alohida o‘rin tutadi. BMT ustaviga 1945 yil 24 oktyabrda dastlab 51 mamlakat imzo chekan bo‘lsa, hozirga kelib, deyarli barcha mustaqil davlatlar a’zo, shu jumladan O‘zbekiston ham. BMTning shtabkvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan.

Mavzuning maqsadi:

1. Butun jahon xo‘jaliklarining mohiyati tuzilishi va vujudga kelishi-ning shart-sharoitlarini o‘rganish;
2. Ishchi kuchi va kapital migratsiyasini o‘rganish;
3. Mutlaq va nisbiy afzallik nazariyalarini o‘rganish;
4. Savdo to‘siqlarining asosiy shakllarini, proteksionizm siyosatining iqtisodiy oqibatlarini o‘rganish.

Asosiy atama va tushunchalar:

Butunjahon xo‘jaligi. Kapitalni chetga chiqarish. Chetga kapital chiqarishning tadbirkorlik va ssuda shakllari. Maqsadli va portfel investitsiyalar. Mehnat resurslarining xalqaro miguruhatsiyasi. Ssuda kapitali bozori. Integratsiya. Jahon savdosi. Eksport va import. Reeksport va reimport. Tashqi savdo aylanmasi. Mutlaq afzallik. Nisbiy afzallik nazariyasi. Fritirderlik. Proteksionizm.

Savollar:

1. Jahan xo‘jaligi evolyutsiyasi nima, uning tarkibiy tuzilishiga ta’sir etadigan eng muhim omil nima?
2. Transfert baho qanday baho?
3. Jahan xo‘jaligi munosabatlarining obyekti va subyekti nima?
4. Integratsiyalashuv jarayoni nima?
5. Monopolistik ustunlik modeli qanday g‘oyani ilgari suradi?
6. Ixtisoslashuv koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
7. Xeksher-Olen nazariyasini izohlang.
8. Leontev paradoksi nima? Uning Xeksher-Olen nazariyasini rivojlantirishdagi rolini izohlab bering?
9. «Xarajatlar ishlab chiqarish» modelining asoschisi kim?
10. Eksport kvotasi qanday aniqlanadi?

Topshiriqlar:

1. O‘zbekistonda qorako‘l ishlab chiqariladi. Qorako‘l Yaponiyada ishlab chiqarilsa, bunday holat qaysi nazariyaga mos keladi? Bu nazariyaning asoschisi kim?
2. Braziliyada kofe, O‘zbekistonda paxta, Hindistonda choy, Arab davlatlarida neft ishlab chiqariladi. Bu qanday nazariya asosida tushuntiriladi. Bu nazariyaning asoschisi kim?
3. Hozirgi kunda davlatlarning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligini qanday omil yordamida asoslash mumkin?
4. Quyidagilarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang:
 - davlatlar bir-biridan farovonlik darajasi bilangina emas, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan ham farqlanadi;
 - eksport kvotasi davlatlarning jahon xo‘jaligida ishtrok etish darajasini ifodalaydi;
 - ijtimoiy mehnat taqsimoti davlatlarning tabiiy iqlim sharoitidagi farqqa asoslanadi;
 - kapitalning harakati – jahon iqtisodiy munosabatlari shakllaridan biri;
 - ish kuchi migratsiyasi rivojlangan davlatlarga ko‘chishni ifodalaydi;
 - portfelli investitsiyalar – ssuda formasidagi kapitalning harakati;

– savdo to‘sıqlarini qo‘yishdan maqsad mamlakatni muhofaza qilish;

– tovarlar va xizmatlarning eksporti ularning milliy iqtisodiyotdagi miqdorini kamaytirish bilan birgalikda pulning qadrsizlanishiga sabab bo‘ladi;

– savdo to‘sıqlari yangi tarmoqlarni himoya qilish maqsadida qo‘llaniladi;

– import hajmining ko‘payishi norentabel korxonalarining yo‘qotishga sabab bo‘ladi;

– import kvotalari erkin savdoga hech qanday to‘sinqlik qilmaydi;

– importni cheklash samarasiz ishlab chiqarishni saqlab qoladi.

5. O‘zbekistonda qulay investitsiya sharoitida vujudga kelib, chet el kapitalining kirib kelishi kuchaydi deb faraz qilamiz. Bunda chet elliklar bizning iqtisodiyotimiz ustidan nazoratni o‘z qo‘llariga oladilar, deyish mumkinmi?

Mamlakatimizga kirib kelayotgan kapitalning salbiy va ijobjiy oqibatlari bo‘lishi mumkinmi?

Davlat bunday holatda qanday chora ko‘radi?

6. Quyidagi tadbirlarning iqtisodiy mohiyatini aniqlang:

a) Germaniya konserni O‘zbekistondan yer sotib oldi va paxtani qayta ishlaydigan kombinat qurdi;

b) O‘zbekiston fuqarosi Shvetsiyaga o‘zining jamg‘armalarini o‘tkazdi va shu davlatga doimo yashash uchun ko‘chib ketdi;

d) O‘zbekiston zavodlaridan biri traktorlarning eksportini amalga oshirdi va yil davomida foizlar bilan qarzni to‘lashni zimmasiga oldi;

e) fransuz fuqarolari birjada chet el aksiyalarini sotib oldi;

f) Rossiya oligarxi Angliyaning taniqli futbol klubidan aksiyalarni sotib oldi;

h) Nyu-York banki Pokiston davlatiga 500 ming dollarlik kredit berdi.

7. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan proteksiyaviy himoyalanish kerakmi? Unda qanday tovarlar himoyalanishi talab etiladi: samolyotlar, avtomobillar, bug‘doy, jun, tekstil, muzlatkichlar, o‘g‘it, paxtalar?

8. Quyida A va B davlatlarining ishlab chiqarish imkoniyatlari keltirilgan: (15-jadval)

a) ikkala davlatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko‘rsating;

b) har bir davlat ixtisoslashuv natijasida qaysi mahsulotni ishlab chiqarishi kerak;

d) ixtisoslashuvgacha A davlat B variantni, B davlat E variantni qo'llagan. Davlatlar xalqaro savdosini 1X : 3,5U nisbatda oshirishga kelishildi. Ikkita davlatning savdo imkoniyatlarini chizmada ifodalang hamda tashqi savdodan keladigan foydani ko'rsating.

15-jadval

Variantlar	A davlat Mahsulot U	A davlat Mahsulot X	B davlat Mahsulot U	B davlat Mahsulot X
A	0	32	0	24
B	5	24	4	18
D	10	16	8	12
E	15	8	12	6
F	20	0	16	0

9. Aytaylik, ikkita davlat ikki xil tovar (golf va futbol uchun koptoklari) ishlab chiqaradi. Bu tovarlarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan: (16-jadval)

16-jadval

Tovarlar	Mehnat sarfi (mahsulot birligiga ketgan vaqt)	
	A davlat	B davlat
Futbol koptoklari	40	90
Golf koptoklari	20	30

- a) qaysi davlat ikkala tovarni ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega?
- b) ikkala tovarning muqobil xarakterlanishini hisoblang;
- c) qaysi davlat futbol to'plarini ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega;
- d) xalqaro savdo mavjud emas deb faraz qilamiz:

Har bir davlat 400 tadan ishchiga ega bo'lib, haftada 40 soat ish bilan band. Dastlab har bir davlatda ishchilarning yarmi futbol to'plari va golf to'plarini ishlab chiqargan. Har bir davlatda qancha futbol to'pi va golf to'plari ishlab chiqarilgan?

f) agar davlat import to'loving (bojlarini) ko'paytirsa, mamlakatdagi iste'molchilarga, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, chet el eksportchilaring ahvoli qay tarafga o'zgaradi?

Testlar:

1. Jahon xo‘jaligi:

- a) ishlab chiqarish kooperatsiyasi, tovarlarni chetga chiqarish, moli-yaviy investitsiya jarayonlari, kadrlarni almashtirish;
- b) davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mohiyati;
- d) milliy davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki;
- e) xalqaro mehnat taqsimoti bilan bog‘liq bo‘lmagan munosabatlar.

2. Xalqaro mehnat taqsimotining vujudga kelishining sababi:

- a) ko‘pgina davlatlarda ish kuchi malaka darajasining past ekanligi;
- b) ba’zi davlatlarda tabiiy resurslarning ko‘pligi;
- d) hayot tarzidagi farq;
- e) resurslarning noyobligi.

3. Iqtisodiy integratsiya nima?

- a) ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida vujudga keladigan ijtimoiy mehnat taqsimoti;
- b) bir nechta davlatlar xo‘jaligining yaqinlashuvi;
- d) mamlakatda xalq xo‘jaligi majmuining vujudga kelishi ishlab chiqarishning baynalmallashuvi, iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotlar;
- e) bir nechta davlat o‘rtasidagi xalqaro birlashma.

4. Maqsadli chet el investitsiyasi:

- a) aralash korxonalarini tashkil etish;
- b) chet el qimmatbaho qog‘ozlarini xaridi;
- d) xorijiy kompaniyalarga korxonalarini ijaraga berish;
- e) XVFdan kredit olish.

5. Jahon xo‘jaligi subyektlari:

- a) davlat va xalq xo‘jaligi majmui;
- b) TMK;
- d) xalqaro tashkilotlar va muassasalar;
- e) barchasi to‘g‘ri.

6. Davlatning xalqaro ijtimoiy taraqqiyotda ishtrok etish darajasi quyidagilarda ifodalangan:

- a) eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar soni bilan;
- b) eksport kvotasi bilan;
- d) import kvotasi bilan;
- e) boj soliqlari darajasi bilan;

7. Eksport kvotasi:

- a) eksportning YaIMga nisbati bilan;
- b) mamlakatdan olib chiqib ketish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar soni bilan;
- d) mamlakatga olib kirish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar soni bilan;
- e) eksport va import o‘rtasidagi farq bilan.

8. Qanday holda chetga kapital chiqariladi?

- a) boshqa davlatlarda foyda normasi yuqori bo‘lganda;
- b) o‘z davlatida ishlab chiqarish samaradorligi past bo‘lganda;
- d) o‘z davlatida chet el kapitali ko‘p bo‘lganda;
- e) barchasi to‘g‘ri.

9. Qanday holda ish kuchi migratsiyasi amalga oshiriladi?

- a) har xil davlatlarda kishilarning hayot tarzida farq bo‘lganda;
- b) investitsiyalarni har xil joylashtirish va milliy ish haqida farq mavjud bo‘lganda;
- d) ba’zi davlatlarda yomon tabiiy sharoit bo‘lganda;
- e) boshqa davlatlarni ko‘rish maqsadida.

10. Tashqi savdo aylanmasi – bu:

- a) import miqdori;
- b) eksport miqdori;
- d) import + eksport;
- e) eksport – import.

11. A davlat 1 birlikdagi resursdan foydalanib 1t. Paxta yoki 4 t. Neft ishlab chiqaradi. B davlat xuddi shunday birlikdagi resurslardan 2t. Paxta va 5 t. Nevt ishlab chiqaradi, bunda:

- a) A davlat paxtani eksport qiladi va neftni import qiladi;
- b) B davlat paxtani eksport va neftni import qiladi;
- d) A davlat paxtani sotmaydi, sotib ham olmaydi;
- e) B davlat neftni sotmaydi, sotib ham olmaydi.

12. Importga boj soliqlarini kiritishdan maqsad:

- a) importni rag‘batlantirish;
- b) eksportni rag‘batlantirish;
- d) ichki bozorda baholarni ko‘tarilishi;
- e) mamlakat ishlab chiqarishini himoya qilish.

13. Erkin savdoni qo‘llashdan maqsad:

- a) yosh korxonalarini chet el raqobatidan himoya qilish;
- b) mamlakat ichida bandlilikni ta’minlash;
- d) mudofaani mustahkamlash;

e) barchasi noto‘g‘ri.

14. Mamlakatga kelayotgan tovarlardan olinadigan soliq:

- a) import kvotasi;
- b) importga belgilangan boj solig‘i;
- d) tarifsiz to‘siqlar;
- e) barchasi to‘g‘ri.

15. Mutlaq afzallik nazariyasiga binoan:

- a) mamlakat savdodagi sheriklariga nisbatan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishida kam xarajat qiladi;
- b) mamlakat savdosidagi sheriklarga nisbatan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda nisbatan kamroq muqobil xarajatlar qiladi;
- d) boj solig‘ini kamaytirish bilan xalqaro savdoda notarif cheklashlar o‘rtasidagi farqni kamaytirish kerak;
- e) import va eksport baholar o‘rtasida qat’iy nisbatni belgilash zarur.

16. Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etadigan davlat agarda ishlab chiqarish imkoniyatlaridan, ko‘proq iste’mol qilsa, unda:

- a) yopiq siyosat olib borilgan bo‘ladi;
- b) ochiq siyosat olib borilgan bo‘ladi;
- d) savdodan yutilgan bo‘ladi;
- e) import hajmini kamaytirish ehtimolligi bo‘ladi;

17. Ikki davlat solishtirilganda va ular o‘rtasidagi savdo munosabatlari tahlil etilganida, A davlat quyidagilarga ega bo‘lishi mumkin:

17-jadval

Ishlab chiqarish (soatda)	A davlat	B davlat
Mato (metr)	5	15
Sharob (litr)	10	25

- a) mato ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega;
- b) sharob ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega;
- d) mato ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega;
- g) sharob ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega.

18. Agarda ikki davlat o‘rtasida o‘zaro savdo amalga oshirilsa, unda B davlatda:

- a) sharob import qilinadi;
- b) sharob eksport qilinadi;
- d) sharob va mato import qilinadi;
- e) sharob va mato eksport qilinadi.

19. Paritet baho qanday baho?

- a) davlatlar o‘rtasidagi baholar nisbati;
- b) davlatlar o‘rtasida dunyo miqyosida talab va taklif asosida vujudga kelgan baho;
- c) birjada vujudga kelgan baho;
- d) mahsulotlarning xarid qobiliyatini solishtirish natijasida vujudga kelgan baho.

20. Davlatlarning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rnini belgilaydigan omilni belgilang:

- a) eksport miqdori;
- b) fan-texnika yuzasidan aloqalar;
- c) lizinglar miqdori;
- d) barcha javob to‘g‘ri.

21. Davlatning taraqqiyot darajasini belgilaydigan omillarni ketma-ketlikda ifodalang:

xomashyo, lizing, ish kuchi, tayyor mahsulot, valyuta, kapital, eksport.

22. Xalqaro ish kuchi migratsiyasining sababi nimada?

- a) ishsizlik darajasidagi farq;
- b) ish haqi darajasidagi farq;
- c) turmush darajasidagi farq;
- d) barchasi to‘g‘ri.

17 - mavzu. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari

Jahon xo‘jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi. Uning tobo-
ra chuqurlashib borishi davlatlar o‘rtasida ayirboshlashni amalga oshi-
rishni taqozo etadi. Jahon bozori davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatiga
ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Unda faqat umumiy emas, balki milliy man-
faatlar ham o‘z ifodasini topadi.

Jahon xo‘jaligining shakllanishi iqtisodiyot nazariyasi fani oldida
mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi foydalimi
yoki yo‘qmi degan muammoni rivojlantirishda vujudga keladigan
muammolarni aniqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu muammo
bilan savdoning vujudga kelish davridan boshlab qiziqib kelinmoqda.
Xalqaro savdoning rivojlanishida davlatni olib boradigan savdo siyosati
muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqillik yillaridan boshlab respublikamizda savdo munosabatlari rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston shu kunda 140 dan ortiq davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirmoqda. Jahon krizisi bizning ham iqtisodiy munosabatlarimizga ta’sir qilmay qolmaydi. Shu maqsadda Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish davr talabi» mavzusiga bag‘ishlangan dokladida kelajakda iqtisodiy aloqalarimizni va bartaraf qilish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqildi.

Tashqi bozorda (jahon krizisi) konyunkturaning yomonlashuviga qaramasdan 2008 yilda tashqi savdo aylanmasi 21,4 foizga oshdi. Ayni vaqtda tovarlar va xizmatlar eksporti 28,7 foizga ortdi. Ijobiy saldo hajmi oshdi. 2008 yilda umumiyligi eksport hajmida xomashyo bo‘lmagan tovarlarning ulushi 71 foizdan ziyodni tashkil etdi.

Jahon xo‘jaligini valyuta munosabatlarisiz tasavvur etish mumkin emas. Xalqaro valyuta munosabatlari puldan foydalanish boshlangan vaqtda amal qila boshlagan.

Valyuta munosabatlari to‘lov balansi orqali ayrboshlash va taqsimlash sohasida amal qilsada xalqaro iqtisodiy munosabatlarga va milliy davlatlarning holatiga ta’sir o‘tkazadi. «Valyuta» degan atama italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, qiymat degan tushunchani ifodalaydi.

O‘zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan iqtisodning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Ustuvor yo‘nalishlardan biri mamlakatning mustaqil pul birligini ishlab chiqish va O‘zbekistonning jahon valyuta tizimida o‘ziga xos bo‘lgan o‘rnini egallashdir.

Pulning jahon xo‘jaligida amal qilishi, ish kuchi migratsiyasi, xalqaro savdo, kapital migratsiyasi, daromadlar, subsidiyalar oqimi, fan-texnikani ayrboshlash, turizm, sport, madaniy aloqalar bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar valyuta munosabatlari deyiladi. Jahon xo‘jaligi ijtimoiy taraqqiyot natijasida yiriklashib, xalqaro korporatsiyalar vujudga keladi.

Xalqaro korporatsiyalarning filiallari butun dunyoga tarqaladi. Korporatsiyalarning internatsional tarkibining barcha elementlari bosh kompaniyaning global strategiyasidan kelib chiqqan holda yagona uyg‘un mexanizm sifatida amal qiladi. Bosh maqsad, uning alohida bo‘g‘inlaridan emas, balki yaxlit holda korporatsiyalardan foyda olishdir.

Transmilliy korporatsiyalarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgandek, jahon xo‘jaligining muhim tarkibiy qismiga aylanishi tufayli butun dunyo yagona bozorga aylanib boradi. Jahon xo‘jaligining yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi va bilimlar bozori sifatida ifodalanishi globalizatsiya deyiladi.

Atama va tushunchalar:

Xalqaro savdo va uning tarkibiy bo‘laklari. Tashqi savdo oboroti. To‘lov balansi. Kliring to‘lovlari. Proteksionizm. Eksportga qaratilgan iqtisod. Eksport. Import. Reimport. Mutlaq afzallik nazariyasi. Nisbiy afzallik nazariyasi. Savdo balansi. Savdo balansining qoldig‘i (saldo). Savdo kvotasi turlari. Demping.

Valyuta. Valyuta munosabatlari. Milliy valyuta tizimi. Valyuta kursi. Suzuvchi valyuta kursi. Belgilangan valyuta kursi. Valyuta bozori. Yevro - valyuta. Oltin standart. To‘lov balansi. To‘lov balansi kamomadi. To‘lov qobiliyati pariteti. Valyuta savatchasi. Xalqaro valyuta fondi. Xalqaro taraqqiyot va ta’mirlash banki. Xalqaro oltin bozori.

Savollar:

1. Savdo balansi nima?
2. To‘lov balansi nima?
3. Reeksport nima? Reimportchi?
4. Embargo nima?
5. Devalvatsiya nima?
6. Xalqaro mehnat taqsimoti va savdoda milliy manfaatlar nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. O‘zbekistonning xalqaro savdo tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishi qanday salbiy va ijobiyligi oqibatlarga olib kelishi mumkin?
8. Mamlakatning raqobatbardoshligini ta’mirlash uchun nimalar qilish kerak?
9. Qulay savdo va iqtisodiy aloqalar rejimi nimani anglatadi?
10. Turli mamlakatlar uchun “Erkin xalqaro savdo” prinsipi qanday ahamiyatga ega?
11. Valyuta nima?
12. SPOT operatsiyasi nima?
13. Xalqaro valyuta tizimi nima?

14. Valyuta intervensiysi deganda nimani tushunasiz va u kim tomonidan o‘tkaziladi?
15. Suzuvchi valyuta kursi nima?
16. Ekzotik valyutalarga qanday valyutalar kiradi?
17. Valyuta kursi qayerda belgilanadi?
18. Xalqaro valyuta fondi, xalqaro bank qanday tashkilot? Ular o‘rtasidagi farq nimadan iborat?
19. Moliyaviy krizis nima?
20. Oltin standarti nima?
21. Jahon xo‘jaligining globallashuvi nima?
22. Global muammolar nima?
23. Xo‘jalik munosabatlarining globallashuvi mamlakat xavfsizligi uchun qanday ijobiy va salbiy ta’sir etadi?
24. Geoiqtisodiy makon nima?
25. Konversiya nima?
26. Hozirgi davrdagi umumbashariy muammolarning xususiyati nimadan iborat?
27. Qanday muammolarni global muammolarga kiritamiz?
28. Jahon infratuzilmasi nima?
29. Umumbashariy muammolarning asosi qaysilar?
30. Umumbashariy muammolarni bartaraf etishning asosiy yechimi nimada?

Testlar:

1. Mutlaq afzallik nazariyasi asoschisi kim?

- a) D.Rikardo;
- b) A.Smit;
- c) J.Keyns;
- d) K.Marks.

2. Nisbiy afzallik asoschisi kim?

- a) D.Rikardo;
- b) A.Smit;
- c) J.Keyns;
- d) K.Marks.

3. To‘lov balansi qanday bo‘limlardan iborat?

- a) savdo balansi;
- b) xizmatlar balansi;

d) notijorat operatsiyalari balansi va kapital, kreditlar harakati balansi;

e) barchasi to‘g‘ri.

4. To‘lov balansini davlat qanday usullar bilan tartibga soladi?

- a) bevosita nazorat qiladi;
- b) deflyatsiya yordamida tartibga soladi;
- c) valyuta kursini o‘zgartiradi;
- d) hammasidan foydalanadi.

5. Fritiderlik siyosati qanday siyosat?

- a) ochiq siyosat;
- b) yopiq siyosat;
- c) eksportni cheklash;
- d) importni cheklash.

6. Proteksionizm siyosati qanday siyosat?

- a) ochiq siyosat;
- b) yopiq siyosat;
- c) eksportni cheklash;
- d) importni cheklash

7. Nima maqsadda xalqaro valyuta tizimiga o‘tilgan?

- a) xarajatlarni kamaytirish;
- b) raqobatga bardoshlik bo‘lish uchun;
- c) foyda olish uchun;
- d) jahon bozoriga kirish uchun.

8. Suzuvchi valyuta kursi qanday aniqlanadi?

- a) talab va taklif asosida;
- b) birjada belgilab olinadi;
- c) davlatlar o‘zaro kelishib kursni belgilaydi;
- d) davlat belgilaydi.

9. Konvertirlangan valyuta nima?

- a) valyutaning hech qanday cheklashlarsiz boshqa valyutaga almashish;
- b) milliy davlat chegarasidagi milliy valyutaning amal qilinishi;
- c) kreditlarga belgilangan valyuta kursi;
- d) milliy boylik hisobidagi valyuta.

10. Oltin standartining kamchiligi nimada?

- a) oltinning noyobligida;
- b) tashishdagi qiyinchilikda;
- c) oltin zaxiralarining xususiy mulk egalarida ekannligida;

e) uning yemirilishida.

11. Valyuta kurslarining o‘zgarishiga qanday omil ta’sir ko‘rsatadi?

- a) mamlakatlar milliy daromadining o‘zgarishi;
- b) xalqaro narxlarning nisbiy o‘zgarishi;
- c) milliy valyutalarga talab va taklifning o‘zgarishi;
- d) nisbiy real foiz stavkalarining o‘zgarishi.

12. Quyidagilarning qaysi biri umumbashariy muammo hisoblanadi?

- a) texnika taraqqiyoti;
- b) ekologiya;
- c) konversiya;
- d) integratsiya.

13. Konversiya nima?

- a) harbiy sanoat bilan tinch sanoatning qo‘shilishi;
- b) harbiy sanoat bilan tinch sanoatga nisbatining o‘zgarishi;
- c) harbiy sanoat majmuining vujudga kelishi;
- d) qurollanish poygasi.

14. Oxirgi yillarda yana qanday muammolar vujudga keldi?

- a) terrorizm, giyohvandlik;
- b) sil kasalligi;
- c) Tinch okean havzalarining ifloslanishi;
- d) ocharchilik.

15. Global muammolarning bartaraf etishning asosiy yo‘li nima?

- a) qurollanishni qisqartirish;
- b) ishlab chiqarishni kengaytirish;
- c) ish bilan band etish;
- d) yangi resurslarni izlab topish.

ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари. – Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т.: Ўзбекистон. 1996й. 3-28 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий исло-ҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3.: Ўзбекистон, 1996й. 175 – 366 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида Т.6. – Т.: Ўзбекистон, 1998й. 106-124 б; 162-226 б.
4. Каримов И.А.. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш. Мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.13. 174-223 б.
5. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иктисодий инқизози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т. “Ўзбекистон”, 2009 й. 4-34 б.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида Т. “Ўзбекистон”, НМИУ. 2012й. 266-292 б.
7. Каримов И.А. 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир // Turkiston, 2015 у, 17 yanvar. 1-6 бетлар.
8. Каримов И.А. Бетакроримсан, ягонасан, она Ватаним – Ўзбекистоним! Мустақилликнинг 24 йиллига бағишланган тантанали маросимдаги сўзи // Халқ сўзи. 1 сентябрь 2015 й. 1 бет.

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. Шодмонов Ш.Ш., Фофуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Moliya-iqtisod 2008. – 728 б.
2. Ўлмасов А., Вахабов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. Т.: Шарқ, 2006. – 480 б.
3. Станковская И.К., И.А.Стрелец. Экономическая теория. Учебник. 3-е изд.испр. – М.: Эксмо, 2009. – 448 с.
4. Самуэльсон Пол Е., Нордхаус В.Д. Экономика.: Учебник. / 18-е изд: Пер.с англ. М.: ООО «И.Д.Вилямс», 2009. 1360 с.

5. Макконнелл К, Брю С. Экономика: принципы, проблемы и политика. Учебник. 17-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 916 с.
6. Ўлмасов А., Вахабов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2014.
7. O'lmasov A, Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014.
8. Qodirov A. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. 2-nashr. – Т., 2010. – 301 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Камаев В.Д., Ильчиков М.З., Борисовская Т.А. Экономическая теория. Краткий курс. Учебник. – М.: КНОРУС, 2010. 384 с.
2. Носова С.С. Экономическая теория. Элементарный курс: учеб.пос. – М.: КНОРУС, 2010. 510 с.
3. Экономическая теория. Экспресс-курс: учеб.пос. под.ред. Грязновой А.Г. и др. – М.: КНОРУС, 2010. 606 с.
4. Носова С.С. Экономическая теория. Дистанцион. обучение. Учеб. пос. – М. КНОРУС, 2010 . 254 с.
5. Г.С.Вечканов “Экономическая теория”. Учебник для ВУЗов. 3-е изд. СПб, 2012. - 512 с.

Elektron resurslar

1. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti.
2. www.aza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
3. www.ceep.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

Mundarija

Kirish	3
---------------	----------

I-bo‘lim.	Iqtisodiyotning umumiy nazariy asoslar	
1- mavzu	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish uslublari.....	4
2- mavzu	Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari.....	10
3-mavzu	Tovar - pul munosabatlarining rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyati.....	21
4-mavzu	Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati.....	35
II - bo‘lim	Mikroiqtisodiyot	
5-mavzu	Raqobat va monopoliya.Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari.....	44
6-mavzu	Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi. Korxona xarajatlari va foydasi.....	53
7- mavzu	Ish haqi va mehnat munosabatlari.....	66
8- mavzu	Agrar munosabatlar va agrabiznes.....	72
III- bo‘lim	Makroiqtisodiyot	
9 – mavzu	Milliy iqtisodiyot va uning makro-iqtisodiy o‘lchamlari. Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari.....	80
10- mavzu	Yalpi talab va yalpi taklif. Iste’mol, jamg‘arma va investitsiyalar. Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati.....	86
11– mavzu	Iqtisodiy o‘sish va milliy boylik. Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik.....	91
12– mavzu	Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.....	102
13 - mavzu	Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli...	109
14 - mavzu	Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli...	116
15-mavzu	Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.....	121

IV- bo‘lim**Jahon xo‘jaligi**

16-mavzu	Jahon xo‘jaligi va uning evolyut-siyasi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi..	129
17-mavzu	Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.....	137
	Adabiyotlar.....	143

Qaydlar uchun

Muharrir: Sidiqova Karomat